

Muassislar:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi

1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:

Sirojiddin SAYYID
Alisher SA'DULLAYEV
Minhojiddin MIRZO
Iqbol MIRZO
Nodir JONUZOQ
G'ayrat MAJID
O'razboy ABDURAHMONOV
Kengesboy KARIMOV
Abatbay DANIYAROV
Shuhrat SIROJIDDINOV
Bahodir KARIMOV
Sobir O'NAR
Ilhom TO'XTASINOV
Rustam MUSURMON
Farrux JABBOROV

Bosh muharrir:

Faxriddin HAYIT

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nurilla ChORI

Mas'ul muharrir:

G'iyosiddin O'NAROV

Adabiy muharrir:

Husan MAQSUD

Muharrirlar:

Abdurauf ZOKIROV
Dilnoza RUSTAMOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi binosi.
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz

Web sayt: www.yoshlikjurnali.uz

Tel.: (0371) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: H.MAQSUD



3

Zohidjon Olov

Halollik va birdamlikka
chorlov!

8

Iqbol Mirzo
Ko'chat. Avakado



17

Gulandom Tog'ayeva

Sening dargohingda
umidsizlik yo'q...



20

Sirojiddin Ahmad

Aks holda, biz yana
aldanamiz



50

**Dilnoza
Rustamova**Vaqtini
o'ldirayotgan
"asar"lar

23

Bahodir Qobul

Ichimdagi jo'ra

**Rahimboy
Jumaniyozov**

Badiiyatga tashna qalblar

54



26

**Inomjon
Shavkatov**Arslon yelkasidagi
xazina

56

**Dilmurod
Akbarov**Quvonchim
baxtim,
zahmatimdadir

43

**Behzod
Fazliddin**Baxt qo'shiq
kuylaydi...

60

**Eshqobil
Shukur**

Yashil qushlar



46

Ilhom AhrorKengliklar
hikmati – go'zal
tasavvur**Sa'dulla Siyoyev**

"Neksiya"ning ildizi

62



Halollik va birdamlikka chorlov!

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasini diqqat bilan, tanqidiy-tahliliy nigoh bilan, ongli ravishda kuzatdim! Murojaatnomada ilgari surilgan o'tkir va teran mulohazalarni tingladim, o'zim uchun tegishli xulosalar chiqardim.

Ayni kez butun mamlakatimiz bo'ylab mazkur chiqishga turfa aks-sadolar yangramoqda. Ommaviy axborot vositalarida siyosatchilar, sotsiologlar va boshqa soha mutaxassislari chiqishlar qilib, mazkur murojaatnomaning qadr-qimmatini, o'rni, ahamiyati haqida fikrlarini aytyapti.

Xo'sh, bu murojaatnomadan ijodkor ahli, xususan, yosh shoir va yozuvchilar, tarjimon-u publitsistlar nima oladi, qanday xulosa chiqaradi? Nazarimda, mana shu savolga, albatta, yechim topish lozim. Prezident so'zining avvalidayoq yil nomini e'lon qildi va undan oldin **“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”**, deb ta'kidladi. Bu so'zlar zamirida anglagan odam uchun bir umrga tatigulik saboq bor, yo'nalish bor.

Tarbiya, aql-zakovat, chinakam ma'rifat sohibi bo'lish, madaniyat egasi yurtning ertasi bo'lgan navqiron avlod uchun ko'proq muhim. Har qanday taraqqiyot zamirida tarbiya turadi. Tarbiya va intizom bo'lmagan sohada esa hech qachon yuksalish,



rivojlanish bo'lmaydi. Prezidentimizning murojaatnomasi asosini aynan mazkur tamoyil tashkil etdi, desam xato bo'lmaydi.

Bobomeros orzu...

Yurtboshimiz o'z nutqi boshida yana bir jiddiy masalaga e'tibor qaratdi: **“Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi”.**

Bu masalalar aslida butun insoniyatning intilishi, orzusi, matlabi. Eng rivojlangan mamlakatlar aynan shu vajlar evaziga ilgarilab ketgan. Mashaqqat oldida tiz cho'kmaslik, kurashuvchanlik, harakat, jipslik kabilar buyuk ajdodlarimizning azaliy orzusi bo'lgan. Amir Temur markazlashgan buyuk davlat qurganida ham shu ilinj, shu istak uni takror va takror qo'lga qilich olishga majbur etgan. Hazrat Navoiy shu orzu bilan qo'lga qalam olgan, davlat va jamoat ishlarida sidqidildan mehnat qilgan. Hatto o'z yurtidan Hind sari yuzlangan Zahiriddin Muhammad Boburning ko'zlarida ham jiqqa yosh emas, aynan shunday orzular jilvasi yalt etgandi.

Bu orzu bizning qonimizda bor, otameros, bobomeros orzu! – Birdamlik! Jipslik! Bilimlilik! Mehnatsevarlik! Jasorat! Sadoqat!

Prezident davlat tepasiga kelganidayoq ilgari surgan va xalqning ko'nglidan joy olgan shior bor: **“Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak!”** Bu so'zlarni tinglaganda ko'ziga yosh olgan, qo'llari mushtlanib, keyin esa shu qo'llari bilan chin yurakdan qarsak chalgan odamlarni ko'rganman! Bu birgina shior boshini baland tutib yurishni, olifta qilib aytsak, yerga do'ppisi tushsa, pul berib oldirgulik oqsuyak xalqimizning qaddini ko'tardi. Yana kimligini, qanday ziyoli, ilmi va ma'rifatparvar, adolatparvar, haqiqatgo'y bobolarning avlodi ekanimizni eslatib qo'ydi! Biz yetmish yil mute xalq bo'ldik, undan keyin ham bu “rutba”ni olib tashlash oson bo'lmadi!

Aslida bu xalqning Prezident tilidan aytgan orzusi edi, talabi edi! Gap aytili, endi amaliyotga o'tish kerak! O'tgan asrning 90-yillarida bo'lgani kabi chorlovlar, shiorlar kitoblarda, gazeta sahifalarida qolib ketmasligi kerak! Prezidentimiz atrofida birlashishimiz lozim!

Ijara uylarga o'rgangan ilhom parisi...

2020-yilga **“Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”** deb nom berilishini ortiqcha muhokama qilib o'tirish shart emas, nazarimda. Chunki bu haqda yuqorida deyarli to'xtalib bo'ldim.

Shu kuni yana bir tarixiy gap aytili. Ayniqsa, bu “viloyatdan kelgan” (afsuski, shunday deyishga o'rganganmiz!) do'stlarimiz, hamkasblarimiz uchun quvonch qo'ng'irog'i bo'ldi. Toshkent shahridan atigi 45 km uzoqda – Parkentda tug'ilgan bo'lsam-da, bir vaqtlar “O'zbekiston” nashriyotiga aynan propiska masalasida ishga kirishga qiynalgan, oxiri yotoqxonada vaqtincha “uchot”da turib, ishga kirgan “muhojir” sifatida yayradim! Agar o'shanda zalda bo'lganimda qiyqirib yuborardim zavqlanganimdan!

Prezidentimiz anjumanda o'tirgan basavlat mansabdorlarga yuzlanib: “...parlament va

hukumat 2020-yil 1-aprelga qadar propiska tizimini isloh qilish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganib, aniq takliflarni ishlab chiqishi lozim", dedi. Mahalliy chirigan "tajriba"ni ulqotirib, xalqaro tajribani o'rgan, dedi! Bu tarixiy topshiriq! Katta topshiriq! Qani, u qay tariqa yechilarkin, kuzatamiz!

Ijodkor yoshlarnigina emas, katta avlod vakillarini ham uy-joy masalasi doim qiynab kelgan. Ijarachi qayoqdandir paydo bo'lib "Pulini to'la!" deb tursa, ko'ngilga ijod sig'adimi? Ilhom parisini ijara uylarda kutib, umri o'tgan shoirlar, yozuvchilar ozmi?

Shu ma'noda, Yurtboshimizning "Kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida shaharlarda 16 ming oilaga uy-joy olish uchun boshlang'ich badal va kredit foizini qoplashga byudjetdan 1 trillion so'm subsidiya ajratiladi", deya ta'kidlagani bir taraf, keyin: **"Mening eng katta niyatim shuki, Vatanimiz ichra har bir inson o'zining "kichik vatani"ga - uy-joyiga ega bo'lsa, bizdan xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo'ladi"**, degan samimiy tilagi bir taraf bo'ldi. Xalqning tepasida xalqim, elim deydigan, shu yurt uchun yonadigan, kuyib-pishadigan shunday odam turganiga Xudoga tinmay shukrona aytish kerak.

Yoshlar uyg'onmasa, jamiyat uyg'onmaydi...

Yoshlar masalasi bilan maqolani boshlagandim. Shu mavzuga alohida to'xtalsam. Yoshlar har qanday jamiyatning rangini, tusini, tutumini belgilab beradigan kuch. Bu toza qon, toza havo, toza nafas degani. Xalqning ertasigina emas, bugungi holatiga ham yoshlarning ahvoli, sa'yiga qarab baho berish mumkin. Shuning uchun ham Yurtboshimiz o'z nutqida:

"...yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak", dedi.

Yoshlar qachon yuksaladi, qachon kamolga yetadi, qachon dilidagini qalamiga tomizib

ijod qiladi? Qachonki tinchligi bo'lsa, xotirjamligi bo'lsa! Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi lozim. Chunki bir kishining loqaydligi tufayli minglab, yuz minglab aholi a'ziyat chekishi mumkin. Hamma bir-biriga mas'ul, burchdor!

"O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" degan shior aslida aynan shuning ifodasidir! Siz o'z bolangizni asrasangiz, o'z oilangizni, o'z oilangizni asrasangiz, o'z Vatangizni asragan bo'lasiz! Bu da'vat aynan yoshlar, yoshlar bo'lganida ham qalbi olov ijodkor yoshlar timsolida yuz beradi!

Prezident: **"Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish - birinchi darajali ahamiyatga egadir"**, dedi. Birinchi darajali ahamiyatga ega! Bu nima degani? Davlat uchun, xalq uchun, davlat rahbari uchun yoshlar masalasidan ulug'roq masala yo'qligi bugungi kun suratini, bugun davlat uchun eng muhim masala nimadan iboratligini, bugungi xalqaro vaziyatning tasviri, talabi nima ekanini chizib beradi, anglatadi. Yoshlar uyg'onmasa, jamiyat uyg'onmaydi, yoshlar o'zgarmasa, davlat, jamoat - hech narsa o'zgarmaydi!

Agar **"Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari"** degan dasturiy g'oya yoshlar ongini qamrab olmasa, ulardan ona yurtga sadoqatni, Sharqona tarbiyani, tashabbuskorlik, fidoyilik, odamiylikni, boshqa axloqiy fazilatlarini kutish mumkinmi? Tiklanish - bu yakuniy maqsad emas, u boshlanishi, xolos! Oliy muddao - yuksalish! Taraqqiy etish, ravnaq topish, gullab-yashnash! Dunyodagi qo'li uzun mamlakatlar sirasiga kirish! Bunga faqat va faqat yoshlarning kuch-g'ayrati, salohiyati, jonkuyarligi bilan erishiladi!

“Halollik vaksinasi”ning tarkibi qanday?

Biz endi bolalarimizning ogʻzini yopish, taqiqlar qoʻyish yoʻlidan emas, aksincha, ularni rahbarlikka, tashabbuskorlikka, ijodkorlikka, mustaqillikka chorlashimiz, oʻrgatishimiz lozim. Qachongacha bolalarga parvona boʻlamiz? Qachongacha ularga qalqon boʻlamiz? Oʻz holiga qoʻyaylik: qoqilsin, yiqilsin, yana turishga oʻrgansin! Ana shunda har bir neʼmatning, jumladan, tinchlik va osoyishtalikning qadriga, Vatanning qadriga yetadi. Yaponlarning bir gapı bor: *“Otasi taʼminlab, qiyinchilik koʻrmay yashagan oʻgʻilning bolasi gado boʻladi”*. Shubhasiz, shunday!

Albatta, murojaatnomada tilga olingan va omma tomonidan eng koʻp muhokama qilingan masalalardan biri mana bu jumlar boʻldi: *“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha aʼzolari, taʼbir joiz boʻlsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, oʻz oldimizga qoʻygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatları bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga oʻtishimiz kerak”*.

Halollik vaksinasi! U nima? U haromdan hazar qilgan, birovning haqini yeyishdan oʻlimni afzal bilgan bobolarimiz, momolarimizning qonida oqqan tuygʻu – uyat-andisha, Ollohdan qoʻrqish tuygʻusi! Qiyomat kuni boʻladigan dahshatli savol-javoblarda mulzam boʻlishdan qoʻrqish tuygʻusi! Mazlumning koʻz yoshları javobi ogʻir boʻlishidan qoʻrqish tuygʻusi!

Joylardagi baʼzi masʼuliyatsiz, mansabni minib olgan, poraxoʻr rahbarlar ongini, boshqaruv tizimiga oʻrnashib olgan ayrim “kalamush”larning ongini oʻzgartirmaguncha, ularning miyasidan “pora” degan chirkin soʻzni yulib tashlamaguncha korrupsiya ildizini quritilmaymiz! Kattalarni bilmadim, lekin bu yosh rahbarlarning shioriga aylansin!

Yoshlarimiz, yosh ijodkorlarimiz bu borada, yaʼni halollik prinsipini keng joriy etishda davlatiga, Prezidentiga kamarbasta boʻlmogʻi lozim.

Biz yosh ijodkorlar shunday zamon qahramonlarini yarataylikki, ularga el, qari va yosh intilsin, havas qilsin. Oʻsha Bryus Li, oʻsha Terminator, oʻsha Betmenlarni unuttiradigan, esdan chiqartiradigan, ular bilan bemalol raqobatlasha oladigan timsollar yarataylik! Axir bir vaqtlar xalqimiz Nasriddin Afandini bilgan, Charli Chaplin yoki Mister Binni emas. Bir vaqtlar Alpomishni bilganmiz, Gerakl yoki ajabtovur toʻrtlikni emas. Bir vaqtlar Gʻirot, Boychibor degan uchqur otlarni bilganmiz, “forsaj”larni emas... Oʻsha qahramonlarimiz “rasm”da boʻlgan davrlarni qarang – oʻshandan buyon toʻxtab qolganmiz!

Yurtboshimiz mamlakatimizda anchadan beri ilgari surilayotgan **“jaholatga qarshi maʼrifat”**



Bolaligimda urush, ha, o'sha Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alaba haqidagi ko'plab roman va qissalarni, hikoya-yu she'rlar, dostonlarni o'qiganman

degan ezgu g'oyani ham esladi. Bunda, ayniqsa, Islom dinining roli beqiyosligini ta'kidladi. Insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qolishini aytdi. Halollik tamoyili Islomsiz, Qur'onsiz, Hadissiz aslo to'laqonli kuchga kirmaydi! Halollik vaksinasining tarkibi aynan shulardir aslida!

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy, kalom ilmi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin an-Nasafiyning hayoti, ilmiy merosiga bag'ishlangan hamda diniy bag'rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etilajagi Islom taraqqiyoti uchun yana bir katta qadam! Bunda yosh ijodkorlarning o'rni qanday bo'ladi? Ularga davlat va jamiyat ehtiyoj sezadimi? Bu savol o'zini bilgan ijodkorning qitiqpatiga tegadi, nafsoniyatini o'rtaydi, g'ururini taftish etadi: "Davlat uchun biz kimmiz?!"

Urushdan nafratlanish kerak, ammo...

Bolaligimda urush, ha, o'sha Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alaba haqidagi ko'plab roman va qissalarni, hikoya-yu she'rlar, dostonlarni o'qiganman. Agar bugun ham shu mavzuda asar qidirsam, o'sha bolalikdagi asarlarga to'qnash kelaman. Taassufki, mustaqillikka erishilgach, qariyb bu mavzuda birorta asar yozilmabdi. Nega bunday bo'ldi? Yoki odamlarda urushdan nafratlanish tuyg'usini uyg'otish sovet davri yozuvchilarining zimmasidagi ishmidi?

Mard, yengilmas va olijanob xalqimiz buyuk G'alabani ta'minlashga beqiyos hissa qo'shgan bilan faxrlanamiz. Lekin qani buni ifodalovchi

asarlari, sahna asarlari qani? Kinolar olyapmizmi? Masalan, ruslar har yili birgina shu mavzuning o'zida o'nlab kinolarni suratga oladi. Biz-chi? Nega jimimiz? Adashmasam, yaqinda Baxtiyor Abdug'afurning "Uzbechka" degan asarini ko'rdim, xolos.

Prezidentimiz aytyapti: **"Bu qonli urushda jami 1,5 milliondan ziyod O'zbekiston farzandlari tinchlik va ozodlik uchun mardona jang qilgani, ularning har uch nafaridan biri o'z yaqinlari bag'riga qaytmagani, el-yurtimizning front ortida ko'rsatgan jasoratini xalqimiz hech qachon unutmaydi"**. Unutmaslik uchun ular haqida tirik va chinakam asarlar yozishimiz kerak! Kitoblar kelajakka yo'llangan maktub bo'lib yoshlar ongini, kelgusi avlod ongini yoritib turaveradi!

Gapirsak, gap ko'p. Amalga oshirgan ish esa oz, juda oz. Murojaatnomada aytilganidek, natijadorlik hammamiz uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanmas ekan, gapdan u yog'iga o'tmaymiz.

Davlat rahbari nutqining avvalida bo'lgani kabi yakunida ham O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroni – nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jajji nabiralarimiz, ko'p millatli xalqimizni birdamlikka, jipslikka chorladi. Bu murojaatnomani bir sarlavhaga birlashtirish kerak bo'lsa, uni bimalol "Halollik va birdamlikka chorlov" deyish mumkin. Chindan ham, halollikni ta'minlamay va birlashmay turib, ijodda ham, ilm-ma'rifat, ishlab chiqarish, boshqaruv tizimi va sportda ham hech narsaga erisholmaymiz.

Hadislarda aytilganidek, barcha amallar niyatga qarab bo'ladi. Niyatni katta qildik, mo'ljal katta. Endi qadamni ham katta qilishimiz kerak! Shunda barchasiga bugunmi, ertami – qachon bo'lmasin, albatta, erishamiz. Bu jarayonda yoshlarni faollikka, fidoyilikka, poklikka, tashabbuskorlikka chorlayman!

Zohidjon OLOV



U shunday yozadiki, mutolaadan aslo zerikmaysiz, asar yengil o'qiladi, zavq bilan o'qiladi; xalqona tiliga, burro ifoda-iboralariga-ku tan bermay iloj yo'q. Muhimi shu emasmi axir? Yozaversinchi...

Xush kelibsiz, Iqboljon, abjir qalamingiz bilan biz – noni qattiqlar safini tezroq to'ldirgaysiz!

Erkin A'ZAM,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Iqbol

» MIRZO «

1967-yilning 1-mayida Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi Qo'shtegirmon qishlog'ida tug'ilgan. 1974-yili tumandagi 19-o'rta maktabga qabul qilinib, 1984-yili oltin medal bilan tamomladi. Shu yili Farg'ona davlat pedagogika instituti (hozirgi FarDU)ning o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi.

1992-yili Toshkentga kelib, "O'zbekiston tabiati" gazetasida muxbirlik lavozimida ish boshladi. Keyin "Vatan" haftanomasida bo'lim boshlig'i, mas'ul kotib, 1996-yildan O'zteleradiokompaniyada katta muharrir, direktor o'rinbosari, studiya bosh muharriri vazifalarida faoliyat yuritdi. 2006-yildan 2017-yilga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimida mehnat

qildi. Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Dastlabki she'rlari 1980-yildan boshlab matbuotda chop etila boshlagan. "Yurakning shakli", "Ko'ngil" (1993), "Seni sog'inaman" (1994), "Meni eslaysanmi" (2000), "Tanlangan she'rlar" (2002), "Qo'shiqlarim" va "Seni bugun ko'rmasam bo'lmas" (2004), "Sizni kuylayman" (2007), "Agar jannat ko'kda bo'lsa..." (2010), "Vatan haqida qo'shiq" (2014) hamda "Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun", 2015-yili "Seni bugun ko'rmasam bo'lmas" nomli she'riy kitoblari hamda 2018-yili ijodkorning "Bonu" nomli romani kitobxonlarga taqdim etildi.

Shoir 1999-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. 2005-yili "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Bir necha bor "Yilning eng yaxshi qo'shig'i" matni muallifi bo'lgan.

2014-yilda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.



Rasmiy Asiddin Katonov chizgan.

KO'CHAT

(Hikoya)

Rahmatjon ko'cha eshikni yelkasi bilan itargandi, lo'kidoni yerga tushib, daranglab ketdi. Ichkaridan avval shoshib xotini, keyin olazarak o'g'ilchasi chiqdi.

– Ha, tinchlikmi? Sulaymon taxtini ko'tarib keldingizmi, shahdingiz osmon? – dedi xotin peshonasiga tang'ilgan yashil durrani mahkamroq tortib. So'ng devorga suwab qo'yilgan juft ko'chatga ko'z tashladi. – Nima bu?

Ko'chat ekishni niyat qilgan hamma havaskorlar qatori Rahmatjonning ham dimog'i chog', kimgadir yaxshilik qilayotganday sururli hissiyot ko'nglida hukmron edi.

Xotinning zarda aralash so'rog'idan keyin shashti qaytdi, peshonasi tirishdi.

– Ko'rib turibsan-ku, ko'chat! – dedi u norozi po'ng'illab.

– Nimaligini so'rayapman. Olmami, behimi? Go'rmi, balomi? – dedi xotin yuziga qon tepchib.

– Jo'ka! – Rahmatjon ham baland pardaga chiqdi. – Noyob daraxt...

– Nima? – dedi xotin tishi og'riyotganday aft burishtirib. – Jo'ka? Hoy dalaning bolasi, gilosmi, o'rikmi ekmaydimi – mevasini bolalar yemaydimi? Manavi zormandani qanday yo'qotishni bilmay turibmiz-ku. – Xotin darvoza yonidagi tarvaqaylagan emanga ishora qildi. – Buni xazonini supurib, changini yutadigan men-da! Qurib ketsin, turgan bitgani quruq savlat!

– Nima qilay? – dedi Rahmatjon alam bilan. – Qaytib oborib beraymi?

– Menga desa ko'chaga tashlavoring! – xotin jahl bilan ortiga qayrilib, o'g'ilchasi ichkari kirguncha kutib turdi. – Maslahatning uyiga o't qo'rgan bu odam!

Rahmatjon boshliqning tug'ilgan kunida qutlagani borib, shampan po'kagi bilan qandilni chil-chil qilganda ham xuddi shunday xijolat chekkandi.

“Ayb o'zimda, – deb o'yladi u. – Xotinning gapi to'g'ri, o'zimizni “ho'kizko'zi” gilosdan

opkelmaymanmi, uch yilda mevaga kirmaydimi...”

Ko’chatni ko’tarib ko’chaga chiqdi.

“Yo manavi gulzor yoniga qadab qo’ysammikan? Qo’shnilarning mashinasiga ham soya tashlardi”.

Yerto’ladan belkurakni olib chiqib, yo’l yoqasidagi gulzordan joy chamalab turgandi, mahalla oqsoqoli Sobit chaqqon pildirab kelib qoldi.

– Hay, hay, hay, – deb belkurak dastasidan tutganicha shovqinladi Chaqqon kekirdak olmasini o’ynatib, – nima qilmoqchisiz, okasi? Shahar bedarvozami? Buni mahalla deb qo’yibdi. Mahalla instituti degan gaplar bor...

So’rashishga uzangan qo’li muallaq qolgan Rahmatjon nochor chakkasi aralash bo’ynini siladi-da, javob qildi:

– Shu... jo’ka obkeluvdim, ekib qo’ysammi deb turgan joyim.

– Iya, mulla Rahmatilla! Xohlagan odam xohlagan narsasini xohlagan joyiga ekib ketaversa, bu dunyoda tartib qoladimi, okasi? Nima daraxt dedingiz?

– Jo’ka.

– Ana xolos, – xuddi shumxabar olganday oqsoqolning o’siq qoshlari payvasta shaklga kirdi.

– Archa bo’lsayam boshqa gap edi. Ha... – oqsoqol biroz o’ylanib turdi-da, dabdurustdan allaqanday ichki qoniqish aralash “Subardinatsiya!” deb qo’ydi.

Rahmatjon oqsoqol bilan ko’pda oshqatq bo’lmasa-da, uning tantiqsifat qiliqlariga ajablanmay qo’ygandi. Shuning uchun jo’kaga subardinatsiyaning nima daxli bor, deb so’rab o’tirmadi.

Xotin va o’g’ilcha ostonada paydo bo’lishdi.

– Menam shuni aytaman-da, amaqi, somaykum, – dedi xotin fig’oni oshib. – O’zi manavi ordonani yo’qotolmay halakman. Nimaymish, bu yuz yillik daraxt davlat himoyasidaymish, kesishga maxsus ruxsatnoma kerakmish. Mana, yo’q joydan boshog’riq!

– Ha-a, – dedi g’ulg’ulnikiday salqi bo’ynini cho’zib oqsoqol emanga suq solganicha.

– Buningni kessa bormi, taxtasi Xitoyga yetadi... Vestern yunyoni!

– Hademay guliga bolarilar yopirilib keladi, – Rahmatjon go’yo hozir Chaqqon bolta ko’tarib chiqib, emanga tashlanib qoladiganday shoshapisha tabiat muhofazasiga o’tdi. – Eman asali eng shifobaxshi bo’larkan...

– Yo’g’-e, qarang-a, – dedi xotini ensasi qotib.

Yana nimadir deb uzib olmoqchi bo’ldi-yu, oqsoqolga bir qarab, bolasining orqasini kafti bilan yengil “suvab”, indamay hovliga kirib ketdi.

– Endi-i, gap bunday, okasi, – oqsoqol boshidagi baxmal do’ppini bir aylantirib, kekirdagini sakratib oldi. – Bu zormandani nechchi pulga oldingiz? Ha, arzimas chaqa ekan, qaytib borganingizning kirasi emas. Yaxshisi, buni anavi bog’chaga obkirib ekib bering. Orzugul bir narsa desa, oqsoqolni xabari bor deng, yo’q demaydi.

– Balki, birga-birga...

– Yo’q! – gapni cho’rt kesdi oqsoqol. – Narigi mahallada osh bor. Roziq qozi namunali to’y qilyapti. – Oqsoqol kurakni yerga bir urib ko’zdan kechirdi-da, Rahmatjonga qaytarib berdi.

– ...Detsibel!

“Bugun yakshanba, bog’chada odam bo’larmikan?” deb o’yladi Rahmatjon. Shu savolni oqsoqolga ham bermoqchi bo’lib og’iz juftlagan ediki, gapi og’zida qoldi. Gulzor boshida taksi to’xtadi-yu, undan bir qolipdan chiqqandek ikki sariqsoch ayol tushdi.

– Shu joy! – dedi ulardan biri hayajonlanib.

– Xuddi o’zi!

– Aniqmi? Yana adashmayapsanmi? – deb so’radi narigisi poxol qalpog’ini boshiga bosib.

– Mana o’sha eman! O’shanday turibdi!

Tanidingmi?

– Uy siznikimi? – Rahmatjonning qo’lidagi kurakka qaradi ayollardan biri.

– Ha... meniki, – dedi kalovlanib Rahmatjon.

Mehmonlarni ko’rgach oqsoqol iziga qaytib, qoshini sinchkov ko’targanicha ularga yaqinlashdi. Ayollardan biri oqsoqolga razm solib birpas qarab turdi-da, shaxdam borib azot quchoqlab oldi. Oqsoqol ayolning kengmo’l bag’rida kurk tovuqning qanotiga kirgan sariqtumshuq jo’jaga o’xshab qoldi.

– Tanidingmi, tanimadingmi? – qayta-qayta so‘radi ayol to‘lqinlanib, – Sabish, bu men Yulyaman, sinfdoshing. Bu – Olya. Asalchi Nikiforning qizlarimiz. Manavi hovlida turgandik, eslolmayapsanmi? Manavi eman guvoh! – ikkala ayol ham jo‘rovoz yig‘lab yuborishdi.

Oqsoqol ayolning quchog‘idan chiqib, atrofga bir alanglab qo‘ydi:

– Tanidim, tanimay o‘libmanmi? Bolalar bilan eslab turamiz... o‘sha paytlarni, – kutilmagan uchrashuvdan qattiq hayajonlanib tomog‘i quridi, shekilli, halqumini irg‘ishlatib g‘o‘ltillatib yutindi.

Yana ko‘cha eshigi ochilib, Rahmatjonning xotini va o‘g‘li bosh chiqardi. Oqsoqol, eri va ikki malla ayol emanga qarab angrayib turganini ko‘rib, o‘g‘ilchasini dikonglatib kelib davraga qo‘shildi.

– Tinchlikmi, nima gap? – dedi xotini daraxtda arzigulik o‘zgarish topolmay. – Bular kim, hokimiyatdanmi?

Oqsoqol va ayollar biri qo‘yib biri o‘tmishni eslay ketishdi. Mehmonlar Rahmatjonga, oqsoqol kelinga izohlashicha, bularning onalari Klavdiya eri Nikifor bilan urush paytida ko‘chib kelishgan ekan.

– Nikifor amaqi qo‘li gul usta edi. Chap oyog‘i tizzasidan ketgan bo‘lsayam, duradgorlik deysizmi, chilangarlikmi, hamma ishni qoyil qilib ketaverardi, – deb xotirladi oqsoqol emanning uch-uchiga ko‘zlarini qisib qararkan. – U paytlar shahar narida edi, manavi joylar bog‘-rog‘ bo‘lib yotardi. Esimda bor, amaqi qaydandir ona asalarini tutib kelib uya yasaganida yonida mix uzatib turganman. Manavi egizaklardan qaysi birini olasan, deb meni doim uyaltirardi. O‘shanda mahkamroq tursam bo‘larkan. – Oqsoqol Rahmatjonning xotini g‘ashlanib qarab turganini ko‘rib xijolatli iljaydi. – Hazil-lashaman-da, kelinjon... Jeyms Kameron!

Mehmonlar xandon otib kulib yuborishdi.

– Voy hozir o‘laman, voy hozir ichagim uziladi! Xudoyim-yey, o‘sha odati qolmabdi-ya! Yulya, esingdami, dars payti hamma insho yozib o‘tirganda tomdan tarasha tushganday he yo‘q, be yo‘q “Kabardino-Balkariya” yoki “Iosif

Vissarionovich Jugashvili!” deb qolardi. Bu so‘z qaydan keldi, nimaga aloqador, tushunmay garang bo‘lardik.

Bu eskartma oqsoqolga yoqdi. Yelka qoqib uzoq kuldi-da, kaftining orqasi bilan qovoqlarini artib, “Otamdan o‘tgan, otamdan”, deb izoh berdi.

Rahmatjon mehmonlarni ichkariga taklif qildi. Xotin kursi olib chiqib hovliga qo‘ydi, dasturxon yozib, choy damlab chiqdi.

Ayollar o‘zlarining o‘ris talaffuzida chuchuk qilib to‘rt yashar qizchaday biram biyron o‘zbekcha so‘zlasharkanki, odamning zavqi keladi deng.

Oqsoqol uzr so‘rab, tez qaytish va‘dasi bilan namunali to‘yga jo‘nadi.

– Ha, hammayoq o‘zgarib ketibdi, – dedi Olya chuqur xo‘rsinib. – Bu joylar jannatday bog‘-u dala edi.

Egizaklar hovlining qayerida qanaqa xona bo‘lgani-yu qanaqa gul-giyoh o‘sganini eslab, bir-biriga “esingdami-esingdami” deyishdan charchamasdi.

– Nega ketdinglar? – so‘radi xotin qiziqsinib. – U yoqda hayot zo‘rmi?

– Kim biladi, oziqchiga ergashib... O‘ttiz yil bo‘libdi-ya, o‘ttiz yil! Bizning hamma boyluk-bisotimiz shu yerda: ota-onamiz shu tuproqda yotibdi. U yoqda eslaydigan qadrdon o‘tmish yo‘q, – Yulya yuzini chetga burib, ko‘z yoshlarini qaytarmoqchi bo‘lgandek bir muddat kipriklarini pipiratib turdi. Keyin eman yoniga bordi-da, xuddi odam bilan ko‘rishayotganday yelka berib silab-siypaladi:

– Omonmisan, azizim! Bizni yelkangda ko‘tarib katta qilganding. Bo‘ying uzoqlardan ko‘rinib turardi. Olya bilan dalada adashib qolganimizda sening bastingni ko‘rib uyni topib kelardik. Pahlavonim, azamatim! Gohida sahar uyg‘onib chiqsam, onajonim senga kifti bilan suyanib, teskari quchoqlagancha ko‘zlarini yumib turganini ko‘rardim. Keyin bilsam, sen taskin, kuch va ishonch berar ekansan. O‘zimning emanjonim, otaginam, onajonim mening!

Rahmatjon bo‘g‘ziga tiqilgan qattiq narsadan yo‘talib qutulmoqchi bo‘ldi. Yo‘talgandi, ko‘zlari

achishib ketdi. Xotiniga qarasa, eshikka suyanib lol-u hayron turibdi. Olya ham emanning palaxsa tanasiga peshonasini qo'ygancha sukutga cho'mgan. Mana shu holatni Rahmatjon o'g'ilchasi ham ko'rishini... u ham yig'lashini negadir ich-ichidan istab, xotiniga yuzlandi:

– Bolani opchiq!

Xotin eriga ajablanib qarab qo'ydi-da, shoshib ichkari kirdi.

...Rahmatjon belkurakni yerto'laga joylab chiqayotganda xotini derazadan qararkan, kaftlarini chakkasiga yostiq qilib, "Bola uxlayapti" ishorasini berdi va shivirlab so'radi:

– Ketib qolishdimi?
 – Ha, ketishdi. Qabristongayam o'tishlari kerak ekan.
 – Yaxshi ayollar ekan. Ochiqko'ngil, samimiy, – u bo'ynini cho'zib emanga bir qarab qo'ydi.
 – Ko'chatlarni nima qildingiz?
 – Bervordim.
 – Opketishdimi?
 – Opketishdi. Suvqog'ozga ozgina tuproq ham solib bering, deyishdi. Shunda ko'chat yaxshi tutib ketarkan...
 – Ha, yaxshi qipsiz. Savob... – dedi xotin sinq ovozda va birdan o'zini ichkariga oldi.

2019-yil

AVAKADO

(Hikoya)

– Aga-ar kimda ki-im menga-a bayramga bi-ir donagina avakado sovg'a qilsa-a, jud-dayam xursand bo'lardi-im!

Dilshodaning tomdan tarasha tushganday e'loni xonadagi to'rt yigitga yoppa aytilgandek ko'rinsa-da, gap o'z egasi – Sultonni topganini hamma fahmlab turardi.

– Avakado? Nima ekan o'zi u? – Bahodir oldidagi toshoynadek kompyuterdan ko'z uzmay so'radi.

– Jongg'a chiqqan moshin bo'sa kerak, – kinoyali ishshaydi To'ramurod. U Toshkentda to'rt yil o'qib, uch yildan beri ishlayotgan bo'lsa-da, surxoni shevasini sof tutardi.

– Hozir mister "gugl" hazratlariga murojaat qilovuza. – Zarif ko'zoynagini yapasqi burniga qo'ndirdi. – "A-va-ka-do-o"...

Dilshoda bir og'iz gap bilan to'rt birday yigitni ovora qilib qo'rganidan mamnun holda:

– Mayli, yaxshi ishlanglar, – dedi va qo'ng'iroq sochlarini to'lqinlatib nastarin iforini sochgancha eshik tomon yengil qadamlar bilan borarkan, qizarinqirab turgan Sultonga tabassum tortiq etdi. – Siz... Sultonjon, ketayotganda "gud bay" deb qo'yarsiz-a?

– Ha... albatta! – dedi dovdarab Sulton va battar qizarib ketdi.

– Mana, otvet ye-st! – stulga yelka tashladi Zarif. So'ng baland ovozda o'qiy boshladi, – "Avakado – Amerika qit'asida o'sadigan shaftolisimonlar oilasiga mansub meva bo'lib, og'irligi yuz grammgacha, kaloriyasi bir yuz oltmishgacha, vitaminlari..."

– Shu Dili hech quyilmadi-quyilmadi-da, hozir hammamizzi ahmaq qip chiqib ketdi, sezdinglarmi? Bo'masa Diliday bozori avj juvon shu... narsaga maxtal qolarmidi? – ijirg'andi Bahodir va "iyh-iyh" deb kerishib qo'ydi.

– Ha, jegani oldida, jemagani... Bu yenag'ardi hovaynag'i chetga "surib" jubargan yeridan bir chamadan "ko'gi"dan qog'anmish. Yendi bo'sa, shuytib, bir donag'ana inishu... avakadaga qarab qoptima, – To'ramurod qiyiq ko'zlarini qisib, Sultonga sinovchan sin soldi.

– Uni eridan qolgan jomadonini kim ochib ko'rgan ekan? Odamlarga gap bo'lsa bo'ldi, shu chaynalayotgan bechora ham menga o'xshab onasiga azizdir, deb hech kim o'ylamaydi. Kim bilsin, balki, rostdan ham o'sha mevaga dili ketgandir, to'g'rimi, Sulton? – Bahodir odatiga ko'ra ilmoq otdi.

– Bu ukkaarini shaytannigini qorangg'ar! Tuvriliqcha "Sultonboy, sizdan bitta avakada", deb qo'ysa o'lama?

– Nega men? Bu gap hammaga tegishli, – Sul-ton bir tomoq qirib oldi. – U sizlarga hamkasb. Men chetdagi odam bo'lsam...

Zarif o'midan shoshilmasdan turdi, ko'zoynagini qanshariga ko'tardi, qo'llarini shimining cho'ntagiga imkon qadar chuqurroq tiqqancha dengiz mushugiday sollanib-sollanib kelib Sul-tonning naq iyagiga iyagini tiradi:

– Karochchi, Dilyaday tin-niq jononga so'lagi oqmagan yigitni medasmotrdan o'tkizish kerak. San bu kantoraga bizani ko'rgani kelarmiding? Uni qorasi ko'rinishi bilan tizzang qaltirab, tiling aylanmay, chakaging qot-tib qolishini sezmaydi, bular lo'x deb o'ylavossanmi? Hozir tomdan tasha desa, sr-razi kallamachak tashashing aniq! Jav-vob!.. – Chiroq aks etgan yiltiroq tuflisining uchini ko'tarib, o'ng oyog'ining tovonini bilan ortiga aylanib qayrilarkan, qo'shimcha qildi. – Agar manga shans bersaydi...

– Vo'lla-ya! – To'ramurod tap etkizib stolga kaft urdi.

– Qayt-qayt, Zarif, yuvosh-yuvosh! – ovozini yo'g'onlatib, Sultonga xayrixoh qiyofaga kirdi Bahodir. – Bu


dunyoda ko'ngil degan matoh bor. Ketayotganda "Sultonjo-on" deb chiqib ketdi-yu.

– Bizaniki hazil, to'g'ri tushunasan, Sul-tonchik, – Zarif uning yelkasiga do'stona yengilgina musht qo'ydi. – Qandingni ur, mujik, kuch-quvvat bersin!

– Mayli, men ketdim. Qo'yib bersa, hozir yo'q narsadan

Yurg'umtog' yasaysizlar. – Sul-ton eshik dastasini tortdi, – ishga boray, tushlik vaqti tugab bo'ldi.

Dilshoda xonasida ko'rinmadi. Sul-ton uni chiqish eshigi yonida haddan tashqari tarvaqaylab ketgan qizilsoch ayol bilan birga ko'rib taraddudda sekinladi.



Dilshoda yonboshdan o'ziga qadalib turgan chanqoq nigohni payqamayotganday qo'l chalishtirgancha turardi. U go'yo suhbat bilan band: goh xumor ko'zlarini katta-katta ochib qalam qoshlarini ko'targancha hayrat qiyofasiga kirar, goh qirmiz lablarini g'unchadek cho'chchaytirib, afsusini ifodalar, goho nazokatli bosh to'lg'ab shokila sochini yelkasidan oshirishga urinardi. Nihoyat, u suhbatdoshining bilagidan tutib, oshig'ich nimalardir dedi-da, xuddi dorda yurayotgan qadamlar bilan Sultonga yaqinlashdi.

– Joyingizda yo'q ekansiz... – yigit boshqa so'z topolmay taqqa to'xtadi.

– Ha, Varya opa chaqiruvdilar. Shunga... Qaytyapsizmi? – Dilshoda uning ko'zlariga shaddod nigohni tikdi. Qizning cho'lpon qarog'ida sho'x jilva, istig'no aylanar, qorachig'ining tub-tubida zulukday qop-qora mitti shaytonchalar o'mbaloq oshardi...

Sultonning chap ko'ksida ho'l lappaktosh keskin ag'darilganday bo'ldi.

– Ertaga oqshom sizni kutaman-a, – shivirladi kaftini og'ziga pana qilib juvon. Uning yuzlaridan qon qochib, chap yonog'i lip uchgandek tuyuldi. Sulton so'zsiz bosh irg'adi. – Hech narsa ko'tarib ovora bo'lib yurmang. Avokado. Bir donagina...

Sulton hayajonini bosib olish uchun ishxonasiga yayov ketdi.

* * *

Toshkentga kelganiga hali yil to'lgani yo'q – tanishlari ham shunga yarasha. Dastlab ishxonasidagi tund muhit zeriktirganidan hamshahri Bahodir ishlaydigan ilmiy tekshirish institutiga ahyonda borib turardi.

Ajoyib kunlarning birida oydan tushganday Dilshoda paydo bo'ldi va endi u imkon topdi deguncha “Bahodirni yo'qlaydigan” odat chiqardi.

Birinchi ko'rishgandayoq juvon yo'lakda bir lahzagina Sultonga ko'z tashlab o'tganday bo'ldi-yu, ana shu oniy nazar asov toyning bo'yniga tashlangan kamand kabi yigitni bog'ladi – qo'ydi.

Cheksiz samoni to'ldirib to'linoy och zangor yog'dusini socharkan, kim unga mahliyo bo'lmaydi deysiz?

Qora qishdan chiqqan qarog'lar yo'l chetida favqulodda ochilgan nishona qizg'aldoqqa bee'tibor o'ta oladimi?

Tashnalab elkezar tubida zarrin qumlarni qo'mitib, o'z boshidan hovuchlab suv sochayotgan yashma buloq qoshida tiz cho'kmaydimi?

* * *

Hayotning taqdir erkalatgan arzandalari bo'lganidek, qismat qarg'agan baxtiqarolari ham ko'p.

Sulton esini tanibdiki, kuni azob-uqubatda, qahatchilik-qattiqchilikda o'tdi. Bolaligini eslasa, otaning darg'azab qiyofasi, onaning mungrayib siqtayotgani, ag'darilgan xontaxta, qatiqqa bulangan dasturxon, chumdugi uchgan choynak, buvisining zorlanib qarg'angani, qo'shnilarning masxaraomuz qarashi ko'z oldiga keladi.

Otaning mast jazavasidan yuragi tushib, og'ilda qo'ylar orasida uxlaganini, beshikda jonsiz yotgan singilchasini uyqu aralash karaxt tebratib o'tirgan kezlarini unutish mumkinmi?

Mayzada ota tokchadagi yarimlagan shishani og'ziga olib borarkan, “Ichmang, pashsha, qarang, pashsha tushibdi”, deb halpinganda u yog'lama ko'zlarini suzib ma'nosiz iljaygancha sharobni lablari chetidan oqizib “g'o'lt-g'o'lt” yutgani-yu, tishiga yopishgan hasharotni olib parda chetiga beparvo surtib qo'ygani... har qancha urinsa-da, xirapashshadek xayol ko'zguniga yopishaveradi.

* * *

Hovli orti shaftolizor bo'lardi. Ertagi, luchchak, otyog'i, oqpo'stdan tortib anjirshaftoligacha boshini yeb meva solib yotardi. To'rt-besh yashar chog'lari yerga to'kilganini beso'roq olgani uchun behi gavroni bilan ayovsiz savalangan bola ulg'ayib ham biror marta “dumaloq asal”dan tatishga yurak betlamagandi.

Haqdorlar eshik turumini oyog'i bilan buzavergach, onaning yolvorishlariga qaramay ota bor-baraka qildi-yu hovli bilan shaftolizor o'rtasiga qo'ra tushdi.

Keyinroq insof berib ota ichishni tashladi, lekin baribir ro'zg'orga baraka yo'lamadi.

Choyxonada yugurdaklik qilib, yangiboylarning yerida mardikor bo'lib Sultonning ham eti, ham beti, ham suyagi qotdi. Tog'asining ko'magi bilan o'qishga kirgandan keyin bozorda arava tortib shartnoma pulini to'ladi. Mana, ishlik bo'lib ham hanuz ba'zi shapshak qishloqdoshlarining "tengqurlaringiz allaqachon o'g'ilchasini cho'chchisini kallaklatib bo'ldi, sizdayam biror mo'ljal bormi, erkak?" degan so'rovidan bezib, uyga imkon qadar hayallab boradi. Har gal bo'sag'a hatlab ko'chaga chiqarkan, onasi uning bo'ynidan mahkam quchib, "Bolam, peshanamiz shuyakan, otang janavardan najot yo'q. O'zing o'zingga ota bo'p to'yga tan yig'masang, tog'angam qaridi, uniyam qo'lga qaraydigan o'zini nonxo'rlari bor. Qoluvursa, chiqim chaqani tanga sanaydigan begana puti ayri junbosh o'tiribdi sandig'ini minib", deb hiqillaydi.

O'g'ri qarisa mezanaga tirmashadi, degandek, mana, ota masjidga tanda qo'ydi, uzzu-kun "Poshsho – Egam...", deb yig'lamsiragani yig'lamsiragan.

Alqissa, Sulton shu zayl o'ziga o'zi tashvish bo'lib, tengdoshlari qatoriga kirolmay, sevgini o'ylashga, o'z ko'ngliga qarashga vaqt ham, imkon ham topolmay er yetdi. Axir kaptar ham don cho'qib, nafsi orom olgachgina boluparini tarab, o'ziga oro beradi-da...

Tirikchilik toshdan qattiq, Sulton ramaqijon ro'zg'or deb qorin-qursoq g'amida ishdan keyin chinni bozorida qo'riqchilik qiladi. Dam olish kunlari mijozlarning aravasiga yuk ortadi.

"Poshsho – Egam, O'ziga oson, bir kuni ol qulim desa, hech gapmas..."

* * *

Avakado deganlari rostdan ham anqoning urug'iday narsa ekan. Kalla suqmagan rastasi, bosh egmagan savdogari qolmadi. Hamma

kelishib olganday, qo'lini yoniga tashlab yelka qisadi. Oxiri, bo'lmadi, bozor egasining haydovchisiga maslahat soldi. U bir zum istehzoli qarab turdi-da, "Xo'jayinni yerto'lasida yo'q narsaning o'zi yo'q. Shunchalik zaril bo'lsa, so'ra, mard odam, qo'li ochiq, bilasan-u... Seni maqtaganiniyam eshitganman, bersa kerak, uyalma", deb yo'l ko'rsatdi.

Sulton satang oyimlardek bepisand gerdaygan badqovoq koshonaning qo'ng'iroq tugmasini bosishga ulgurmasdan ichkaridan ko'ppakning hirqilanib hurgani eshitildi. "Xudo xohlasa, mendayam shunaqa qasr bo'ladi, menam olabay it boqaman, mengayam yalinib kelishadi... Qishloqdagilar otimni aytib maqtanib yurishadi... Hozircha chidash kerak, vaqti-soati kep qolar..."

Xo'jayin iltimosni eshitiboq "Bitta-yarimtasini boshqorong'i qip qo'ymadingmi, ishqilib, ukam? – deb hazillashgan bo'ldi. So'ng jiddiy tortib, savdoga o'zi dallollik qildi. – Mayli, er yigitning o'ziga yarasha siri bo'lgani yaxshi, aytmasang aytma. Lekin salomga yarasha alik, degan gap bor. Biror hafta tekinga ishlab berasan. To'g'ri kelsa, shu, ukam..."

Sulton o'ylab ham o'tirmay, minnatdorlik ila shartga shartta rozi bo'ldi.

* * *

Dilshodaning xonadoni shundoqqina metro yoqasidagi to'rt qavatli uyning birinchi yo'lagida ekan. Qo'ng'iroq tugmasini bosmoqchi edi, eshik qiyaligini ko'rib, bosh suqib qisqagina yo'taldi. Ichkaridan "Kiravering, kuyovto'ra", degan shodon tovush va sho'x kulgi eshitildi.

Sulton eshikni yopib zulfinini ildi. Mehmonxonada kiroyi dasturxon tuzalgan, oshxonadan "jaz-buz" ovoz, piyozdog' hidi kelardi. Sulton qo'lidagi ikki dona avakadoni dasturxon chetiga qo'yib, qirmizi atirgulni tik tutganicha oshxonaga kirib bordi. Dilshoda qozonga suv quyarkan, "Hozir, mana hozir", deb mehmonga ikkala ko'zini baravar qisdi.

Tuvoqni yopib, sochiqni ilgach, jilmaygancha atirgulni oldi, hidlagan bo'ldi-da, bo'y cho'zib yigitning oftobda qolgan mis barkashday qaynoq yuzidan o'pib qo'ydi.

Sultonning bo'g'ziga to'mtoq narsa tiqildi, nastarin hididan boshi aylanib ketdi.

– “Bir dona qirmizi ati-i-rgu-u-l”, – mezbon ohangga solib kuyladi. – Bunda ham ramz bor-da, a? – Keyin Sultonni yosh boladek yetaklab mehmonxonaga olib kirdi. Charm divan o'rindig'iga tashlab qo'yilgan ko'ylak va shimga ishora qilib, – Manavilarni kiyib oling, ko'nglingizga kelmasin, yap-yangi, – dedi tantiqlanib va kutilmaganda “kuyovto'ra”ning bo'yniga qo'l ilib, tizzalarini bukkancha osilib oldi. Sulton beixtiyor ko'ylagini yechdi, juvon uning yoldor va qabariq ko'ksiga bosh qo'ydi. – O'zimning pahlavonim, arslonim...

Go'yo bu holatni kimdir pinhon kuzatib turgandek yigitni xavotir aralash vahima bosdi. Isitmada tush ko'rayotgan kabi voqealar uzuq-yuluq, ixtiyoridan tashqarida kechardi.

Juvon chiroqni o'chirdi...

* * *

Sulton hovurdan tushib o'ziga kelganda yuziga, bo'yniga, labiga yuqqan yog'upadan ko'nglini behuzur sezdi. Nazarida labbo'yoqdan beti olachalpoq bo'lib masxarabozga o'xshab qolgandek tuyuldi. Ichidagi ko'lanka lopillab tobora yuragini siqar, ana-mana eshik ochilib, uni jinoyat ustida qo'lga olish uchun izquvarlar kirib keladi-yu, butun olamga sharmanda qiladigandek tahlikada edi.

Dilshoda o'rnidan turdi-da, choyshabga hindona o'ranib, dasturxon yoniga bordi. To'q yashil avakadoni qo'lga olarkan:

– Opkelgan ekansan-da! Jonim, o'zimni asalim, – dedi tolg'in tovushda sensirab. So'ng mevani uzatdi. – Ma, o'zing kes! Bir haftacha burun televizorda ros-sa maqtashuvdi. Yonimdagi do'konlardan topolmadim, savil! Sen qayerdan olding?

– Topdim-da, – dedi quruqqina qilib Sulton. Juvonning o'zicha yaqin olib sensirashi yoqmasdi, ohangida qandaydir kamsitish bordek tuyuldi.

O'rnidan turib, pichoq bilan rasamadini keltirib meva kesish malol keldi. Yotgan joyida bosh barmoqlarini botirib ikkiga bo'lmoqchi edi, palag'da tuxum chaqilganday ko'ksi aralash bo'yniga shilliq suyuqlik oqib tushib, ko'ngli ag'darildi.

– Yovvoyiginam, – Dilshoda gilamga cho'kib, divanga suyandi. Meva pallasini ichki tomonidan avaylab tishlab ohista chaynarkan, birdan aftini burishtirdi. – Fu! Nima balo, qazining yog'imi? Muncha bemaza? Yoki eskirganmikin? – simdek ingichka qoshini tugib, sinovchan qaradi. – Ma, o'zingam yeb ko'r! – Sulton yuzini ters oldi. Dilshoda taltanglab, uning labiga avakadoni aylantirib ishqadi. – O'zing pishirgan o-osh... Mayli, yemasang yema... – O'rnidan dast turib dasturxondagi butun avakadoni ham zarda bilan oldi-yu, deraza darchasini chinachog'i bilan surib, mevani tashlab yubordi. – Odamlargayam hayronsan, savil, qayda yo'q olqindini osmonga chiqarib maqtaydi-ya. Ha o'l-a, bayramimniyam bayram qildi!

Juvon sannagancha tars-turs yurib yuvinish xonasiga kirdi-da, eshikni sharaqlatib qulfladi. Sulton o'rnidan irg'ib turib, apil-tapil kiyindi-yu, tashqariga otildi.

* * *

Qosh qorayib, ko'cha chiroqlari yoqilgan. Avtolar betoqat shovqin soladi. Shivalayotgan yomg'ir yo'lovchilarni o'z manziliga shoshiradi.

Sulton birpas ko'kka yuzini tutib, o'pkasini to'ldirib tin oldi-da, atrofga alanglagancha metro tomon odimladi. Uch-to'rt qadam qo'yar-qo'ymas, darchasi ochiq deraza yoniga yetgach taqqa to'xtadi.

Qo'lidagi guldastani yog'indan panalab teskari tutib olgan bir miyig'i baxmalday yigitcha yo'lak chetidagi maysaga tuflisi tagini artayotgan Sultonga ajabsinib qarab o'tib ketdi.

2013-yil



Gulandom TOG'AYEVA

1972-yili tug'ilgan.
O'zbekiston Milliy universiteti
(ilgarigi ToshDU)ning jurnalistika
fakultetida tahsil olgan.
"Chaqmoq xo'rsiniqlari", "Muhabbat
asri" kitoblari chop etilgan.

* * *

Shiddat-la kurtaklar bir o'rik,
Misli o'q-yaralar ko'ksingni.
Axir kechagina yo'qotding
Bahoga munosib do'stingni.

Kurtaklar sanchilar olovdek,
G'ururni qamchilar xotira.
Nish urgan har shirin nigohdan
Yuvilar har qancha kudurat.

Och tusli, qizg'ish-u nim sarg'ish, –
Hidlayman hikmatlar gulshanin.
Jasorat qilmoqqa cho'zilgan
Qutlayman shu mitti qo'lchani –
G'unchani!

* * *

Bizning dargohimizda bechoraliq yo'qdir.
"Qissasi Rabg'uziy"dan

Jon hofiz, jon hofiz hofizligingdan,
Bir loy iqroridan bag'ri figorim.
Jon mahfuz, jon mahfuz, mahfuzligingdan, –
Meni xush yaratding, Parvardigorim!

Yig'layman, behishtlar g'ishti to'kilar,
Yig'layman – Arshda ham yo'q bunday xislat.
Yig'layman, tog' erir, g'uncha so'kilar,
Qolmas diydoringdan o'zga nafosat.

Sening dargohingda umidsizlik yo'q,
Urmas do'zaxda ham bandangni balo.
Sening dargohingga yetishmoq uchun
Yurak – Karbalodir, yurak – Karbalo.

Bir ajib, bir ajib kishvarligingdan
Namozgoh – menga o'z bag'rifigorim.
Dil-farfor, dil-farfor, farforligingdan
Meni xush yaratding, Parvardigorim!

"Hay" gulxani ichra Xalilullohday,
"Yohu" sharobidan to'yib ichgani,
"La" halinchagida suyib uchgani,
Keldi tan jubbasin tashlab nigoring, –
Meni xush yaratding, Parvardigorim!..

Muhabbat

Ostonamga urildi ilk bor,
Xazon-daraxt yozgan dil so'zi.
Rahmat yog'dir unga falakdan,
O'ttiz yetti yoshimning kuzi.

Unga mendan salom ayt, Rabbim,
Daraxtlarning bargi sonicha.
Chumolilar asrlar buyon
Uyasiga eltgan donicha.

Ming yillarkim, oqsoch qirg'oqlar
Ko'rgan sonsiz to'lqinlar qadar,
Va undagi notinch so'roqlar –
Qum zarrasi qadar jilvagar.

Dunyo paydo bo'lgandan beri
Yoqqan yomg'ir sanog'icha ayt.
Yasalgandir ming-minglab ko'za –
Ishq ahlin bosh chanog'icha ayt.

Toki qutb yulduzi so'ng bor
Jilva sochar kungacha salom.
Bir-birini quvib yetishgan
Kunduz topgan tungacha salom.

Aytsam salom, omon qolaman,
Salomat qil, ey, meni, Rabbim!
Unga salom aytmas kunimni,
Malomat qil, ey, meni, Rabbim!



* * *

Ostonangda gul-u rayhon ekilgan –
Balkim, osmonlardan yulduz to'kilgan,
Qo'shiq aytib ko'nglim bo'shatay desam,
Tomog'imga achchiq yig'i tiqilgan.

Bu yerda daryo ham oqadi sokin,
G'amni ham faryodni yutadi tunlar.
Men-chi armonimning so'kaman chokin,
Endi singan torim kimlar butunlar?!

Dildagi singan soz kuylaydi hamon,
Imkonda imkonsiz qolsak ham yomon,
Asil muhabbatin izlab xiromon,
Qush ham aylar ko'ksin toshga urib qon.

Biz nechun cho'qqida qush emasmiz, yor,
Tosh parin to'zg'itgan to'sh emasmiz, yor,
Uchrashar hatto ko'z-qosh ham payt poylab,
Nega biz o'shal ko'z-qosh emasmiz, yor?!

Sen tongsan, tong kabi shabnamlarga do'st,
Men shomman, oftobdek botganim durust.
Nega gul bargida turgan chog'ingda
Senga aytolmadim sevgidan bir so'z?!

Qalbimni qoplaydi hijron va afsus,
Singan sozimga jo'r bo'ladi gullar.
Daryo ham bu yerda sokin oqar, lek,
Tubida gullaydi Ishq-atirgullar.

Ostonangda gul-u rayhon ekilgan –
Balkim, osmonlardan yulduz to'kilgan,
Qo'shiq aytib ko'nglim bo'shatay desam,
Tomog'imga achchiq yig'i tiqilgan. ...

* * *

Ming yil yashaymiz, deya,
Garchi hozir ko'ngil to'q, –
Yo'lovchimiz hayotda –
Vaqt turining farqi yo'q.

O'ylamagil, meni ham
“Erta topgayman takror”,
Yo'q, ko'zlar o'rtasida
Bir kiprik qoqishi bor.

Haromning azobi bor,
Halolning-chi, so'rog'i.
Umr – bu Haq yuziga
Dunyo parda tortmog'i.

Ba'zan o'zni xush yoqib
Chinorlarga mengzaymiz.
Umrni havodagi
So'zlar bilan bezaymiz.

Shu sabab dil izhori
Yo'lovchiga farz ekan.
Shirin so'z – malham-dori,
Sevishmoq ham farz ekan.

Hasad, g'iybat paytimas,
Fursat kam, bo'lgil chaqin!
Asl hamroh aynimas,
Yo'l uzoq, manzil yaqin!

Qismat shu: bir lahzaga
Bog'lab qo'ygan bizlarni.
Kun kelib ip uzilsa
Qaydan topay sizlarni.

Davlatidan kimdir mast,
Farzandidan kimdir mast, –
Bularni lek hech kimsa,
Yo'lovchidan so'ramas.

Mayli, meni vaslingga
Gado etib ket, ey do'st,
Lekin yo'lning haqqini
Ado etib ket, ey do'st!..

* * *

Dilxohim, dilxohim, dil shoda-shoda,
Silkisha safolar to'kilar do'p-do'p, –
Porlar no'sh etar nozik shabboda
Sanduvoch silkiydi shoxlardan kuf-suf.

Dilxohim, dilxohim, dil shoda-shoda,
Dandonlar namida qoqi otar nish.
Novvotlar shimigan nozli havoda
Yurak, topiladi senga ham yumush...

Oyxohim, oyxohim, dil shoda-shoda,
Oy-yoqut kirkada tutqazilgan non.
Ul-savat-hovuzga, siyoh-aftoga
Patcho'pin botirib xat bitar Kan'on.

Sabohim sovutdi, ispanklar tutdi,
Dilxohim, dilxohim, dil shoda-shoda,
Meni erkalaydi zanjirband qutti,
Dil esa Makkai ozoda-ozoda...


* * *

Sen ketsang ko'zimda nam,
Bag'rimda qayg'u, erkam,
Ko'ksimdagi qushchaning
Patlarini yular G'am.

Uzoqlarga ko'p ketma,
Ko'zlarimni unutma.
Qalbingda qalbim izi,
Uni mendan berkitma.

Bu dunyoda yaxshiyam
Sen bor – dil yayraydigan.
Bag'irda-chi, Bulbul bor –
Ko'rinsang – sayraydigan.

Oy – uzoq, Quyosh – uzoq,
Yulduz uzoqdir, erkam.
Shukur, qalbning to'rida
Yondirganing uchun Sham...





AKS HOLDA, BIZ YANA ALDANAMIZ

Fidoi olimlarimizdan biri Sirojiddin Ahmad umrini jadidlar hayoti va ijodiy merosini tadqiq etishga bag'ishlagan. Uning o'zi ham ulug' ma'rifatparvarlar singari "xodim ul-millat" bo'lishni niyat qildi va shunga monand umr yo'lini bosib o'tdi. Kamtar inson ziyoliga xos ravishda kibrlanmadi, kekkaymadi. So'z bersa gapirdi, tilanib so'z olmadi. Ilmda ikkilanib, farazlarga berilmadi, millat tarixidagi haqiqatni aniq dalillar bilan ko'rsatdi. Shon-shuhrat yoki amal-martaba qayg'usida emas, millat ilinjida xizmat qildi, e'zoz topdi. Xurshid Do'stmuhammad bir uchrashuvda u kishini "XXI asr jadidi" deb atagandi. Yozuvchi nihoyatda xos va mos tashbehni topib aytdi. Ha, insonning amali qismatiga aylanadi. Agar a'moli haqiqat va ezgulik yo'lidagi ma'rifatparvarlik bilan bog'lansa, bilingki, uni Yaratgan siylabdi...

– Necha yillardan buyon davlat arxivlarida sarg'aygan qog'ozlar orasiga yashirilgan, ha, ataylab bekitilgan haqiqat izlarini topish mashaqqatini chekmoqdasiz. Aynan mana shu sohani tanlashingizning sababi nima?

– Savolingizga javoban "Hayot – ustoz, turmush – muallim", degan bir jumla bilan qanoatlansam bo'lardi. Ammo bu javob biroz qisinti. Yoshligimdayoq eski shahar bilan yangi shaharning farqini "og'a"larimiz ko'rsatib qo'rganini fahmlardim. Hali ijtimoiy-siyosiy jihatdan ko'zi ochilmagan g'o'r bolani janubiy viloyatlarga hayot majburiyati sababli qilingan sayohat birdaniga bir necha yoshga ulg'aytirdi.

1966-yilgi zilzila, 1967-yilgi "Paxtakor" voqealari, mahalliy aholiga qurilgan uylarga binokorlarning o'zlari joylashib olishi ta'sirida mafkura va milliy madaniyatga siyqa qarashlar o'zgardi. Biz o'zligimizni, o'zagimizni, teran tomirlarimizni ilg'ay boshladik.

Mustaqillik arafasi va dastlabki yillarni xotirlang: matbuot xodimlari, adabiyotshunoslar, yozuvchilar milliy madaniyatimizning xufiya sahifalarini tiklashga kirishdilar. Ochilgan sirlar faqatgina yoshlarni emas, balki tarixiy voqealarning bevosita guvohi bo'lgan kishilarni ham shoshirib qo'ydi. Davr olimlar oldiga kechiktirib bo'lmas talab qo'ydi: yaqin o'tmishimizning qorong'i puchmoqlarini dalillar, raqamlar, guvohlarning xotiralari orqali yoritish. Adolat bilan yozilgan tadqiqotlarga xalqimiz va istiqbolga beminnat xizmat qiladi. Olimlar har masalada o'z millatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy manfaatini yuqori qo'yishlari kerak. Aks holda, biz yana aldanamiz.

– Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, G‘ozi Yunus kabi millat oydinlari haqida jiddiy tadqiqotlar olib boringiz. Ularning har biri alohida fenomen. Bugun yurt istiqboli uchun aynan shunday shaxslarga ehtiyoj sezilmayaptimikin?

– Tarixning odil hukmicha, har bir xalq Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, G‘ozi Yunus, Mannon Uyg‘ur kabi buyuklarga doimo muhtojlik sezadi. Chunki ular o‘z millatining ko‘zgusi, ezgulikka eltuvchi yalovbardorlaridir. Atrofimizdagi xalqlarga nazar tashlang, ularda shunday alplar bormi? Ayni damda ikkimiz eslagan ulug‘lar har qanday mamlakatga sharaf keltiruvchi siymolardir. Shu bois xalqimizning ularga mehri sira so‘nmaydi, borgan sayin kuchliroq tovlanaveradi. Mana, 2020-yili yurtimizda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi keng nishonlanar ekan, bundan faqat biz yutamiz, ma‘naviyatimiz yutadi.


– O‘tgan yili Abdulla Qodiriy yubileyi ham ana shunday tantana qilingan edi. Adib siyrati asarlari bilan chambarchas o‘rganilsa, ko‘plab kutilmagan ma‘lumotlar yuzaga qalqib chiqishi mumkin. Bugun Abdulla Qodiriy haqida qanday yangi gaplarni aytgan bo‘lar edingiz?

– Bul zot haqida ko‘p olimlarimiz yozdi. Ayniqsa, Bahodir Karim katta ishlar qildi. Sanobarxon, o‘zingiz ham hazilakam tadqiqot yaratmadingiz. Adibning hayoti va ijodi yaxshigina o‘rganildi. Ammo u yashagan davrga tarix kesimida qaraydigan bo‘lsak, hali ko‘plab ilmiy izlanishlarga ehtiyoj seziladi. O‘zbekka xos axloq, muomala madaniyati, xalqimiz psixologiyasi aks ettirilishi, el san‘ati va el adabiyoti (folklor)ning, “Farhod-Shirin”, “Vomiq-Uzro”, “Asli-Karam”, “Bo‘z yigit” va boshqa asarlarning adib ijodiga ta‘siri, uning lug‘atchilik va tarjimonlik faoliyati, xossatan, o‘z davrining yosh islohotchisi ekaniga nazar solganimizcha yo‘q. Din-dindor, bid‘at masalasini-ku qo‘yavering...

– Yaqinda juda kam nusxada bo‘lsa-da nashrdan chiqqan “Milliy hurriyat adabiyoti” kitobingiz xalqimiz uchun juda katta tuhfa bo‘ldi. Risolaning mundariyasi noan‘anaviyligi bilan e‘tiborni tortdi. Fasl nomlari ham o‘tgan asr boshidagi jadidlarning kitobni tartiblash usulini eslatadi. “G‘orat yoxud harbiy kommunizm davri”, “Milliy qarama-qarshi turish adabiyoti” kabi bo‘limlarni shunday atashdan maqsad nima edi?

– Bilasizki, uzoq muddat Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy, G‘ozi Yunus, hatto Avloniyning nomi tarix sahifasidan olib tashlandi. Ularning aksariyati siyosiy va fuqarolik jihatdan oqlanganidan keyin ham asarlari bosilmadi. Man qilinsa ham, qisqartirishlar bilan chiqarildi. Xo‘sh, nomlari zikr etilgan adiblar va nomlari zikr etilmagan davlat va madaniyat arboblarning aybi ne edi, nega ular qatag‘on qilindi?!

Sobiq ikki imperiya qo‘l ostidagi qardosh xalqlarning qay biriga nazar tashlamang, boshida doimo qilich, multiq turganiga shohid bo‘lasiz. Sababi, har ikki saltanatning pardalangan siyosati bo‘yicha turkiylar rus xalqi tarkibiga singdirib yuborilishi, ya‘ni assimilyatsiya qilinishi shart edi. Butun targ‘ibot-



tashviqot shunga qaratilgan. Fikrimning isboti uchun bir misol keltiraman: qoraqalpoq filolog olimi Najmiddin Dovqarayev o'z xalqining yozma va og'zaki adabiyotini o'rganib, to'rt jildlik asar yozgan. Rus madaniyatining ijobiy ta'sirini ko'rsatmagansan, deb doktorlik dissertatsiyasi tasdiqlanishini ortga surishdi. "Qoraqalpog'istondan ancha olisda bo'lgan rus adabiyotining bizga qanday ta'siri sezilishi mumkin", degan haqli savoli uchun unga mafkura pardasi ostidagi shovinistlar qancha azob berishdi. Iste'dodli olimning yoshgina vafot etishiga sababchi bo'ldilar.

Sho'ro hukumati O'rta Osiyo xalqiga va'da qilingan ozodlikni bermadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ziyolilarimiz "Haq olinur, berilmas"ligini juda yaxshi tushunib yetdilar. Maskov olib borayotgan ikki yuzlama siyosatga qarshi turganlari uchun ham aziz hayotlaridan ayrildilar. Atoqli davlat arbobi Xidir Aliyev Maskovga ketib, joniga qasd qilishdan oldin "Biz ham byudjet nimaligini tushunib qoldik", degan ekan. Oxiri uning jasadi krematoriyda kuydirildi. Adabiyotimiz namoyandalari mavjud vaziyatdan keskin noroziliklarini baralla bildirdilar. Demak, bizning faqatgina ziyolilarimiz, arboblarmiz emas, balki adabiyotimiz mustabid mustamlakachi tuzumga qarshi turdi. Shu bois kitobni "Milliy qarama-qarshi turish adabiyoti" deb qo'ygan edim, keyin do'stlarning taklifi bilan "Milliy hurriyat adabiyoti" deb ataldi.

Inqilobning dastlabki yili "harbiy kommunizm davri" deb ataldi. Qizillar shu bahonada aqliga siqqan noma'qulchilikni qildilar. Xalqning madaniy va moddiy mulki ayovsiz talandi. Ulkan madaniyat va ko'hna tarixga ega, jahon ilm-faniga olamshumul hissa qo'shgan xalqni o'z ko'ziga madaniyatsiz ko'rsatishga intildilar. Ana shu siyosiy-harbiy holat "Milliy qarama-qarshi turish adabiyoti"ni vujudga keltirdi. Atoqli jamoat arbobi Nizomiddin Xo'jayev sho'rolar syezdida kim nima desa, deyaversin, men qul emasman, degan. Shoir Cho'lpon "kishan kiyma" deb jar solgan. Maqsad – xalqimiz va adabiyotimizning mash'um tarixiy

voqealarga siyosiy munosabatini, zulmga qarshi turishini ko'rsatish.

– *Yana shu kitobdagi "Olabo'ji izlash yoxud millatga, milliy madaniyatga qarshi terror", "Zamon va sovuq ziyolilar" degan fasllarda o'zbek ziyolilari orasida yuz bergan ichki bo'linishning asl sabablarini izohlashga chog'langansiz.*

– Turkistondagi jiddiy ma'naviy va jismoniy qarshilikni ko'rgan sho'ro hukumatining mafkurabozlari har bir xalqning qoloq qismidan o'z madaniyati, milliy hurriyatiga qarshi turuvchilar guruhini tarbiyaladi. Xalqim, vatanim deb yashaydigan kishilarni tarix va siyosat sahnasidan yo'qotish uchun "Olabo'ji izlash yoxud millatga, milliy madaniyatga qarshi terror"ni ularning qo'li bilan ishga soldi. Siz aytgan ichki bo'linish sun'iy ravishda vujudga keltirildi. Milliy madaniyati va mustaqilligiga avomlarcha munosabatda bo'lgan kishilar o'zlarini "sovuq ziyolilar... temir kurakchilar" deb atashdi. Ularning chiqishlari Xitoyda o'tgan madaniy inqilob davridagi xunveybinlar harakatidan farq qilmaydi.

Ammo... xirmontepa endi bizniki, deb o'ylaganlar chuchvarani xom sanagan edi. Ular boshq u yoqda tursin, hatto bitta donni Maskovning iznisiz olish vakolatiga ega emasdi. 1937– va 1950-yillar qatag'oni ularning ham safini juda siyraklashtirib qo'ydi. Bunga tarix shohid. Zotan, bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni – ayiq...

Vatanimiz tarixi, adabiyoti, san'ati Tangritog'dek ulkan va jozibador, o'rganilmagan tomonlari hali juda ko'p. Biz hali o'zligimizni to'la kashf etganimiz yo'q. Har bir tadqiqotchi, har bir ziyoli o'zagiga yaqinlashgani sari tarixning ko'hna sahifalarini ochaveradi va ona xalqining nihoyatda ko'rkamligini yurakdan his qilaveradi, muhabbati oshaveradi. Vatanni sevmaslikdan, unga maftun bo'lmaslikdan, millat foydasiga ishlamaslikdan Yaratganning o'zi asrasin.

Sanobar TO'LAGANOVA
suhbatlashdi.



Bahodir Qobul:

Ichimdagi jo'ra

1966-yili Baxmal tumanidagi O'smat ota qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasi (1984–1989) hamda huquqshunoslik (1992–1996) fakultetlarida tahsil olgan.

Yozuvchining "Yomg'ir yoqqan tunda", "Salom, laylaklar", "Qaldirg'och", "Yaxshi odamlar" kabi ilk hikoyalari 1986-yili yosh ijodkorlarning "Chashma" almanaxiga kirgan. Shundan so'ng uning "O'spirinlik", "Nafaqa", "Oqdala", "Ena shamol", "Ota chiroq", "Kunga mahtal kampirlar", "Oq kamar", "Tanovor", "Oybuloq",

"Oy yo'li" kabi qissa va hikoyalari, qadimiy tosh bitiklar yo'rig'ida yozilgan "Qayroqtosh bitigi" e'lon qilindi.

Bahodir Qobulning "Otahayot" va "Bog'dagul" qissalari, "Enayo'l" romani o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. 2018-yili yozuvchining "Otahayot" qissasi Yevrosiyo Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan Mahmud Koshg'ariy nomidagi V xalqaro hikoyalar tanlovining O'zbekiston bosqichi hamda 2019-yili "Eng ulug' – eng aziz" Respublika ko'rik tanlovida "Enayo'l" nasriy asarlar to'plami g'olib bo'ldi.

Eslatma: Adibning "Bog'dagul" qissasi "Yosh kitobxon" Respublika tanlovida o'qilishi zarur adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu asarni "Yoshlik"ning 2019-yil 8-sonida o'qishingiz mumkin.

Kitob – sodiq do‘st, yor, jo‘ra. Kim qancha ko‘p kitob nomiga loyiq bitiklarni o‘qisa ana shuncha haqiqiy jo‘rasi bo‘ladi. Va har biri o‘z o‘rnini bilib, yelkangizda qo‘shinday tiziladi. Va har biri ichingizdagi ichachir jo‘rangizga aylanadi.



“

Yosh avlod ota tilda til chiqarmasa, ota til orqali dunyoni tanimasa, ota tilda fikrlashni egallamas, tafakkur etishni o‘rganmas, o‘rgatilmagan ekan, u avlod yo‘qotilgan avloddir.

O‘zbek tilini, o‘zbek tiliga muhabbat qo‘yishni, Vatanni qanday sevishtni do‘stim Bahodir Qobuldan o‘rganish kerak.

*Abdulla ORIPOV.
2011-yil 9-fevral*



“*Yozarmanning qo‘lidan bir ishgina kelmasligi kerak – yolg‘on yozish.*

Tig‘ bilan o‘ynashsalar ham, til bilan o‘ynashmaydilar.

Yozarmanning yelkasida elning, otasining nomini, ya'ni nomusini ko'targan; eng ulug' sharafti, yetkazgan bergan ne'mati – ota tilida yozish – elning orzu-umidi, achchiqchuchugi, quvonch-tashvishi, o'y-u xayoli, bir so'z bilan aytganda, el tilining qudratini, fahm-farosatini ko'rsatish mas'uliyati yotadi.



Bahodir Qobul – do'stim, o'zbek nasrining yangi manaman deyishga arzigulik yorqin vakili. Asarlari tarjima qilinsa Markes, Aytmatov asarlari bilan kitob tokchalarida bir qatorda tura oladigan va teppa-teng bellasha oladigan asarlardir...
Baxtiyor NAZAROV.
2011-yil 25-dekabr.



“Ikki Bahodir”

Bahodirxon! Eng yaxshi tilaklarim Sizga. Zotan zimmangizda hozircha o'zingiz sezmagani ulug' mas'uliyat bor. Omadiyam.

Shavkat RAHMON.
1987-yil 10-iyun.



Toza yozish uchun tahoratli bo'lishning o'zi kamlik qiladi.

Arslon yelkasidagi xazina

(Qissa)

**Inomjon
ShAVKATOV**

1985-yili tug‘ilgan.
O‘zbekiston Milliy
universiteti jurnalistika
fakultetini tamomlagan.
Hikoyalari va hajviyalari
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi tomonidan
nashrga tayyorlangan
“Oltin ko‘prik”, “Kaftdagi
nihol”, “Yoshlar kitobi”
kabi to‘plamlarga
kiritilgan.

*Millat ozodligi uchun aziz jonini fido, umrini baxshida etgan
munavvar zotlar xotirasiga bag‘ishlayman.*

*Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Dunyoni “urxo”lar
bilan titratgan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Nechun tovushlari
chiqmaydur?*

Abdurauf FITRAT

Uni ko‘rmasimdan avval tanidim, bilmasimdan oldin yo‘qotdim.
Bir kuni saboqdosh do‘stlarim o‘zlari tez-tez qatnashib turadigan
adabiy to‘garakda bir devona paydo bo‘lganini, chindanam g‘alatiligini
aytib qolishdi. G‘alatiligi u tildan-tilga ko‘chib yurgan afsonaviy xazinani
izlayotgani, har bir gapida o‘sha haqida so‘z ochganida ekan. Bir necha
kun u haqidagi shov-shuvlarni eshitib yurdim. Nihoyat, qismatning o‘zi
bizni ro‘baro‘ qildi.

U “hayot xayolotdan boyroq” degan gapni tez-tez takrorlardir. Bugun
uning hayoti mening biqiq xayollarimdan anchayin go‘zalroq ekanini
his etayapman. Undan yagona yodgor – har doim qo‘lida ko‘rganim,
lekin hech qachon so‘rashga, ko‘rishga hafsala qilmaganim qo‘ldaftarini
varaqlar, sahifalarga muhrlangan lahzalarini, lahzalarida akslanib
turgan fikrlari, qaydlari, kechmishlarini o‘qir ekanman, uning nechog‘li
hissiyotchan, sarguzashttalab inson ekanini his qilib turibman.

Qo‘limga qalam olib, do‘stimning faqat menga tanish bo‘lgan sirli
hayotini siz bilan baham ko‘rishga jazm etdim.

Kaftdagi vasiyat

“Qorashat – saxxaz – zazag” – Behbuddan eshitgan ilk so‘zlarim
shu edi.

Uni dorilfununda, odatda yakshanba kuni ertalab o‘tkaziladigan
yosh iste‘dodlarning to‘garagida uchratdim. Quyuyq qora sochlari,
burgutning tumshug‘idek uchi sal qayrilgan burni, ozg‘inligidan bo‘rtib-

bo'rtib turgan chakka suyaklari darhol e'tiborni tortardi. Sirli yurish-turishi, so'zlarni chertib-chertib, ma'nili gapirishi kishida chuqur bilimga egadek taassurot uyg'otardi. Lekin dastlab men ham bu yigit haqida, uning o'ziga yarashgan patala sochlari, odmigina, ozg'in qomatiga qovushmagan keng-mo'l kiyimlari, ba'zida soch-soqolini o'stirib, devonasifat yurishlarini eshitib, u haqiqatan ham savdoyi oshiq bo'lsa kerak, deb xayol qilardim.

Bahorning so'ngi edi, chamamda. Munozaraga yuqori davralarda ham ko'tar-ko'tar qilinadigan, anchagina taniqli shoir qizning manzumalari qo'yilgandi. Shoshib kelayotib, zinaning biqinida Behbudga urilib ketdim. Qo'lidagi yondaftari yerga tushib, ichidagi qog'ozlar yon-atrofga sochildi. Kamiga bir-ikkitasini bosib ham oldim. Keyin mulzam bo'lganicha, qog'ozlarni terdim-da, egasiga uzatdim. U ham egilib, ingichka sariq rangdagi narsani olganiga ko'zim tushdi. UZR so'ragani chog'langanimda, "Parvo qilma", – deya gapni kalta qildi. Birinchi suhbatdayoq senlashga o'tganidan to'poriligi bilinib turardi. Ikkimiz ham munozara o'tayotgan xona tomon yurdik. Auditoriya talabalar bilan to'la edi. Bo'sh turgan oxirgi partaga yonma-yon o'tirdik. Zimdan nazar solib, Behbudning harakatida, kiyinishida, yozuvida, nuqsida barcha daholardagi kabi betartiblik, devona oshiqlarda uchraydigan parishonlik akslanib turishini payqadim.

Bahs-munozara qizib ketdi. Behbud esa hamma narsani tamoman unutgan ko'yi jandasi chiqib ketgan yondaftarga nimalarnidir qoralar, o'chirardi. She'r yozyapti, – degan o'y o'tdi boshimdan.

– Arab tilini bilasanmi? – dedi u to'satdan. Xayoldan chalg'idim. Angrayib qolganimni ko'rib, bosh chayqadi: – Yo'q, bo'ldi, uzr. – U yana bemalol ishini davom ettirdi. Hayron bo'lib termilib turgandim, tag'in menga qaradi. Xijolatdan ko'zimni olib qochdim.

Qaytishda avtobus bekatigacha birga ketdik. Bu safar suhbatimiz ancha qovushdi.

O'sha kundan boshlab o'rtamizda allaqanday yaqinlik paydo bo'lganini his qildim. Balki, bu

tasodifdir, biroq har holda taqdir ham xuddi bu ko'ngil yaqinligini qo'llagandek, shundan keyin bizni istirohat bog'larida, avtobus bekatlarida tuyqusdan uchrashtira boshladi. Keyinchalik anglab yetdimki, Behbud o'ziga yaqin bir odamga muhtojlik sezgan-u, o'sha men bo'lib chiqibman.

Ilk bor uyiga borganim yodimda. Rosti, hashamatli koshona Behbud va qo'shni xotinning ba'zan supur-sidir uchun kirib turmaganini aytmaganda, huvillab yotardi. Yuragim zirqirab ketdi. Ichkaridan anqiyotgan qo'lansa hid va xona devorlarining allambalo qizg'ish-sarg'imtir rangdaligi menga o'rta asr vayronalarini eslatib yubordi. Lekin anchayin ko'rkam qilib qurilgandi. Jodulangan shahzoda bilan o'rtoq bo'lgan ekanman-da, deb o'yladim ichimda. To'g'risi, u ham yotoqxonadan quvilgan talabaday – xuddi men kabi shaharning allaqaysi kunjagidagi biror-bir xonada ijarada turadi, deb xayol qilgandim. Har holda, yurish-turishi va kiyinishidan shunga o'xshardi.

Xonasida nuroniy kishining surati osig'liq ekan. Stol ustidagi bir kosa suv va to'ntarilgan piyola ketiga o'rnatilgan shamga ko'zim tushdi. "Nega?" – deb so'radim. "Azadorman, bir hafta oldin bobomni berib qo'ydim", – dedi sovuqqonlik bilan. Keyin bobosining sirli o'limi haqida gapirib berdi. O'sha lahzalarda men uni elas-elas tushunayotganimni, tashqaridan palapartishlikka, tartibsizlikka o'xshab ketadigan, jumboqqa o'ralgan bu vujudning matlabi neligini his qila boshlaganimni angladim. U hikoya so'zlashning hadisini olgandi. Kerakli nuqtada ehtirosga berilar, ba'zida gapini keskinlik bilan to'xtatib, suhbatdoshiga qanday ta'sir etayotganini kuzatar, shu payti o'ylab olib, yana davom etardi. O'shanda ham avval ko'ziga yosh oldi, qoramag'iz chehrasi salobat kasb etdi.

– Bobom o'ldi. Ismlari Zarifiddin, yoshlari yetmish beshda edi, – deya biroz mayin, hirqiroq ovozdahikoyasini boshladi. – Esimni taniganimdan beri ular bilan birga yashardim. Bobom meni yetimxonadan olgan ekan. Yorug'olamda yakka-yu yagona yaqinim ular edi. Bir kuni ko'chadan kelsam, xonaning o'rtasida uzala tushib yotibdilar. Xona bo'ylab ming so'mlik,

besh yuz so'mlik, yuz so'mlik pullar sochilgan, boshqa narsalar to'zg'ib yotardi. Qo'llarida ikki yuz so'mlik pulni mahkam g'ijimlab olganlar. Yuraklari xastaligi tufayli muntazam dori ichib yurardilar. Jon holatda dorixonaga chiqmoqchi bo'lganmilar, deb o'yladim. Lekin... dori shundoq cho'ntaklarida turgan ekan.

Shu kundan dunyo men uchun qoraga burkandi. Hayotimdan ma'no yo'qoldi. Lekin... Nima desam ekan, birdaniga... hamma narsa o'zgarib ketdi. G'aroyib narsalar sodir bo'ldi... Hammasi bobomning xonasini yig'ishtirayotib, bir xat topib olganimdan keyin boshlandi. Qanday tushuntirsam bo'ladi? Xatlikka xat-u, lekin ichida bitta toza qog'oz hamda somon parchasi bor edi, xolos. Kim, qachon, qayerdan, nima uchun yuborgani noma'lum. Ma'nisiga yetmay, bir chetga tashlab qo'ya qoldim.

Besh-olti kun o'tgach, uyimizga bir odam kelib, o'zini Sharifiddin deb tanishtirdi. U turk lahjasida gapirardi. Ajablanarlisi, nimasidir bobomga ham o'xshab ketar, yurish-turishi, qadam bosishi, gapirishida ham bobomni ko'rganday bo'ldim. Lekin u ancha yosh ko'rinardi. Mehmon bir paytlar Istanbulda bobom bilan yaqin bo'lgani, aslida uzoq qarindoshligi xususida gapirdi. Bir lahzalik hayronalik ichida bu odam meni aldamayaptimi, degan shubhaga ham bordim. Sababi, bobom bu haqda hech narsa aytmagan edi. Ammo bir hisobdan to'g'riyam. Bobom u qadar xotiralari bilan o'rtoqlashishni xohlayvermasdi. Faqat 1939-yili otasi bilan afg'on orqali Turkiyaga qochib ketganini, oradan 30 yilcha o'tib, yana O'zbekistonga qaytganini bilardim, xolos. Mehmon bilan ancha vaqtgacha gaplashib o'tirdik. U gap orasida mening o'qishim, nima ish qilishim bilan qiziqdi. Marhumning hurmati haqqi, xohlasam, Turkiyada o'qishimga ko'maklashishiga sha'ma qildi. Xayrlashish chog'i qandaydir eski kitob va yana yaqin orada birorta maktub kelgan-kelmagani xususida ham so'radi. Men bilmasligimni aytdim. U chiqib ketar ekan, dabdurustdan orqaga qayrildi-da: "Bu xonadonga yana qachon kelaman, xonasini ko'rsam bo'ladimi?" – deb qoldi. "Mayli", deb yo'l boshladim. Bobomning xonasiga kirganimizda,

ichkarini sinchiklab ko'zdan kechirayotganini ilg'adim. Keyin stulga cho'kib, kasalligidan shikoyat qildi-da, nafasi qisib ketayotganini aytib, mendan suv so'radi. Kosada suv olib kelganimda, mehmon hamon stulda o'tirar, ro'molchasi bilan yuziga havo yelpirdi. Chiqib ketayotganimda, yopiq turgan kitob javonining eshigi biroz qiya ochilganini sezsam ham, sir boy bermadim. Mehmon o'ziga kelib olgach, bobom bilan bir paytlar yaqin bo'lganini eslatib, mendan "Bu yerga tez-tez kelib tursam bo'ladimi?" – deb so'radi. Roziligimni eshitgach, rahmat aytib chiqib ketdi.

Ko'nglimda shubha uyg'ondi. Bobomning to'satdan vafot etishi, sirli maktub va antiqa mehmon mushtarakligida menga notanish bo'lgan allaqanday jumboq ko'z ochib turgandek tuyulaverdi. Lekin hali noma'lum, o'zi yo'q chigallikni qanday yechish mumkin? Eng avval ko'nglimga shubha cho'g'ini tashlagan maktubni o'rganishga kirishdim. Harchand urinmay uning tagiga yetish, menga noma'lum bo'lib kelgan bobomning sirli olamiga kirishga urinishim behuda ketardi.

Xayol bilan maktubni ko'chaga olib chiqibman. Esingda bo'lsa, sen bilan tanishgan kunimiz u yerga tushib, changga belandi. Uyga kelib qaragam, uning ba'zi yerlarida g'ayritabiiy tarzda g'ubor izlari qolib ketgan ekan. O'shanda qog'oz g'uborga yoki qora tutunga tutilsa, yuzasida allaqanday yozuv paydo bo'lishi, bu usuldan avvallari juda ko'p foydalanishgani yodimga tushib ketdi. Darhol, qo'limga birinchi tushgan narsa – ruchkamni yoqdim-da, qog'oz yuzasini qurumga burkadim. Keyin diqqat bilan e'tibor bersam, sahifa sirtida "Behbudiy Uya SI-5 20.." degan g'ira-shira yozuv paydo bo'libdi. Endi oldimda navbatdagi jumboqlar qalasha boshladi? UYA SI5 nima? Nega Behbudiy deb yozishdi? Va yana uning bobomga nima aloqasi bor? Shundan so'ng izlanishga, kitob titishga tushdim... Hozircha mana shunaqa gaplar.

Behbud hikoyasini tugatgach:

– Bular haqida yozmaysanmi? – dedi menga ilinj ko'zlari bilan tikilib. – Hali senga ko'p ajoyib voqealarni aytib berishim mumkin. – Keyin qo'shib qo'ydi: Men buning oxiriga yetaman. O'zim

yo'zardim-u, qo'limga qalam olsam, ichimdan issiq hovur qo'zg'alib, yuragim yonib ketadigandek tuyulaveradi. Go'yo bir zum o'tib, bu hovurdan tevarak-atrofga ham o't ilashadigan, dunyo alanga ichida qoladigandek. Shuning uchun sen yozsang, bundan xursand bo'lardim.

O'sha kuni uyga kelib, qog'oz-qalam oldim. Stolga bosh qo'yib, uzoq vaqtgacha o'y surib qoldim.

Buxoro Amirining tahdidi

1917-yil 7-aprel. Buxoro. Istibdod zulmidan ezilgan mazlum xalq peshonasini erk nasimlari silay boshladi. Ammo Buxoro hamon qo'rquv va tahluka tumani ichiga qoldi. Osmonni qoraga burkagan bulutlar hamda allaqayerlardadir burqsiyotgan tutun tez orada mudhish bir voqelik ro'y berishini bashorat qilardi. Shaharda qadimchilar va jadidlar o'rtasida tortishuvlar, ziddiyatlar xufyona avj olgan, kunora gunohkor deb topilganlar omma oldida sazoyi qilinib, boshi tanasidan judo qilinir, kiyimi yirtilib, orqa badanining terisi titilib ketguncha savalanardi. Bu dolg'ali kunlarda mang'itlar sulolasini qanday bo'lsa-da saqlab qolishga chirangan amirning ham boshi gotgandi.

Yumaloq mis gardishli ko'zoynak taqqan, o'rta bo'yli, sersoqol, boshiga jigarrang salla o'ragan, egniga girdi bo'ylab qizil rangdagi chiroz yugurtirilgan yashil beqasam to'nli 42-43 yoshlardagi bir kishi Buxoroning baland minoralariga termilgan ko'yi xayol surib o'tiribdi. U o'zining keyingi ikki kun ichida qilgan ishlarini bir-bir sarhisob qilib chiqdi. Xayolidan Buxoro Amiri rus konsuli Miller bilan kelishib, mamlakatda o'zgarishlar qilish uchun Manifest e'lon qilishga qaror qilishi, isyon ko'tarilmasligi uchun Samarqandga maktub yuborilishi va shu maktubga asosan Chartuyev, Gartsfeld, mulla Haydarbek, Isoxorov va o'zining Buxoroga jo'natilishi bir-bir o'tdi. Keyin vokzalda shaxsan Millerning o'zi kutib oldi va manifestni o'qitib, fikrini so'radi, so'roqqa tutib, tahdid qildi... Uning bu ishlardan ko'ngli biroz xijil tortdi.

Bir necha soat muqaddam Rahimxoniy mehmonxonasida Manifest e'lon qilinganidan so'ng, amir ham barcha ila qo'l berib ko'rishib, salla va chopon kiygan uch musulmon bilan salomlashishni lozim topmaganini eslab, buni ham yomonlikka yo'ydi. U go'yo o'pqonning o'rtasiga tushib qolgandek edi. Vaziyat ham sal bo'lsa izdan chiqib ketadigandek. Har holda bu voqealarda rus konsulining qo'li borligi aniq. Vagondagi suhbatda ham manifest saktaligi yuzasidan bildirgan e'tirozlari unga yoqinqiramagandi.

Mahmudxo'ja minora tepasiga in qurgan laylakni mahzun kuzatdi. Keyin unga mahliyo bo'lib qoldi. Shu laylak ham mendan baxtiyor, deb xayol qildi u. Lekin bu qabohat isi kelayotgan makonni tez orada laylaklar ham tark etajak. Avvalgi kelganida ular ko'p edi. Endi ko'z bilan sanarli... "Ey yaratgan egam, bu jonzotlar Buxoroda bo'lmasa, boshqa shahardan boshpana topadi, ammo biz, bandalaring, o'z yurtimizni tashlab, qayerga sig'indi bo'laylik, qachon bizga to'zim berasan?" Lablari orasidan sizib chiqqan bu so'zlar, o'zini ham sergak torttirdi.

Hamrohi Mulla Haydarbek kelib, uni saroyga chaqirtirishganini aytganda yuragi shuv etib ketdi. Ketayotib, har tashlagan qadamida, hozir uni nima deb so'roqqa tutishlarini, o'zi nima deyishini taxmin qilib bordi.

Mahmudxo'ja arkka kirgach, panjaralar orasida sullayib yotgan mahbuslarga ko'zi tushdi. Amir otxonasidan chiqayotgan axlatlar maxsus quvurlar orqali ularning boshidan quyilardi. Aftidan mahbuslar allaqachon bu ko'rgulikka ko'nikkan shekilli, barchalari beparvo. Ammo Mahmudxo'ja g'ijinib ketdi. Ba'zi birlariga termilib, ularning ko'zlaridagi mungdan ma'yus tortdi. Ko'ngli battar ezildi. "Ular nahotki, shunchalik beshafqat qismatga mahkum gunohkorlar bo'lsa?" – deb o'yladi. Aslida, amirning zindoni saroyning orqa tarafida deb eshitgandi. Minglab mahbuslar bitxona va kanaxonalarda o'limini kutib yotishibdi. Lekin saroyga kiraverishda ham mahbusxonalar qurilishi va arkka kelgan odamlarga ularni pesh qilish nega kerak bo'ldi ekan? O', bu amirning



kuch-qudratini namoyish etish, kishilarda qo'rquv uyg'otish uchunmi?!

Mahmudxo'ja mahbuslarga qaramaslikka intildi, ko'zlarini olib qochdi. Shu topda bundan ancha yillar oldin bo'lgan voqealarni xotirladi. Mahmudxo'ja umri imom-xatiblik bilan o'tgan otasi Behbudxo'ja vafot etgach, tog'asi Qozi Muhammad Siddiqning qo'lida tarbiya

topgandi. Ammo bir necha yil o'tib, tog'asi ham doril baqoga rixlat etdi. Lekin hayotining so'nggi soniyalarida, unga avlodlari zimmasiga buyuk vazifa yuklatilganini va allaqanday xazinaning siri haqida so'zladi. Ajal talvasasi buning butun tafsilotini batafsil eshitmog'iga yo'l bermadi: tog'asi zo'rg'a nafas olar, aftidan Mahmudxo'janing qat'iyatiga biroz shubha ham qilayotgandek edi. Tog'asi xazina sirining

nihoyatda maxfiyligini, uni faqat millat, yurt zavolga yuz tutmog'i tayin bir paytda ishlatish, o'shanda ham ulusning eng ishonchli zabardast o'g'loniga berish va u xazinani faqat yurt ozodligi va fuqaro dasturxonini to'kinligi yo'lida tasarruf etishi joizligi haqida qayta-qayta so'zlarkan, "Sherdor" deyishga ulgurdi, xolos. Mahmudxo'jaga yostig'i tagida qolgan, umr bo'yi qo'lidan qo'ymagan eski bir kitob yodgorlik bo'lib qoldi. Dastlab tog'asi nima haqida gapirdi, neni so'zladi, unchalik idrok qilmadi. U esankirab qolgandi. Murg'ak qalbida nish urgan bu musibat unga har qanaqasiga ham bu onlarda boyluk to'g'risida o'ylashga izn bermasdi. Keyinchalik dardi arib, bu taqdir royi ekaniga ko'nikkanidan keyin qorachig'larida qotib qolgan tog'asining so'nggi lahzalarini, gaplarini xotirlar ekan, barchasi ong-u shuuriga chirmashib ketdi. Yaratganning amri bilan to'ungacha yetib kelgan bu vasiyatni qanday bo'lsa-da bajarmog'i lozim edi. Keyingi yillarini o'qish-o'rganishga sarf etdi. Samarqandda, Buxoroda tahsil oldi. Zamonasining buyuk insonlari suhbatiga musharraf bo'ldi. Sharq mamlakatlari, Piterburg, Moskva shaharlariga sayohatlar qildi. Ammo bir lahza bo'lsin zimmasidagi mas'uliyatni unutmadi. Izlandi va xazina yashirilgan joyni taxminan bo'lsa-da aniqladi...

Mahmudxo'jani amirning oldiga olib kirishdi. Ancha semirib ketgan va bundan aziyat chekayotgani yuz-ko'zidan bilinib turgan Amir Sayyid Olimxon zarbof to'nda o'z taxtida qo'r to'kib o'tirardi. Saroyda undan tashqari Nasrulla Qushbegi, amirning kuyovi Asatullo Guvanar Urganji, "Jallodbek" laqabli, asl ismi Imomqul bo'lgan bosh xazinabon bor edi. Mahmudxo'ja ta'zim qilib, salom berdi.

– Vaalaykum assalom, keling Mahmudxo'ja, – amir unga joy ko'rsatdi. Taxt sohibining ko'zlarida ayyorona tabassum zuhur bo'ldi.

– Qulluq, amirim, davlatingizni Alloh taolo bundan ham ziyoda qilg'ay.

– Nafaslari muborak, insholloh. Suhbatingizga anchadan beri chanqoqligimiz bor edi.

– Bu men uchun sharaf. Ammo bir noxush xayol tinchlik bermay turibdi. Negadir boyagi

uchrashuvda bizlarni tabarruk salomingizga-da ravo ko'rmadingiz?

– Buni vaziyat taqozosi deb biling.

– Qulluq, amirim... Ammo... ko'p xayrli ishni boshlabsiz, Buxoroda keng bir islohoti sha'riya joriy etmoq qaroringizni qutlayman. A'lo hazratning bu baxshishi shohonalari haloyiqning taraqqiy va osoyishiga, albatta, sabab bo'lur. Lekin... mug'loq sur'atda Samarqand xalqining Buxoroga fasod nashr qilmoqlaridan xavfsiramog'ingizga va bizni chaqirtirmog'ingizga sabab yo'q edi, deb o'ylayman.

– Mufti hazratlari, – amir biroz sukut saqladi, keyin so'zida davom etdi, – fevral inqilobi hammamizni shoshirib qo'ydi. Rusiya taxtida o'tirgan Romanovlar sulolasi yiqitildi. Sulolaning oxirgi hukmdori Nikolay II taxtdan voz kechdi. Davlat tepasiga Kerenskiy boshliq muvaqqat hukumat keldi. Bunday bo'lishini kim ham o'ylabdi deysiz? O'ylashimcha, muvaqqat hukumat ustunlari ham darz ketajak. Meni aytdi dersiz, katta bir xunrezlik bo'lishi tayin. Kamina shuning-chun Buxoroga chetdan isyon oralamog'ini istamayman.

– Kaltafahm qulingizni ma'zur tuting, amirim.

– Sizni nega hamrohlargizdan ayurub, bu yerga chaqirtirganimizni fahm etgan bo'lsangiz kerak?

Mahmudxo'ja bilmayman, degandek yelka qisish bilan kifoyalandi.

– Nahotki, har narsaga yetgan aqlingiz, shu narsaga kelganda qosirlik qilsa?..

– Janob Miller kaminani vagonda anchayin bo'lmag'ur gaplar bilan so'roqqa tutdi. Hazratim, shuni nazarda tutayotgan bo'lsangiz, bu gumrohlikdan o'zga narsa emas.

– Gumrohlik deyursizmi? – amirning ovozi shiddatli tus oldi. – Bu talab, bu bizning talabimizdur. Ajdodlar xazinasi qayerga yashirilgan?

Mahmudxo'ja vaziyat qaltisligini angladi. U yo'l-yo'lakay bunga ne deb javob bermog'ini o'ylagandi, biroq ayni holat bundan chekinmoqni talab etardi. Aslida, Buxoroga kelmasa bo'larkan.

– Janob Miller ham menga shunday tahdid qildi, – dedi u behol tovushda. Savol-javobga Nasrulla Qushbegi ham aralashdi:

– Bizni aldash mumkinmi? Bir paytlar Sohibqiron Temur xazinasi sizdaligini bilurmiz. Tovlanmoqni bas qiling. Yoki yozgan “Padarkush” dramangizning nomi nimaga ishora qilishini, chiqarturgan “Oyna” jurnaligizning birinchi soni muqovasini nega Sherdor madrasasi peshtoqidagi suvrat bilan bezaganingiz va Xo‘qandboy Abduxoliq o‘g‘li, soatchi Badriddinlar bilan qidiruv ishlari olib borganingizni eslataylikmi? Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqarganingiz, jo‘g‘rofiyaga oid asarlar bitganingiz, aslida ne maqsadni ko‘zlaganingizdan darak bermasmi? Farg‘onalik ulomochilar bilan ham bog‘lanib, bu masalada fikrlashganingiz bizga ma‘lum.

Mahmudxo‘janing oyoqlaridan mador qochdi. Asab kasalidan aziyat chekib yurgan kishi uchun eng yaqinidan ham yashirib kelgan sirini o‘zga bir kimsadan batafsil eshitmog‘i u uchun nihoyat og‘ir edi. Vale endi ortiqcha turlanmoq ham g‘oyat xatarli. Mahmudxo‘ja amirga ham, qushbegiga ham bir-bir nazar soldi:

– Qo‘ying, bu eski gaplarni. Barchamiz o‘z farzimizni bajaraylik. Yoshlarni o‘qitmoq bizning bo‘ynimizdagi qarz, ilm izzati dunyo va sharofati oxiratdir. Siz shu yurtning boshi bo‘lub, farzandlarimizga dunyo eshiklarini ochib bering. Xalqni zulukdek so‘rib kelayotgan bosqinchilarni quvib solmoqqa qaror bering.

– Mahmudxo‘ja, – amirning qahrli tovushi yangradi, – biz sizdan boshqa narsani so‘radik. Ulus orasida “Amiri ma‘sum” nomi ila mashhur bo‘lgan bobokalonimiz mang‘itlar sulolasining a‘losi – Amir Shohmurod sizning ona tomoningizdan bobongiz qori Niyozxo‘jani Urganjdan Samarqandga olib kelgani, umrining so‘ngida esa 22 yoshli o‘g‘li Amir Sayyid Haydarga inonmay xazina haqidagi sirni o‘ziday xudojo‘y qori Niyozxo‘jaga ishonganini bilurmiz.

– Baytul mol bo‘shab qoldimi, a‘lo hazratlari?.. – Behbudiy ters gapirmoqqa chog‘langan bo‘lsa-da, keyin biroz sukut saqlab, yanayam mahzunlashdi: – Amirim,

siz adashayotganingizga kafilmen. Xohlang o‘lduring, xohlang so‘ying, jonim sizga nisor o‘lsin. Baski, o‘zim bilmagan narsam haqida gapirmagim nojoiz. O‘zimda yo‘q narsani ham sizga berolmasman, deb qo‘rqaman. Ulomochilar ham begona emas, shu jafokash xalqning botir o‘g‘lonlari. Ular bilan turli xil sabablar bilan uchrashganim, yurt ozodligi yuzasidan aloqada bo‘lganim rost. Buning sababi – maqsadimiz mushtarakligidadur.

– Maqsadimiz mushtarakligi? – Amir qah-qah otib kuldi! Keyin ovozi yana qahrga indi – Bizning maqsadimiz-chi? Biz Ona tuprog‘imizdan bosqinchilarni quvib solishni istamaymizmi? Bunga salohiyati ham, qudrati ham yetguvchi inson yolg‘iz biz emasmi? Baski, xazina ham saltanat egasida bo‘lmog‘i lozimdur. Kerak bo‘lsa, bugunoq Sherdorning kulini ko‘kka sovururman. Kerak bo‘lsa, Samarqandni yoqurman, lekin xazinani sizdan olurman. Yaxshilikcha uni menga bering, men xalqqa qaytarurman.

Mahmudxo‘ja xazina menda emas, deyish bilan o‘zini oqlay olmasligini fahmladi. Shu bois sipolik bilan so‘zida davom etdi. Uning maqsadi amirga ta‘sir etmoq, ojiz joyidan tutmoq edi:

– Amirim, siyosat bir buzuq xotin kabidir. Hech bir davlat o‘z-o‘zidan mustamlakasini bo‘shatmoq istamas. Tarix ingroqlariga quloq tuting. Buxoro taxtida mang‘itlardan burun ashtarxoniyalar, shayboniylar, temuriylar, chig‘atoylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar, somoniylar... hukmronlik qilishdi. Hammasi oxir-oqibat tanazzulga yuz tutdi. Boisini hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Hazrati oliylari, ko‘rayapsizmi, saltanatlar ham, shaxslar ham muqim emas. Lekin raiyatga qilingan yaxshilik abadul-abad qolajak. Siz buyuk sulola farzandisiz. Bu suloladan qassoblar ham chiqqan, ma‘sumlar ham. Amirim, bu ikki xislat sizning tomirlaringizda ham jo‘sh urmoqda. Ma‘sumlikni fuqarolaringizga, qassoblikni dushmanlarga ko‘rsating. Bilurman, siz ham yurtni ozod ko‘rmak istagi bilan yonursiz. Ammo sizda jur‘at yo‘q, hammasidan birdaniga mosuvo bo‘lib qolishdan qo‘rqursiz. Bilingki,

bir kuni baribir shunday bo'ljak. Bir paytlar bobokaloningiz qabrlari nurga to'lgur Amir Muzaffarxon ham oq otda Peterburgga kirib boraman, deb edi...

– Haddingizni biling....

– Amirim, o'zingizni chetdan kuzatib ko'ring, bu nechog'li zavqli ekanini tuyasiz. Shunday muhim davlat ishlari qolib, siz mendan yo'q narsani so'rab turishingiz nihoyatda kulgulidir. Nahotki, shuncha katta davlat va behisob boylıklar egasi bir faqirdan afsonalarni tilab tursa?! Mayli, sizningcha, bu haqiqat ham bo'lsun. Ammo bilingki, xalq o'zgaga tobe bo'lur o'lsa, unga ming ganjina ham totimas.

– Biz hech kimga qul emas.

– Bu nobakor qulingizning shakkokligini darig' tuting. Ammo siz hazratning hali e'lon etilmagan manefestingizni janob Millerining qo'lida ko'rdum. Buni sizning o'jizligingiz deb tushunaylikmi yoki Rusiya konsulining tadbirkorligi debmi?

Amirning qoshlari chimrilib, ko'zlari darg'azablikdan yondi, qo'llari mushtlanib, yer tepindi. Keyin birdan bo'shashdi:

– Tilingizga ehtiyot bo'ling, Mahmudxo'ja...

Bo'yingizdagi boshingiz ortiqchalik qilmoqda, shekilli?! Biz, albatta, ruslarni yurtimiz sarhadlaridan quvib chiqarurmiz, inshaalloh. Men sizga buni va'da beraman.

– Hazratim, maylimi, sizga rivoyat so'zlasam? – Amir ixtiyorsiz bosh iring'adi.

– Qadim zamonda Chin muzofotida

Chung'ichin degan zot bo'lgan ekan. U sayohat qilib yurib, adashib, qabristonga kirib qolibdi. Qarasa bir mozorning yonida yosh xotin qo'lida yelpig'ich bilan yelpib turibdi. Chung'ichin bu qadar ajib harakatni anglamoq shavqinda yosh bonudan buning sababini so'rabdi. Xotin qizaribdi, bo'zaribdi, boshini egib olibdi, ammo zinhor bir so'z demabdi.

Shunda o'sha yerdan o'tib ketayotgan bir juvon sayyohga oq yelpig'ichli ayol haqida gapirib beribdi. "Qabr kanorasini ko'rganingiz Lu ismli xonimdir, debdi u. – Xonim hozir erining mozorini yelpiyapti. Buning sababi Lu xonim turmush o'rtog'ining joni uzilayotganda

undan so'ng yashamayajagini, yashasa ham boshqa birovning xotini bo'lmoqqa aslo ro'yi rizo ko'rsatmasligini aytadi.

Ammo eri: "Bonu bunday ahd etmang, faqat mozorim ustidagi tufrog' qurigunga qadar mani unutmanglikka ahd etsangiz kifoya", – deydi. Lu xonim muning uchun mahkam ahd etadi. Ammo yostiqdoshining vafotidan uch kun o'tmay, ta'ziyaga kelgan yosh yigitni yoqtirib qoladi. Yigit ham unga ko'nglini ochadi. Shundan buyon bu ayol yelpig'ich olib, eri qabrining tufrog'ini quritmak va yosh yigit bilan tezroq birga bo'lmoq harakatida". Amirim, sizning azm-u harakatingiz ham, so'zlaringiz ham shu ayolning va'dasi kabi dur. Takror aytaman. – Mahmudxo'ja so'ziga urg'u berdi. – Meni qo'rqitaman, deb zahmat chekmang. Xudoyimning bizga yuboraturg'on o'lumiga muntazirmiz. Har holda o'lim birdur, ikki ermas.

– Siz bilmaysiz, – hikoya ta'siridan Amir Olimxon chuqur so'lish oldi. – Meni millatni o'ylamaydur, deb xayol qilasizmi? Man ham shul elning farzandiman. Va sizni ham Qrimlarning G'aspialisi, Qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari ulus muallimi deb bilurman. Ammo siz mani bilmayursiz. Menda dard yo'q deb o'ylaysiz. Bu yoqda o'rislar, bir yoqda qadimchilar, yana bir yoqda esa siz – jadidlar – kamina uch olovda jizg'anak bo'layotgan odamman. Kaminaga hech bir xazina kerakmas. Ammo u dushmanlarim qo'lida menga ko'tarilgan qilichdir. Shunisiidan qo'rqamen".

Shu payt mahramlardan biri kirib, saroyga Rusiya konsuli Miller kelganini aytdi. Amir shoshib so'zini yakunladi:

– Mayliga. Xazina hozircha sizda turgani ham tuzuk. Ammo zinhor unutmangki, bugundan ortingizdan ikki daf'a soya paydo bo'lur. Yo qochmoq, yo xazinani kimgadir bermak, yoinki o'z bilganingizcha tasarruf etmak istaysiz, boshingizdan ayrilursiz. Bu so'nggi so'zum.

Sayyora

Noxush tushdan behol bo'lib uyg'ondim:
Dastlab o'zimni ulkan daraxtzor ichida
ko'ribman. Uning barglari g'ij-g'ij, rangi esa
negadir qop-qora emish. Bir payt shamol
turib, ular yerni zulmat rangiga bo'yadi.
Daraxt shohlarida mevalar qoldi, xolos. Yo'q,
adashibman. Tuyqusdan ularning meva
emas, odamning kallalari ekanini payqadim.
Bujmaygan, chaqchaygan, o'graygan
basharalarga tikilib, ichimda sovuq bir hayajon
qo'pdi. Qo'rquvdan qaltiray boshladim.
Tomirlarimdagi qonim shovullab, yuragim
orqaga tortib ketdi. Bir payt kallalar ham yerga
duv-duv to'kildi. Qochdim. Chopyapman-u,
izimdan ular ilon yanglig' vishillab, dumalab
kelayotganini sezayapman. Xuddi meni –
dunyodan bezgan, ularning qismati ustidan
kulgan, muqarrar ravishda boshqa taqdir
yo'rig'iga yurmoqchi bo'lgan kimsani mahv
etmoqqa qasd qilgandek. Bir payt ko'z oldim
jimirlab, to'lqinlandi. Qo'rquvni ham unutib
sekinladim. Yo'q, bu yer ekan, oyog'im ostida
yer o'prilib, aylana hosil bo'ldi. Yoshligimda bir
to'da tengdoshlar tuprog'i yumshoq joylarda
ajibtovur chuqurcha hosil qilgan hasharotni
tutib, oyog'imizga, qo'limizga surtganimiz
esimga tushib ketdi. Lekin u hasharot qazgan
ryumkasimon chuqurning og'zi nari borsa
angishvonadek kelardi. Qarshimdagi chuqur esa
undan 100-200 barobar katta edi. Yuragimda
yana vahm paydo bo'ldi. Chuqurning ichi tobora
o'yilib borarkan, uning tubida allaqanday
qayishqoq mavjudod harakatlanayotganini
ko'rdim. Keyin uning qah-qah otib kulayotgani
eshitildi. Yo'q, men hech bir tovushni
eshitmayotgandim. Bu ovoz mening ichimdan
kelayotgandi...

Ko'zimni ochganimda a'zoi badanim jiqqa
terga botibdi. Ancha vaqtgacha ko'rgan tushimni
o'ylab shiftga termilib garangsib yotdim. Uni
o'zimcha ta'birlashga urindim. Ammo hech
narsa chiqmadi. Keyin xayolim bugun qilishim
kerak bo'lgan ishlar tomon sudraldi. Deraza
pardasi tortib qo'yilgan, tashqari rutubatli edi.

Ammo biroz o'tib, hozir tong emas, balki quyosh
botar paytidagi g'ira-shiralik ekani esimga
tushdi. Tushlikda to'yib ovqatlanib, uxlab qolgan
ekanman. Birdan kursdoshim Sayyorani esladim.
U bugun meni tug'ilgan kuniga taklif qilgandi.
Apil-tapil kiyindim-da, uyi tomon yo'l oldim.
Yo'l-yo'lakay gul olishni ham unutmadim.

U haddan ortiq, kishini aqldan ozdirar
darajada sohibjamol edi. Ikkita tim qora
ko'zlari ustidagi qaldirg'ochqanot qoshlari har
qanday tirik jonni o'ziga so'zsiz asir etardi.
U menga yoqsa-da, doimo uning xayoli
bilan yashasam-da, shubhakor aqlim meni
tinimsiz tergab turgani, haqiqat sarhadlarida
yashashga majbur etgani bois izhori dil etishga
urinmasdim ham. Faqat xayolimda, o'zimning
mo'jazgina dunyomda u bilan baxtli edim. Uni
xohlaganimcha quchardim, bo'liq lablaridan
yutoqib bol simirardim, sochlarini silardim.
Oh, men Yaratganning dunyosida qanchalik
namunali bo'lsam, o'zimning yaratilgan olamimda
shunchalar zinokorman-a!? Minglab, yo'q,
millionlab savollar qalashib ketgan boshimdagi
meni boshqaruvchi kuchning tartibli harakati
taxayyul otiga mingashgach, yurakning tub-
tubida zanglab yotgan jilovsiz hissiyotlarga erk
berishi, hadsiz va hisobsiz hislarga cho'milishi
va o'zining betimsol chanqoqligini qondirishi
shu birgina qiz tegrasida charx urib aylanardi.
Lekin asosiy voqelikda unga bor yo'g'i hazil
qilish bilan cheklanardim. U esa. to'g'risi,
ko'pda tushunmasdim. Aftidan Sayyora atrofini
qurshagan hashamatdan, aniqrog'i, u tuhfa
etadigan soxta samimiyatdan aziyat chekardi.
Ba'zida soatlab suhbatlashib qolganimizda,
u doimo hayotidagi nimalardandir mahzun
qarashlari bilan norizo ekanini sezdirib qo'yar,
men esa uning ma'yus chehrasiga, balqib turgan
qorachiqlariga boqib, xayol surib qolardim:
"Unga mehr libosi kiydirilgan e'tibor zarur. U
men haqimda o'ylaydi. Balki, umr yo'llarida
qo'ltiqlashib ketayotgan yor sifatida tasavvur
ham qilmas. Lekin o'ylashiga, o'qtin-o'qtin esiga
tushib ketishimga shubhalanmayman".

Meni o'zi kutib oldi. Ichkarida shaharlik
do'stlari to'plangan ekan. Sayyora yanada ochilib

ketibdi. Bejirim havorang ko'ylakda moviy ko'llar farishtasiga o'xshab qolgandi. Garchi tabiatimga yot bo'lsa-da, davraga singishga harakat qildim. Ammo negadir xayolim parishon edi. Shovqindan bezib, zalga chiqdim. Zinadan pastga tushib, zalni, devorlarga ilib tashlangan turli xil surat-polotnolarni tomosha qila boshladim. Boya kiraverishda payqamagan ekanman. Bu polotnolar buyuk mo'yqalam sohiblari Leonardo Da Vinchi, Mikelanjelo, Salvador Dale, Renuar, Van Gog, Mone asarlari nusxalari edi. Ularga ancha vaqtgacha termilib qoldim.

– Nega qochib qoldingiz, – ortimdan Sayyoraning ovozi eshitildi.

– Yo'q, o'zim shunday sokinlikni qo'msadim, – dedim siniq jilmayib.

– To'g'risini ayting, nimadandir bezovtamisiz, yo qo'rqayapsizmi?

– Nimadan?

– Bilmadim, balki.. Balki, sevgi izhor qilishdandir... – U menga qarab kuldi.

– Nima... yo'q.

– Yo'q?

– Ha... yo'q... unaqa emas, – ko'zlarimni undan olib qochdim. – Uylaringiz ancha hashamatli ekan. Mana bu suratlar boshimni aylantirib qo'ydi.

– Sizga nima bo'ldi o'zi? – uning so'zlari ham mahzunlik to'nini kiydi.

– Ertalab noxush tush ko'rgandim...

– Aytib berasizmi?

Unga ko'rgan tushimni gapirib berdim.

U "buni ko'p o'ylamang", – dedi. Keyin: "Hozir to'xtab turing", – deya u bitta xonaga kirib ketdi. Bir muddat o'tib, qaytib chiqdi-da, meni zina ortidagi xonaga boshladi. Unga indamay ergashdim. Kirmasimdan dimog'imga kitobning xush havosi urildi. Xonadagi shift qadar baland javonlarga turli xil kitoblar terib qo'yilgan ekan. Sayyora to'satdan devorga o'rnatilgan burgutnuxsa bahaybat soatning murvatini buradi. Qarab turdim. Soat millari 22:22 ni ko'rsatganda javonlar orasi ilkisidan qo'zg'alib, xuddi eshikning ikki qanotidek ortga surildi. Ko'z oldimizda yana bir temir eshik namoyon bo'ldi. Sayyora boya ichkari xonadan olib chiqqan,

qo'lida aylantirib, o'ynab kelayotgan kaliti bilan eshikni ochdi. Keyin menga qarab, ko'rsatkich barmog'ini labiga bosdi-da, ichkariga boshladi. U chiroqni yoqqanida o'zimni muzeyga tushib qolganday his etdim. Men umrimda ko'rmagan bahaybat qandilning oltinrang shokilalari yon-atrofga yorqin nur elab turardi. Xona devorlari ham xuddi zaldagidek, men ko'pda bilavermagan, ammo ora-sira televizorda ko'rib qoladigan turli suratlar, polotnolar bilan bezatilgandi. Pastda turli shakldagi ayol va erkaklarning, hayvonlarning haykallari qator turardi. Uzun oynavand stollarga terib qo'yilgan tangalar, qilichlar, sovutlar, dubulg'alar, miltiqlar, pichoq va xanjarlar, bejirim ko'zalar, cheti naqshinkor kosalar va yana allaqanday g'ayritabiiy metal va sopol buyumlar e'tiborimni tortdi. Ular shu qadar did bilan joylashtirilgan ediki, hayratimdan yuragimning urishini quloqlarim ostida eshitgandek bo'ldim.

– Mana bu Leonardo da Vinchinikimi? – qiziqib devorga osig'liq, chala-yarim chizilgan surat yoniga bordim.

– Yo'q, bu Rafaelning "Muqaddas oila yoki Marvarid" asari, – dedi Sayyora ohista. Shu lahzada kipriklari ohista titrab ketganini ko'rdim.

– Qoyil qolmay iloj yo'q, rosa o'xshatishibdi. Uni kim chizgan?

– Rafael.

Nega bunaqa deyapti, meni omi deb o'ylayapti, shekilli degan xayolga bordim. Biroz jahlim ham chiqdi. – Bilaman, ammo kim nusxa ko'chirganini so'rayapman, – dedim.

– Qanaqa nusxa, – u ham menga ajablangandek tikilib qoldi. – Bu asl nusxa, – keyin qo'shib qo'ydi: – Bu xonadagi hamma narsa asl. Ko'chirilgan nusxalar zaldagi devorlarga osilgan. To'g'ri, bu surat xomaki nusxa, lekin baribir muallifi Rafael. Mana, uning haqiqiyiligini Piza laboratoriyasi olimlari tasdiqlagan hujjat. Rafael 1518-yili graf Kassonaning buyurtmasi bilan bu asarni bir necha nusxada chizadi. Ammo asl variantini chizayotganda to'satdan vafot etadi. Natijada uni rassomning shogirdi Julio Romano chizib bitkazishga majbur bo'lgan. Keyinchalik

kardinal Ippolit Estega sotilgan o'sha kartina hozirda Madriddagi Prado muzeyida saqlanadi. Ko'rinib turibdiki, suratning asl variantining muallifi yolg'iz Rafael emas. Endi suratning asli qimmatmi yoki faqatgina Rafael mo'yqalami tekkan mana bu xomaki suratmi, o'zingiz baho beravering.

Baribir aldayapti, deb o'yladim. Unga tikilib, o'zini tutishi va xatti-harakatidan yolg'onning iforini tuyushga harakat qildim. Lekin sirtiga suv yuqtirmadi.

– Mana, buni qarang, – dedi u burchakda turgan oynavand stol yoniga boshlab, – bular ichida pul islohoti o'tkazib, tanga zarb etgan saltanat sohiblarining, jumladan, Amir Temurning mo'g'ul shahzodalari Suyurg'atmish va uning o'g'li Sulton Mahmudxon nomi bilan zarb ettirgan tilla va kumush tangalari ham bor.

Ortidan borib, ilk bor sochlarining iforini tuydim. Ko'zlarimni yumib, jannat havosidan simirdim.

– Numizmatika – tangashunoslikka qiziqasizmi o'zi? – bu savol meni yana hushimga qaytardi.

– Mana, bu esa, – dedi u qo'shni stolga boshlab, – Xalifa Usmon tomonidan yozilgan "Qur'oni karim"ning sahifasi".

Yoniga borib, oynaga engashib, mus'haf sahifasi va yonidagi kichik teri parchasini tomosha qildim.

– Bular qayerdan o'g'irlangan? – deb hazillashdim atay jig'iga tegish uchun.

– Nega endi? – u hayron bo'lib qoldi. Keyin shoshib javob berdi – Buni bir turkdan sotib olgandik. O'g'irlanganmi bu?

Yelka qisdim.

Haliyam ko'nglimda unga nisbatan shubha yo'qolmagandi. Yon tomonda – oyna tagida ajabtovur yaltirab turgan qirrador, shaffof toshga ishora qilib:

– Mana bu, hoynahoy, "Ko'hinur" bo'lsa kerak-a, – dedim, istehzo bilan.

– Yo'q, bu "Regent" olmosi, – dedi u sipolik bilan. Aftidan, Sayyora bu yerdagi har bir eksponat tarixini mukammal o'zlashtirgan edi.

– Regent?

– Ha, shunday, bu olmosning tarixi juda qiziq. U 1701-yilda Hindistondagi Golkonda konidan topilgan. Uni topib olgan qul o'zida saqlab qolish uchun tanasini kesib, yara ichiga yashiradi. Keyin uni bir dengizchiga sotmoqchi bo'ladi. Dengizchi qulni cho'ktirib yuboradi va olmosni ingliz gubernatori Pitga pullaydi. Dengizchi ham keyin o'zini o'zi osib qo'yan. Gubernator olmosni Fransiya regenti – gersog Orleanskiyga sotadi. Shundan keyin unga "Regent" nomi berilgan. Olmos bir muncha muddat berlinlik zargarda saqlangach, uni 60 000 000 frankga sotishadi. Kinga bilasizmi? Napaleonga. Ajablanmang, 1815-yili ingliz-golland va prus armiyalari bilan Vaterlooda bo'lgan jang chog'ida fransuz armiyasi qo'mondoni Napoleon Bonapartning qilichini bezab turgan. Ammo o'sha jangda olmos yo'qolib qoladi.

– G'oyat ta'sirchan hikoya ekan. Xo'sh... U qanday kelib sizlarning uyingizga kelib qoldi?

Sayyora labini burib, yelka qisdi:

– Bunisini, to'g'risi, o'zim ham bilmayman, ammo har yili dunyoning turli chekkalarida qimmatbaho buyumlarning kimoshdi savdosi o'tkaziladi. Xorijdagi "Christies", "Sotheby's", "Pilipp's" kabi kimoshdi savdo uylari haqida eshitganmisiz? Adam ko'p narsalarni o'sha yerdan xarid qilganlar.... Albatta, kim sotib olgani ko'rsatilmaligi sharti bilan. Antikvar narsalar bilan shug'ullanuvchi tanishlarimiz juda ko'p.

Shu topda Sayyoraning chindan ham menda ko'ngli borligi haqida o'ylab qoldim. Modomiki, oilasining sirini aytdimi, demak, ko'ngliga yaqin olgan, ko'ngliga yaqin oldimi, demak... Unga termilib qoldim. Ichimda qo'zg'algan ehtirosdan junbushga tushib, yoniga yaqinlashdim-da, belidan ushlab, lablariga labimni bosdim. U dastavval baqirishga harakat qilib, biroz tipirchilab turgan bo'lsa ham, keyin tinchib qoldi. Uni mahkam bag'rimga bosib turar ekanman, quloqlariga pichirladim:

– Men sizni hech kimga bermayman...

Shu payt tashqaridan kimningdir oyoq tovushi eshitildi. Sayyora qaradim. U ham qo'rqib ketgandi. Meni itarib yubordi-da, devorga suyanib qoldi. Shu lahzada eshik ochilib, bir

kishining qorasi ko'rindi. Vajohatidan sher ham hurkishi aniq bo'lgan bu odam Sayyoraning otasi edi.

– Nima qilayapsan bu yerda, kim ruxsat berdi senga? – u qiziga qarab baqira boshladi.

– Ad-a-a...

– Kim ruxsat berdi senlarga? – keyin u menga yuzlanib, battar xezlandi – Bu kim? Chiq, yo'qol ikkalang ham.

Bir so'z demay tashqariga yo'naldim. Ko'chaga chiqib, bir-ikki qadam tashlagach, bu taxlit ketishga yuzim chidamadi. Yana ortimga qaytdim. Zalga kiraverishim bilan Sayyora boyagi xonadan yugurib chiqib, yuzini bekitganicha boshqa xonaga kirib ketdi. Biroz o'tib, ortidan otasi ham chiqib keldi. Meni ko'rib, bir zum to'xtadi-da, keyin yonimdan o'tib kresloga cho'kdi. So'ng qo'l ishorasi bilan yoniga taklif qildi. Jimgina borib, qarshisiga o'tirdim.

– Ismingiz nima? – dedi butunlay boshqa ovozda. Darg'azab nigohlar iliqlashib, qahrli ovozlar yumshaganidan o'zimni erkin his qildim. Unga ismimni aytdim.

– Yaxshi, – dedi-da, biroz sukutda qoldi. Keyin yana gapira boshladi:

– UZR, biroz qizishib ketdim. To'g'risi, kutmaganim sodir bo'ldi. U xonaga kirgan birinchi begona siz bo'ldingiz. Endi siz mening sirimni bilasiz. Bu esa menga yoqmayapti. Shu boisdan umid qilamanki, bu gaplar shu yerda qoladi. Ochiq gapiraman, bu mening ham, sizning hayotingiz bilan bog'liq masala. Qo'rqitmoqchi emasman. Bu narsalarning egalari juda katta odamlar, sizning tasavvur doirangiz bu borada juda-juda kichiklik qiladi, deb qo'rqaman. Bundan yana bir begona odam xabar topsa, uchchalamizning ham paymonamiz to'lishi muqarrar.

Ichimda allaqanday to'liqin ko'tarildi. Bir xayol hammasiga qo'l siltab, ters gapirmoqchi ham bo'ldim. Ammo Sayyoraga quyib qo'ygandek o'xshovchi o'tkir nigohlarga qarashga bardoshim yetmadi. Men tomon cho'zilgan qo'lga qo'l tashladim. Bu orada oldimizga tepada o'yin-kulgu qilayotgan Sayyoraning boshqa do'stlari ham bezovtalanib tushib kela boshlashdi.

Qaytayotib ko'rgan tushim yodimga tushib, boz titrab ketdim.

Uch birodar

1919-yil 8-mart. Samarqand. Bahor bo'lishiga qaramay havo hali biroz sovuq. Bemahal yoqqan qor endigina kurtak urgan dov-daraxtlarni chirmoviq kabi o'zining harir choponiga o'rab olgandi. Nav-nihol kurtaklar sovuq zabtiga tushib, battar ko'kimtirilashgan, havoning avzoyiga qarab goh ular yuzida tomchilar ko'rinib yaltirar, tongga yaqin yana muzlab qolardi. Shu sabab bu yilgi hosil ham xavf ostida qolgandi. Ko'hna shahar ko'chasidan qalin kiyinganidan hurpayib ketgan bir to'da kishilar ko'rindi. Ular safidan uch kishi ajralib chiqib, oldinlab ketdi.

Qora chopon kiyib olgan, boshiga oq salla o'ragan kishi xayol surib ketayotgan hamrohiga so'z qotdi:

– Ahvolingiz yaxshimi, taqsir? Keyingi paytda ancha bezovta ko'rinasiz? Yuzingizdan qon qochgan. Mahmudxo'ja dastavval hamrohim menga gapirayaptimi, deb unga qaradi, keyin bunga ishonch hosil qilgach, bosh silkidi:

– Yo'q, yo'q, o'zim shunday, biroz xayolga berilibman. Bugun jon taslim etgan birodarimiz Abdurahmonbek haqida o'ylab qoldim. Bolalari yosh ekan. Bechora ko'p bama'ni odam edi. G'aflatda qolibmiz-da.

– Ha, nimasini aytasiz... Qazo – Haq taoloning irodasi. Bunga kelganda bandasining qo'lidan tadbir kelmas. Bechora anchadan beri kasal yotgan ekan. Xastalik vujudga bir yopishsa, chekinmog'i dushvor. Siz ham o'zingizni asrasangiz bo'lardi... Yaqinda Toshkentga borib maktab progridi va ilmiy hollar bilan tanishib kelganingiz haqida eshitib edik. Bundan Samarqand ahlini ham xabardor etay deb, muallimlar majlisini chaqirib ekansiz, biz ham bir necha o'rtoqlar bilan borib edik. Ammo... majlis belgilab unga o'zingiz kelmasligingiz, keyingi paytlarda siz bilan asrorangiz ishlar ro'y bermayaptimikan, degan shubha uyg'otdi, barchamizda.

– Ha, buning uchun do‘stlarim va birodarlarim oldida aybdormen. O‘sha kunlari asab kasalim qo‘zg‘ab qoldi. Zo‘riqishdan bo‘lsa kerak. Bu uzurimni barchalariga yetkazib qo‘yishingizdan umidvorman. Keyinroq vaqt topib, albatta, Toshkentda ko‘rganlarimni barchangiz-la baham ko‘rurmen, inshaalloh.

– Mufti hazratlari, bilaman tashvishingiz g‘oyat turfa, Shu xalq, millat qayg‘usidasiz. Ammo biroz sog‘lig‘ingizni ham o‘ylasangiz bo‘lardi.

– Eh, Mulla Sadridin, siz ham, men ham ildizi bir ikki jafokash millatning farzandimiz, yon-atrofimizda inson qiyofasidagi kaslar izg‘ib yursa, og‘zimizdagi nonimizni, yerimizni tortib olsa, xotinlarimiz va qizlarimizni yo‘ldan ursa, farzandlarimizni o‘zlarining buzuq ishlariga tortsa, ayting, bunga chidab bo‘ladimi? Afsuski, biz katta xatoga yo‘l qo‘ydik. Ha.. Adashdik.

– Nega unday deysiz? Adashish barcha bandai mo‘minning boshida bor savdo. Ammo siz bunday deb tursangiz, boshqalarga so‘z deyishga majol qolurmi? Axir siz Turon dohiysi, oliyshon ustod, Turkiston vijdonisiz-ku. Ne-ne ilm ahli sizni otamiz, rahnamomiz deb biladi-ku.

– Yo‘q, bunday havoyi gaplarni qo‘ying, mulla Sadridin. Biz katta xatoga yo‘l qo‘ydik. O‘z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrildik. Turk tomiriga bolta urdik. Maktab o‘rniga mayxona ochdik, millatparastlarni dahriy dedik, ittifoqni emas, ixtilofni tanladik. Haq olinur, berilmas ekan. Buni juda kech angladik. Chor istilosi davrini eslang. Angliya hukumati uch xonlikni Rusiyaga qarshi qurollantirmoqchi bo‘lib elchi jo‘natadi. Lekin Xiva va Qo‘qon xonligidan ijobiy javob olgan elchilar Buxoroda qassob amir – Nasrulloxon tomonidan qatl etildi. Vo darig‘, bu qanday kulgulik holat? Keyin nima bo‘ldi? Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, Xiva xonligi ayro-ayro yo‘l tanlab, eski adovatlarini bois birlashib kurashmadi. Alhol, tabarruk zaminimiz toptaldi. Bizda vatanni qo‘riqlaydigan mard yigitlar, sarkardalar yo‘q edimi? Qurolimiz yo‘q bo‘lsa, sotib olish uchun boyligimiz yetmasmidi? Yetur edi. Dushmandan o‘n chandon ko‘proq edi. Lekin boshimizdagilar qizg‘onishdi, alaloqibat, erkni ham, oltinlarni ham boy berishdi.

Ichimizdan chiqqan sotqinlar bo‘ynimizga mustamlaka zanjirlarini osdilar. Eh-he, bu bir tarix. Ammo moziy istiqbolning tarozusidir. Har kim o‘lchasun-da, bilsun! Biz bundan saboq chiqarmadik. Qonimizdagi o‘zbilarmonlik, qo‘rqoqlik pand berdi. Mulla Sadridin 1917-yil 27-noyabrda Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati e‘lon qilinganini xotiringizga keltiring. Bor-yo‘g‘i yuz kun yashadi. Turkiston sovet hukumati boshlig‘i Kolesov 1918-yil fevralda Qo‘qondagi Turkiston muxtoriyati deb nomlangan jadid milliy hukumati va shaharni qonga botirib, 10 ming odamni qirib tashladi. 180 ta qishloq olov ichida qoldi. Biz nima qildik? Yana tomoshabin bo‘ldik. Birodarlarimiz dushman pulimutlariga qarshi ketmon ko‘tarib chiqqanda tinchimizni o‘ylab betaraf turdik. Bir oy o‘tib, O‘sh buxoroliklar Amirga ultimatum yuborishdi. Unda 24 soat ichida amir taslim bo‘lishi va hukumatni yosh buxoroliklarga topshirishi talab etilgan edi. Ammo amir armiyani yengib, 1500 kishini jadid deb qatl qildi. Alhol, zulm qilgan ham, zulm ko‘rgan ham o‘zimiz bo‘ldik.

– Ha, jafokash xalqimiz o‘z boshidan ne-ne qismatlarni boshdan kechirmadi, – dedi Sadridin Ayniy ham chuqur xo‘rsinib. – Kamina to‘rt tarafga boqsam, qabohatni ko‘raman. Hatto Samarqand havosidan ham o‘limtik isi anqiydi. Shaharlardagi katta imorat va korxonlar hammasi yahudiy va ovrupaliklarnikidir. Piterburg, Moskva va Ovro‘pa kutubxonalari bizning kitoblar, bitiklar bilan bezandi. Jahon urushi, mardikor oluv, endi bu taloto‘plar raiyat yelkasini mayishtirmoqda. Bularning bari kaminani ham xo‘b o‘ylantiradir.

Sadridin Ayniy bu gapdan keyin chindan ham o‘y surib qoldi. Xayolida o‘sha qora kunlar qayta gavdalangandi. Uzun, teridan qilinib, ichi tuz va chaqa tangalarga to‘ldirilgan darralar qulog‘i ostida vizzillab sado bergandek bo‘ldi. G‘urbatli kunlar edi. Yangilikni xushlamovchi qadimchi dindorlar o‘z mavqelarini yo‘qotib qo‘yishdan cho‘chib, jadidlarga turli yo‘llar bilan qarshilik ko‘rsatishardi. Ular o‘rtasidagi qarama-qarshilik el-ulus ichida fitna-fasod, adovat urug‘ini tarqatar, bundan bolsheviklar ustalik

bilan foydalanib, tutayotgan gulxanga o'tin qalab turishardi. 1917-yili Buxoro Amiri Abdurauf Fitrat tomonidan yozilgan "O'sh buxoroliklar qo'mitasining Buxoroda islohot o'tkazish loyihasi"ni ma'qullab, uni hayotga tatbiq etish haqidagi o'z manifestini imzolagan kunlari Ayniy ham Buxoroda edi. O'sha kuni jadidlarning rus inqilobi ta'siridagi bir guruh yoshlar "Yashasin, xaloskorimiz amir!" deya ko'chalarda saltanat sohibini olqishlashdi. Millat ruhiga ekilgan kin o'z mevasini bermay qolmadi. Boshqa tomonda musulmon mutaassiblari ta'sirida bo'lgan 7-8 ming kishi yig'ilib, jadidlarni o'lasini qilib kaltaklashga tushib ketdi. Ular "Din yo'qolmoqda, shariat o'lmoqda", deb jar solardilar. Ayniy va yana bir necha kishi 75 darra zarbidan arang tirik qoldi. Hali-hanuz suyaklari zirqiraydur. Ammo birodarlari Mirza Nazrulla 150 darra zarbiga chiday olmay jon berdi. "O'z ixtiyori ila" Samarqanddan kelgan Behbudiy va uning sheriklariga xalqni qo'zg'atdi degan ayb to'nkaldi. Amir zudlik bilan manifestni bekor qildi. Mang'itlar sarvarining bu xatosi Buxoro tarixida o'chmas qora iz bo'lib qoldi.

Sadriddin Ayniy xayoldan chekinib, hamrohiga qaradi. Mahmudxo'ja hamon gapirayotgandi.

– Biz o'z haqqimizni talab etmakka kelganda oqsadik. Ha... bularning bari o'qimag'onimizdan. O'qimag'on odam urug'ini, yetti pushtini bilmaydi. Bundaylarni qulmarquq deydi. Biz ularga do'ndik. Dunyo beayov, "hayot-mamot kurashi maydoni"ga aylangan bir paytda o'rta osiyoliklar uchun bilim va boylik suv va havodek zarur edi. Faqat shulargina xalqning bo'hrondan omon chiqishi, va mustaqilligini kafolatlaydigan telefon, telegraf, temiryo'llar, havo yo'llari kabi ilg'or texnika vositalariga egalik qilish imkoniyatini tug'dirardi. Bunga kelganda esa amir juda-juda ojiz. Bu haqda Manifest e'lon qilinganida so'z ochganimda, g'oyat qahri kelib edi. Ich-ichidan zil ketib edi.

– Ha, nimasini aytasiz, – Sadriddin chuqur xo'rsindi.

– Biz millatni faqat ilm-u ma'rifat bilan ozod qilsa, bo'lur, deb o'yladik, – Behbudiy bir lahza tin

olib yana davom etdi. – Bizning "Sho'roi islomiya" firqamiz bolsheviklar tashviqotiga ishonib, tinch yo'l bilan Turkistonda Muxtor Respublikasi o'rnatish mumkin hisoblab, Farg'onadagi Milliy ozodlik kurashini qo'llab-quvvatlamadik. Natijada, bugun "bosmachilik" harakati deb atalayotgan jangchi birodarlarimizning mafkurachilari "Ulamo" firqasi va ularning rahnamolari Nosirxon To'ra Kamolxon o'g'li, Muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo'ja o'g'li kabilar bo'lib qolishdi. Vaqtida birlashganimizda yengilmas kuchga aylanishimiz mumkinligini endi-endi idrok etayapman. Biz bo'linib-bo'linib ro'shnolik topa bilmasmiz.

– Kichik millatlarga tamom hurriyat va istiqloq beramiz deb xitobnomalar vositasi-la va'da qilg'on bo'lsalar ham, bu quruq so'zlari qog'oz ustidagina qoldi, – dedi shu paytgacha suhbatga aralashmay turgan 35-36 yoshlardagi, ammo jussasi kichikligidan ancha yosh ko'rinadigan Hoji Muin. – Bular hozirgacha hech bir millatning muxtoriyat va istiqloqlini tasdiq etmadilar, bil'aks, shunday muxtoriyat va istiqloqliyat e'lon etgan millatlarga to'p pulimut bilan muqobala etdilar va etmaktalar.

– Ha, – uning gapini quvvatladi Sadriddin Ayniy, – bu bor gap. Bizning tilimiz kesildi, lunjimizga qulf osildi. Qachonki xalq dardini aytadigan bir mard o'g'lon chiqmas ekan, o'sha millat zalolatga mahkum. Yo'q, bu o'sha jamiyatda qabih illatlar xamirturushdek ko'pchigani uchun emas, o'sha xalq shunday farzandni yetishtirib berolmagani uchun shunday...

Shu payt oldilaridan bir necha otlig' ko'ringani bois u so'zlashdan to'xtadi. Uch yo'lovchi shahar amaldorlariga qulluq qilib, yo'l berishdi. Keyin yana davom etishdi.

– Dushmanimiz g'oyat kuchli, tadbirkor va ayyor, – dedi Mahmudxo'ja orqasiga qarab qo'yarkan. – Shu boisdan g'oyat ehtiyotkorlik zarur. Samarqandda "Kambag'allar yig'ilishi", "Mirvaj ul-islom", Kattaqo'rg'onda "Ravnaq ul-islom", Andijonda "Ozod xalq", "Miftoh ulmaorif", "Sana ul-islom", "Taraqqiyparvar", Qo'qonda "Musulmon mehnatkashlari ittifoqi", Xo'jandda "Muayin at-tolibin" va boshqa

tashkilotlar tuzildi. Ularning ba'zilari xorijdagi, xususan, qardoshlarimiz bo'lmish Usmonli turklarning "Idtihod va taraqqiy" yoki "Turk adami markaziyati" kabi yashirin tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatdilar. Ammo tarqoq holda. Biz bir yoqadan bosh chiqarmadik, bir yoqayenglik qilmadik. Gunohimiz ham, so'rog'imiz ham, xatoimiz ham shu. Bizning millatni tarqoqlik yemoqda.

Ular katta bir chorrahaga yetgach, yo'llari ayri bo'lganidan xayrlashmoq uchun to'xtadilar. Behbudiy va Sadriddin Ayniy xuddi so'nggi bor ko'rishayotgandek, qo'llarini bir-birlarining yelkalariga qo'yib, uzoq termulishib qolishdi. Vidolashayotgan birodarlardek, ko'zlarida yosh qalqidi. Mahmudxo'ja bir bayt she'r o'qidi: "Dili az sangi boyad bar sard oh vido', to tahammul kunad on ro'zki, mahmil beravd" Keyin quchoqlashib, xayrlashdilar. Mahmudxo'ja va Hoji Muin o'ng tomonga, Ayniy chap tomonga qarab ketdi.

"Zebo shabistoniy"

Bir kuni tong saharda Behbud uyimizga keldi. Anchagacha gapini nimadan boshlashni bilmay kalovlanib turdi. Keyin "Nima bo'ldi?", – dedi xayolchan. Undan "Nima nima bo'ldi?", – deb so'radim. U ancha paytgacha, miq etmay o'tirdi. Savolimni takrorlagach, o'ziga kelib, – u kuni ko'rgan tushingni so'rayapman, hayotingda shundan keyin nimadir sodir bo'ldimi? – dedi.

Yo'q, deb javob berishim ham mumkin edi. Ammo shu topda negadir "ha", dedim. Keyin o'sha zahoti ikki kuncha avval kechqurun Sayyorani kuzatib qo'yib, uyga qaytayotganimda it quvlagani yodimga tushib, o'shani aytib kuldim.

Behbud aqalli jilmayib ham qo'ymadi. Ancha paytgacha, jim turib qoldi.

– Bugun bir noxush tush ko'rdim, – deb gap boshladi, nihoyat. – Nima desam ekan, noxush deb ham bo'lmaydi, lekin juda g'alati. Tong saharda turib, suvga aytdim. Lekin baribir ko'nglim yorishmayapti. Uni qanday ta'birlashga ham hayronman. Allaqanday keng yalanglik emish. Men bir qabr tepasida

¹Ayрилш vaqtida toshdan ko'ngil kerak, toki karvon ketsin

turibman. Sinchiklab e'tibor bersam, qabrtoshga o'zimning suratim va ismim yozilgan. Keyin oyog'im yerdan uzilib, uchayotganimni his qildim. Osmonda – parqu bulutlar ortida kimdir meni chaqirayotgandek, yo'q, aniqrog'i, ko'rinmas ip bilan arshi a'lo tomon tortayotgandek edi. Lekin yerdan, o'z qabrimdan uzilishni istamasmishman. Yo'q... qo'rqdim deb ayto'lmayman, lekin g'alati bir hisni tuydim. Ha... chindanam g'alati bo'larkan, kishi o'z qabri tepasida tursa. Tushunaman, o'lim haq. Shavqatsiz, biroq achchiq haqiqat bor-ku – O'lmaslik chorasini izlayotgan odam bitta narsani – o'limni topadi, boshqalarni esa o'limning o'zi topadi. Lekin tug'ilmoq va o'lmoq o'rtasida va ularning har ikkalasining ortida nima bor? Dabdurustdan bugun kallai sahardan shularni o'ylab qoldim. Sen bilan gaplashgim keldi. Nima deysan, yo bu tez orada o'lishimga ishoramikan? He-he... Nahotki, shu navqiron yoshimda o'lishim buyurilgan bo'lsa... Agar buni istamasam-chi? Har holda taqdiring o'z qo'lingda deyishadi-ku. Balki, bu mumkinmasdir. Lekin bir narsani aniq bilaman. Biz butun insoniyat, aslida, turli vujudan iborat bo'lsak-da – aqlimiz, tafakkurimiz yaxlit. Balki, narigi dunyoda yaxlitlashar? Biz barchamiz shunchaki jilg'alarmiz, ammo milliardlab jilg'alarning qo'shiluvi alal-oqibat ummonni hosil qilmaydimi? Bu ummonning telbavor po'rtanalari qarshisida har qanday to'siq chikora. Yo'q, hech qanaqa sehrargilik haqida gapirmayapman, bu insonga berilgan, biroq o'zi bilmaydigan ilohiy qudrat – Tangrining tajassumi...

O'ylayotgandirsan, nega bunaqa gaplarni aytayapti deb. Xavotir olma, hali aqlimni yemadim. Shunchaki, kimgadir yorilgim kelayapti. So'roqlardan iborat qadamimda ko'ngilga malham bo'lgulik javob topolmay halakman. Men nega dunyoga kelganman. Parvardigor menga yo'l ko'rsatdi. Ko'nglimga nimanidir soldi. Uni amalga oshirishim kerakmi? O'ylasam, inson umri kelajak uchun pillapoya ekan. Farzandlar otalarining yelkasida yuksaklikka ko'tarilib bormoqda.

Behbud yana o'yga cho'mib qoldi. Uning bir-biriga ulanmayotgan gaplaridan – balki, u

shunaqa gapirishni xohlayotgandir, balki, men shunday o'ylayotgandirman – ko'zlarini qisib, tepa labini so'rayotganidan, nimadandir qattiq cho'chiyotganidan, allanarsalarni chamalab, jiddiy bosh qotirayotgani sezilib turardi.

Uni ilk bor uchratgan onlarimni esladim. Kimning qanaqaligini bilishda, hech qachon adashmasam kerak, deb o'ylab yurardim. Ammo unga kelganda, nima deyishga ham hayronman, to'g'risi, bunaqaligini kutmagandim. U goho haddan ortiq xayolparast bo'lib qolar edi. Ba'zida esa uni tinglab turib, daf'atan jinni emasmikan, degan xayolga ham borardim. Biroq ko'p holatda ma'nili, asosli gapirishi, mantiqqa yo'g'rilgan hikoyalarini tinglarkanman, bu xayollarim tumandek tarqalib ketardi. Hatto bir kuni azbaroyi changni yomon ko'rganimdan, kutubxonaga borib, eski-tuski kitoblarni titkilashni eng behuzur mashg'ulot sanasam-da, uni astoydil tekshirib ko'rishga qaror qildim. Ammo barcha manbalar qayta-qayta Akobirning haqligini isbotlayverdi. To'g'ri, eng mukammal tarix qo'llanmalarida ham uning hikoyalaridagi ba'zi bir elementlar uchramasdi. Ammo bu uni inkor qilishga imkon bermasdi. Nihoyat, bundan voz kechib qo'ya qoldim. Chunki avval-boshdanoq uni to'liq bilolmasligimni tushunib turardim. O'zi ham o'zini batafsil bilmaydigan odamni o'zga anglay olarmidi?!

Darvoqe, ilk uchrashuvimizda takror-takror pichirlagan so'zlarining qanday ma'no anglatishi haqida ko'p o'ylagandim. So'rayman, bu nima ekanini bilib olaman, deb, ko'p bor azm qilgan bo'lsam-da, mavridi bo'lmayotgandi. Ayni topda undan shu haqda so'radim. U menga xayolchan tikilib qoldi.

– Buning tarixi uzun, – dedi, gapni qisqa qilib. Unga vaqtim bema'lolligini, agar mabodo lozim topsa, aytaverishini va men bunga bajonidil quloq tutishimni aytdim. U bunga ishonch hosil qilgach, maroq bilan gapira boshladi:

– Esingda bo'lsa kerak, sirli maktub va undagi g'alati yozuv? E'tiborimni o'zbek jadidlari otasi Behbudiyga qaratib adashmagan ekanman. Xullas, izlanishlarim besamar ketmadi. Ma'lum bo'lishicha, Qarshi shahri 1926 – 1937-yillarda

Behbudiy nomi bilan yuritilgan ekan. Sababi bu inson aynan Qarshi shahrida Buxoro amirining farmoyishiga binoan 1919 yilda qatl etilgan ekan. O'ylaganimday, Behbudiy joy nomi bo'lib chiqdi. Demak, ko'rsatilgan sanada bobom hozirgi Qarshi, ular nazdidagi Behbudiy shahriga borishlari kerak bo'lgan. Shundan keyin shahar arxiviga borib, ma'lumot qidira boshladim, tarixchi olimlar, keksalar bilan suhbatlashdim. Zero, ishonchim komil edi UYA SI ham shu yerdagi biror hudud yoki inshootni bildiradi. Ikki-uch kun bor e'tiborimni shu ishga qaratdim. Uchinchi kuni edi, chamasi, shahar qamoqxonasining hujjatlarini o'rganayotib, izlagan ma'lumotlarimga duch keldim. UYA bu – sobiq ittifoq hududida qamoq joylarini bildirgan muassasa “учреждения” so'zining, SI-5 esa Qarshi shahridagi beshinchi tergov hibsonasi “Следственный изолятор – 5” ning qisqartmasi ekan. O'sha zahoti Qarshi shahridagi 1939-yildan 2004-yilgacha hibsona vazifasini o'tab, hozir yana Ko'kgumbaz masjidiga aylantirilgan qadamjoga yetib bordim. Bilasanmi, xuddi barcha narsa tanishdek edi. Xuddi, avval ham bu yerda bo'lgandekman. So'z bilan ifodalay olmasam kerak. Tomirlarimda qonim jimirlab, boshim g'uvullab ketdi. Biroz nafas rostlab olgach, hozirda masjid ayvonlariga terib qo'yilgan qadimiy eksponatlarni tomosha qila boshladim. Kichikkina, past tabaqali eshikdan o'tib, masjid hovlisiga chiqdim. Sardoba yonida bir odam turardi. Dastlab, payqas bermadim, keyin qarasam, u bobomga o'xshab ketdi. Kiyinishi, menga qarab turishi. Hayron bo'lib, sardoba tomon yurdim. Borganimda u yerda hech kim yo'q edi, noma'lum odam izsiz yo'qolibdi.

Uyga qaytib, hafsala bilan bobomning sandig'idagi narsalarni ko'zdan kechirdim. Turli eski-tuski kiyimlar, allambalo idishlar, kitoblar qalashib ketgan edi. Kitoblar orasidan eng qadimgisi e'tiborimni tortdi. Xotirladim. Bobomning Samarqandlik marhum Nadimxon degan tanishlari bo'lardi. O'rtalarida bordi-keldi bor edi. Bir safar Samarqanddan bitta eski kitob ham olib qaytgandilar. Bu – o'sha kitob edi. Izlanishlarim oqibatida Nadimxon Mahmudxo'ja

Behbudiyning katta farzandi Mas'udxo'janing uchinchi o'g'li bo'lganini aniqladim. Jumboqlarning ufqi qizarayotgandi. Kitobga bo'lgan qiziqishim yanada ortib, uni o'zimcha tadqiq qila boshladim. Boshlanishida bir bayt she'r bitilgan ekan:

*“Shabistone chunon zebost nazdi har suxandone,
Ki ta'rixi tamomi o' buvad “zebo shabistoniy”.*

E'tibor qilsam, oxirgi misraning so'nggi ikki so'zi ajratib ko'rsatilgan. Mumtoz adabiyotda ta'rix deb nomlanuvchi shunaqa she'riy san'at mavjud. Ma'lum tarixiy voqealar abjad hisobi ifodalanuvchi kichik lirik she'rlarda yashirin tarzda aks ettiriladi. Har bir harf ortida bitta raqam turadi. Bu abjad hisobi deyiladi. Arab harflari alifbosidan sakkizta – abjad, havvoz, hutti, kalaman, sa'fas, qorashat, saxxaz, zazag' so'zlari chiqarilgan. Ana shu so'zlardagi qisqa “a” unlisini hisoblamasa, qolgan harflar birdan minggacha bo'lgan sonni bildiradi. Masalan, Alif – 1, be – 2, jim – 3, ... zod – 800, ze – 900, g'ayn – 1000 kabi. “Zebo shabistoniy” so'zidan esa abjad bo'yicha hijriy 853-yil kelib chiqdi. Bilasanmi, bu milodiy qaysi yilga to'g'ri kelishini? – u menga shunday deb sinovchan tikildi.

– Yo'q, – dedim yelka qisib.

– 1449-yil... Bu yil tariximiz sahifalariga Mirzo Ulug'bekning o'z o'g'li Abdullatif tomonidan qatl etilishi voqeasi bilan muhrlangan. Xuddi shu yili Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi – 15 ming jilddan iborat bebaho kitoblar xazinasini yashirishga muvaffaq bo'ladi. Bularni aniqlaganimdan keyin yanada katta ishtiyok bilan izlanishni davom ettirdim. Kitobda ma'no anglatmaydigan turli uzuq-yuluq qaydlar, kishilarning qarzlari haqidagi ma'lumotlar hamda yana bir necha kishilarning ismi ham mavjud edi. Najmiddin Alixondan boshlangan ketma-ketlik Muhammad Siddiq ismli kishining nomi bilan tugagandi. Ular ichida Malik Yusuf munshi, Amir Fuzayl dodhoh, Zayniddin muhrdor, Rukniddin tovochi, Amir Yalangto'shbiy, Abdulazizxon, Ibrohim Otaliq, Amir Shohmurod, Niyozxo'jalar bor edi. Najmiddin Alixon Mirzo Ulug'bek saroyining “farzandi arjumandi” – Ali Qushchining suyukli shogirdlaridan biri ekan. Ketma-

ketlik bir avlodga mansub emasligidan bu avlodlar shajarasi emas – bu xazina qo'riqchilariniki ekanini angladim. Shunda bobom menga aynan xalq tilida yuradigan bir afsonaviy xazina siri haqida aytmoqchi bo'lmaganmikan, degan o'y o'tdi boshimdan. Nazarimda, o'sha xazina yillar o'tib, Sohirqiron Amir Temurning ixtiyoriga o'tadi. Temurdan nabirasi Mirzo Ulug'bekka. Sababi Sohirqiron nabirasi Mirzo Ulug'bek tug'ilganida unga Muhammad Tarag'ay deb o'z otasining ismini qo'ygan va uning timsolida padari buzrukvorini ko'rgan. Garchi o'limi oldidan katta o'g'li Jahongirning farzandi Pirmuhammad Mirzoni valiahd deb tanlagan bo'lsa-da, mutlaqo maxfiy bo'lgan afsonaviy xazinaning sirini toj-u taxtdan ham ilmni afzal biladigan shu suyukli nabirasiga ishongan. Shundan keyin bu sir Ulug'bekdan sevimli shogirdi Ali Qushchi orqali faqat jon uzilar chog'i aytilishi sharti bilan keyingi xazina vorislariga o'tib kelgan.

– Xo'sh, o'sha xazina qayerga yashirilgan ekan?

Behbud menga qarab jilmaydi. Keyin chap labi va qoshi hamohang ko'tarilib, yelka uchirdi:

– Bilmadim, har holda – to'g'ri kelgan joyga bo'lmasa kerak. Aytmoqchimanki, hamma narsa, kitoblar xavfsizligi, ularning chirib ketmasligi, havo bilan ta'minlanib turishi oldindan hisobga olingan va rejalashtirilgan joyga. Bilsang, dunyoda bunday afsonaviy xazinalar bisyor. Hindiston va Seylondagi Budda ehromlari, Amerikadagi atsteklar va Germaniyadagi nibelunglar oltin xazinalari bunga misol bo'la oladi. Ularning barchasi aql bilan tilsimlangan. Ularni kashf etish uchun yuksak tafakkur kerak...

Men ham Behbudning xayollari asiriga aylanib qoldim.

(Davomi kelgusi sonda).

* Yahyo Shaybak Nishopuriyning “Shabiston” asaridan olindi.

**Behzod FAZLIDDIN**

1983-yili tugʻilgan.
Oʻzbekiston davlat jahon tillari,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universitetlarini tamomlagan.
“Muqaddas zamin”, “Bogʻlaringdan
ketmasin bahor”, “Onamning
koʻnligiga ketamiz”, “Sen qachon
gullaysan”, “Kutmagan kunlarim,
kutgan kunlarim”, “Tushlaringdan
chiqib keldim” nomli sheʼriy
toʻplamlari chop etilgan.

Arafa

Boʻronlar toʻxtadi, suronlar tindi,
Tozara boshladi olamning rangi.
Borliqqa fusunkor sukunat indi,
Toʻkilib bormoqda tuygʻular zangi.

Oʻy bosib oʻltirar donishmand togʻlar,
Dov-daraxt nenidir sezganday ziyrak.
Nega oy yuzida koʻrinmas dogʻlar?
Yulduzlar shiviri nimadan darak?

Muhabbat bir taraf, viqor bir taraf,
Ohista sollanar gʻunchalar – barqut.
Sarak-sarak boʻlib soʻzlar tortgay saf –
Qutlugʻ bir ayyomga koʻrar taraddud.

Baxt qoʻshiq kuylaydi...

* * *

Haqdan kelib turmasa, qayda edi bu soʻzlar,
Yurak sanchib urmasa, mayda edi bu soʻzlar.
Junun joʻshgan chogʻlarda oʻzni andak yigʻmasam,
Dunyoning toʻrvasiga foyda edi bu soʻzlar.

* * *

Dunyo deganlari shumidi azal –
Hanuz Haq deganning qalbi chok-chokmi?
Kitoblar qatida jon bermish soʻzlar –
Qayerda donishlar talpingan Poklik?

Qayoqdan kelmoqda shuncha kasofat?
Qabohat qayerdan, tuhmat qayerdan?
Qizargan bu koʻzlar muncha ochofat?
Zulm-u jaholatga ruxsat qayerdan?

Nega oqibatni buncha kam oʻylar,
Nega zalolatga yoʻl berar Vijdon?
Nega oʻz-oʻziga tinmay zulm aylar,
Nega sof fitratin boy bermish Inson?

Masxaraboz tushmas sahna toʻridan,
Tuban talablarin qoʻymas nojinslar.
Zamin zir titraydi shovqin zoʻridan,
Qudrat kasb etmoqda asli ojizlar.

Qurushqoq qalblarda oʻlib-oʻlolmay
Ingranib yotganday Tafakkur, Irfon,
Mogʻor manzillarga yaqin yoʻlolmay
Qaylarda diydirab yuribsan, Iymon?

Tergov

Adashib yuribsan, bekor yuribsan,
Talashib yuribsan, beor yuribsan,
Ilashib yuribsan, bezor yuribsan...
Shumidi boring?!

Noqis-u nodon ul nafsingga qulsan,
Aslinda shaxssiz shul shaxsingga qulsan,
Lafzsizlikdan badtar lafzingga qulsan...
Shumidi koring?!

So'zbozlik sahnida so'zing qotibdur,
Yuzsizlik yurtinda yuzing qotibdur,
Vovaylo, o'zingda o'zing qotibdur...
Shumidi oring?!

Ne qilsang, ortingda malomat izi,
Hargiz charchamading dil uyin buzib,
Tavbaga muhtojdir tavbangning o'zi...
Shumidi zoring?!

Qiyofa

Sollanib bozorga otlanar so'zlar,
Har ko'chada yal-yal tovlanar, yonar.
Aslidan balandroq bahoni ko'zlar,
Tinmay muqom qilar, bejo to'lg'anar.

Kibor rastalarda turar terilib,
Kun o'tmay iriydi, ich-ichdan aynir.
Tomoshabop bo'lar biri kerilib,
Boshqasini birov saqichday chaynar.

Bichilgan faryodlar, bo'g'ilgan bo'zlar
Xor-xasdek beqadr dunyo yo'lida.
Azal dami o'tkir qilichdek so'zlar
O'tmas pichoq bo'ldi nomard qo'lida.

Dod solging keladi, yolg'on cho'zilsa,
Bozorga aylansa nazm-u nafosat,
Kechagi bokira so'zlar buzilsa...
Tomoshabin bo'lsa ahli farosat!

Sollanib bozorga otlanar so'zlar...

Hali zamon ko'rinar quyosh,
Yuzi so'lg'in, ko'zi jiqqa yosh,
Bir kungina berolmay bardosh,
Ufq bag'riga qon bo'lib botar.

Mayda hislar, mayda odamlar,
Shundaymi har joyda odamlar?
Odamiylik qayda, odamlar?..
Savollarning zalvori ortar.

Bo'zbolalar ko'zida firib,
Hayo yig'lar, or holi g'arib,
Barchinlarni ovga chiqarib,
Alpomishlar ichko'ylak sotar.

Bekka bermas so'z begoyimlar,
O'g'ilmi yo qiz begoyimlar,
O'zbek emas o'zbekoyimlar
Ko'zlarini o'ynatib o'tar.

Qarg'a ko'zin qarg'a cho'qir deb,
Yengil yozsang hamma o'qir deb,
Kim chiroyli cho'pchak to'qir deb,
Shoirlari lof urib yotar...

Rayhon rayhon emas, shamol bo'lmasa,
Osmon osmon emas, xayol bo'lmasa.
Nega so'rog'imdan cho'chiysiz buncha –
Inson inson emas, Savol bo'lmasa.



Sog'indim, sog'indim, xumor sog'indim,
Ko'zinga to'kildi oyning dog'lari.
Ming bora sochildim, ming bor yig'indim,
Huvillab qolmishdir ko'ngil bog'lari.

Mayli, kelma, mayli, tag'in kuttirgin,
Bo'ylaring keltirsin shamollar – qutli.
Ayriliq qo'shig'in davom ettirgin,
Sevingdan-da suygun sog'inching totli.

Qayon boqmay, ko'zga cho'g'lar tegadir,
Holbuki, kunlarim sovimayotir.
Negadir, ishqzada yurak negadir
Sog'ina-sog'ina ovunayotir.

Qorshe'r

Osmon bodroq to'kdi kun bo'yi –
Borliq qo'yni to'la oppoq dur.
Tabiatning bu kumush to'yi
Bo'g'otlarga ulashar huzur.

Ko'pni ko'rgan og'ochlar yana
Yelkasiga olar bor yukni.
Hali davom etar tantana –
Asrash kerak har noziklikni.

Keksa mo'ri zerikmas chekib,
Lek havoni qilmas bemaza.
Izg'irinning qalami tegib,
Gulzor bo'lib ketdi deraza.

Oqqush bo'lib qanot yozaylik!..
Xayollarning yo'qdir poyoni.
Tashqariga shoshar go'zallik
Sharfga o'rab olib hayoni.

Poklik chulg'ab borar har yerni,
Oqlik inar dala-yu boqqa.
Ayozkotib eng dilbar she'rni
Dog' yuqtirmay ko'chirar oqqa...

Na sevgi, na nafrat, na shodlik, na g'am...
Tobora baridan mosuvo yurak.
Hech narsaga to'lib bormoqda olam,
Bu qanday ishora, bu nedan darak?

Na ishonch, na isyon va na itoat...
Go'yo butun borliq bo'shliq bilan band.
Tabiat Tangridan kutmas inoyat,
Dunyo borgan sari kofirga monand.

Na ilhom, na ijod, na amal, na so'z...
Barimiz zolim-u, barimiz mazlum.
Pushmonlar to'zoni ochirmaydi ko'z,
Hozircha umrimiz hechlikka mahkum.

Tabir

Ertaga boshqacha nur ekar Quyosh –
Ertaga hammayoq yorug' bo'ladi.
To'kilsa, quvonchdan to'kilar ko'zyosh,
Yer-u ko'k g'ubordan forig' bo'ladi.

Armon bir dog' misol yo'qolar o'chib,
Bulutday tarqalur dillardan kadar.
Omonlik tilaydi bir-birin quchib
Chumolidan tortib chayonga qadar.

Tuyg'ular chashmida nurlar rango-rang,
Ko'nglingni yozasan kiroyilarga.
Chehrang ochiladi qay tomon boqsang,
Olam to'lib ketar chiroylilarga.

Baxt qo'shiq kuylaydi – o'ktam ovozi,
Xush sado to'ldirib kelar samoni.
Hamma taqdiridan minnatdor, rozi,
Ajrata olmaysan shoh-u qadoni...



Kengliklar hikmati – go‘zal tasavvur

*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat
xodimi, shoir Ikrom Otamurod siyratiga bir nazar*

O‘smir She‘r nuroniy Ash‘orning o‘zi tomon kelayotganini ko‘rib, uning salobati bosdimi bir tomonga burilib ketmoqchi bo‘ldi-yu, lekin bunday qilolmadi.

Ular to‘qnashdi. Birining yuzida xijolat, ikkinchisida esa mag‘rurlikka yo‘g‘rilgan mehribonlik hissi.

– Nahot, sizday mustahkam ildiz menga daxldor bo‘lsa? – sevinib ketdi o‘smir She‘r.

– Albatta, shuning uchun ham sendek niholim bor-da, – dedi keksa Ash‘or navqiron she‘rning yelkasidan quchib. – Endi sendan boshqa ayrilmayman. Kel, ertaga Dashtga chiqamiz. Bolaligimiz quvonchi – qir-u adir havosidan birgalikda bahra olamiz. Umid toyimiz hali o‘sha yerda. U ham abjir otga aylangandir. Har birimiz o‘zimizda mavjud bo‘lgan narsalardan olamiz.

– Sizda Falsafa, Tuyg‘u bor. Menda esa...

– Sen ham biron narsa olarsan.

– Menda arziri narsa bor deb o‘ylaysizmi?

– Nega yo‘q ekan? Senda judayam zarur narsa bor. Bu – Samimiyat, ya‘ni mening Ichkarim, Kanglum senda. Olib chiq ularni! Keyin bizni Dashtda kutib oladigan qadrdonimiz bor. Sen uni taniysan – Ikrom Otamurod...

Dashtdagi suhbat qizigandan qizidi.

Shoir ularni yaratgan bo‘lsa-da, suhbatlarini eshitmasdi, eshita olmasdi.

– Nazarimda, hayotning bor quvonch va tashvishlari talaffuzimizdagi “yengil tin oldi”, “og‘ir nafas oldi” degan iboralarda mujassamlashganday, – gap boshladi keksa Ash‘or. – Nazmni tirik jonga mengzaydigan bo‘lsak, u qachon yengil nafas oladi-yu qaysi paytda og‘ir tin oladi va bu qay holatda namoyon bo‘ladi?

– O‘tmishda shu qadar ko‘p ulug‘lar o‘tganki, biz bugun xayol qilayotgan narsani ular allaqachon o‘ylagan bo‘lib chiqadi, – fikrini ochiq aytdi o‘smir She‘r. – Hayotni ko‘rmay, undan o‘ziga xos xulosa chiqarmay “aqli” gap aytsang, albatta, ularni takrorlab qo‘ygan bo‘lasan. Ba‘zi hollarda adabiyotdagi noan‘anaviy yo‘ldagilar o‘zlarini ana shu xavfdan asraydilar degan fikrga ham boraman.

– Bir voiz to‘y oshi davrasida ma’ruza qildi, – maysaga yonboshlab oldi keksa Ash‘or. – Mavzu insoniy va ilohiy ishq xususida edi. Dasturxon atrofida olim-u shoirlar, diniy-tasavvufiy ta‘limot tadqiqotchilari ham hozir edilar. U mohiyatda shu qadar chalkashib ketganidan barchaning ensasi qotdi. Tag‘in shunday o‘dag‘aylab gapirardiki, go‘yo davradagilar maktab bolalari bo‘lib, ularga saboq berayotgandek. Insonning insonga nisbatan uyg‘ongan mehr-u muhabbati, oshiqning sog‘inch hislari Allohning bandasiga berilgan ne‘mati ekanligini qabul qilolmasdi. To‘g‘ri, shoirlar “ishq”, “yor”, “may”, “qadah” singari so‘zlarni istiloh sifatida qo‘llashgan. Bu jarayon Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Lutfiy, Jomiy, Huvaydo, Mashrab, Umar Hayyom singari ko‘plab allomalarning ijodida yaqqol kuzatiladi. Bu – ularni tushunishda



biryoqlamalikka berilishga huquq bermaydi. Shoirming faqat hayotdagi yor yoki ma‘shuqaga atalgan she‘rlari bor, ilohiy qudrat egasiga qilingan nazmiy ishoralari mavjud. Mutaxassislarning xulosalarini chala-chulpa o‘zlashtirib, o‘zimizcha chiqargan xulosa orqali ommadan obro‘ ta‘ma qilish ko‘pchilikni chalg‘itishdir. Mana, ibodat paytigacha holatni oling: namoz o‘qishdan oldin tahorat olinadi, niyat qilinadi. O‘zni jisman va ruhan pok deb his qilgandan so‘ng sajdaga bosh qo‘yamiz. Odam bolasining ham bir-biriga bo‘lgan mehr-u muhabbati ibodatgacha bo‘lgan tozalanishga o‘xshaydi. Tanlaganing bilan birga yashashni niyat qilasan va ahdingga sodiq qolasan. Va‘daga sodiqlik – yaxshi niyat va jisman pokizalik samarasi. Oshiq insoniy ishqining mislsiz musaffoligi tufayli yagona va qudratli Alloh bilan so‘zlash, unga dardini to‘kib-solish, uningsiz yonidagi yo dilidagi yor bo‘lmasligini anglash darajasiga ko‘tariladi. Masalan, Fuzuliy g‘azallariga bir nazar solaylik. Uning ham lirik qahramoni tanlagan yori yoki ma‘shuqasining o‘zi uchun tanho ekanligi orqali Yaratganning yagonaligini anglash saodatiga erishgan. Va bu xususda Allohdan madad so‘ragan holda ishq maqomining istiqomat joyini izlaydi, oldiga ishq haqiqatga ergashadimi yoki haqiqat ishqqami, degan savol qo‘yadi:

*Vodiyi vahdat haqiqatda maqomi ishqdir,
Kim mushaxxas o‘lmas ul vodida sultondin gado.*

Demak, ishq maqomi vahdat (yakkalik), sulton bilan gado mushaxxas (aniq) bo‘lmagan vodiya, ya‘ni Alloh ixtiyorida. G‘azal mavzu boshlanishini yanada chuqur o‘zanlarda xulosalash bilan yakunlanadi: “Ey Fuzuliy, intihosiz zavq bo‘lding ishqdan”. Oldin g‘azalni ko‘chirgan kotib yoki muharrir “zavq olding”ni “zavq bo‘lding” deb o‘zgartirganmikan, degan xayolga bordim. Keyin o‘ylab qaragam, “zavq olding” bo‘lsa ma‘no bir qadar jo‘nlashadi. Shoir “zavq bo‘lding” so‘zlarini birlashtirib, diniy-tasavvufiy g‘oya hosil qilgan, oshiqni shavqqa ko‘mib, zavqqa aylantirib qo‘yadi, ma‘nosida haqli xulosa chiqargan. Ya‘ni shoir nazarda tutgan “zavq” – insoniy muhabbat dunyosining ilohiy ishq olami bilan uyg‘unlashuvining o‘zi.

– Ijod bog‘idan anqiydigan falsafa ifori, tuyg‘u va timsollarning o‘zagi bir, demoqchisiz-da!?

– Ha-da! Atoqli adabiyotshunos olim va mohir tarjimon To‘xtasin Jalolov Fuzuliy g‘azaliyotidagi asl mohiyatni uning o‘z so‘zlari bilan asoslaydi: “Fuzuliy o‘z kulliyotida yozgan debochasida “Shoirligim muqarrar o‘lgach, umrimning bir qismini sarf etib, turli ilmlarni o‘rgandim. Ilmsiz she‘r asosi (poydevori) yo‘q devor kabi o‘lur va asossiz devor g‘oyatda bee‘tibor o‘lur” (Fuzuliy. Devon. T.: “Badiiy adabiyot”, 1961-yil, 6-bet).

– Sizga nisbatan munosabatlarni ko‘pdan beri kuzataman. Satrlaringizdagi ilm yog‘dusi inganidan murakkablashgan mohiyatdan ensasi qotadiganlar ham bor.

– To‘g‘ri, balki ular ba‘zi o‘rinlarda haqdirlar. Ammo izlanib topilgan mantiq asosi faqat shoirning o‘ziga va uni tushunadiganlarga ayon. Qara, Fuzuliy nima uchun dunyoviy ilmlar bilan diniy-tasavvufiy tushunchalarni atay qorishtirgan. Chunki u qalb va ilm orqali insoniy hamisha ilohiy ishq olamidagi munavvar tongga ko‘ngil bog‘lagan. Olim yana yozgan edi: “Fuzuliy g‘azallaridagi hayotiylik, yashovchanlikning yana bir siri barcha satrlarni bir tekisda qalb harorati bilan isitishida. Shoirda ana shu fazilat ato etilmagan bo‘lsa, har qanday ilm va aql kuchi bilan ham yaxshi she‘r yaratib bo‘lmaydi. Qalb esa Alloh yo‘rig‘idagi mo‘jiza”.

– Demoqchisizki, shoir she‘ri Allohga murojaat qilganday yondashishi kerak.

– Xuddi shunday. Bu sendan boshlanib, menga o‘tgan. “Janub qushlari” 80-yillarda yozilgan. Unda shunday satrlar borki, kishini bir zumda osmon-u falakka olib chiqib, o‘sha zahotiyoyq yerga tushirib qo‘yadi: “Bir qiz kezadi osmonda, Ko‘z-ko‘z qilgan cha husnin”. Gap ham oy, ham bir dimog‘dor go‘zal xususida, desangiz ma‘shuqaga nisbat berilgan oy haqdagi yuzlab she‘rlarning biri bo‘lib qoladi. Ammo senda oshiq nazaridagi yuksaklikda kulib turgan qizga oy sifatleri bog‘langan: “Qadami yetgan har joydan, nur sochadi izlari”. Pastdagi intizor ko‘zlarga beparvo boqayotgan oyning oy emasligiga



insoniy xususiyatlar ifodasi orqali ko‘pchilikni ishontira olding. “Bir qiz kezadi osmonda, kuladi qiqir-qiqir”. Tasavvur qilgansan: tunda oshiq yonidagi ma‘shuqa shunday kulsa, u bo‘lmagan paytlarda intizor yigit uchun oy ham ana shunday “kuladi”. Yana bir manzarali satrlarda ko‘klamni ta‘riflardan, suratlardan yaxshiroq bilib kishini uni tinglashga chorlagansan. Xo‘sh, “Osmon bilan zaminning tusi bir” bo‘lgan erta ko‘klam nima deyishi mumkin: “Yashaging kelar”.

– Men juda ko‘p dasht, kenglik motivlaridan foydalanganman, – zavqlanib ketdi o‘smir She‘r.

– Dasht havosini tuygan odamgina “Dashtlar – quyoshning yurti” deya oladi.

Chunki u dashtda quyoshning yayrab yoyilishini ko‘radi. To‘g‘rirog‘i, ko‘ra oladi. “Ko‘ra olish” iborasiga urg‘u berilayotganining sababi, dashtda yurt kengligi, xalqimizning bepoyon qalbi mujassam. “Qo‘shiqlar ko‘p dunyoda, dunyo bag‘ri ranglarga to‘liq”, “Kindik qoni tomgan makonning, ruhi – qalbdan oqqan e‘tiqod” – degan satrlar ham ona vatanimiz va undagi insonlar olami haqida kishida yorqin tasavvurlar uyg‘otadi. “Ufqlar orti bepoyon” satri haqda ham shunday deyish mumkin.

– Robindranat Tagorning shunday fikri bor, – ta‘sirlanganidan o‘zini tutib turolmadi o‘smir She‘r – “Qofiya tufayli so‘zlar oxiriga yetadi-yu, tamom bo‘lmaydi – ularning ma‘nisi tugal bo‘ladi-yu, ohangi eshitilib turaveradi,

quloq (ohang) bilan aql qofiya o'yinini davom qildiraveradi". Bu bilan hind adibi she'r tuzilishiga ham falsafiy tus bermoqda. Sizning tuzilishingiz ham ancha o'ylantiradi kishini.

– An'anaviy yo'lda qofiyalanamizmi yoki noan'anaviy qiyofada ko'rinamizmi, she'riy ritm saqlansa, mazmun-mohiyat badiiy o'ramini topsa bo'ldi-da! Avaylangan ritm, ohangdorlik tabiiy bo'lsagina, aql qofiya uyini bezata oladi. Bunday namunalar senda ham bor:

*Ko'rganda jilmayish, bu quvonch emas,
Bu ta'maning dilga bir yo'l topishi.
Hurmatga aylangan munosabatmas,
Qo'llarning ko'krakka hadeb chopishi.*

Yoki:

*Qayerga o't tushsa, o'sha yer yonar,
Dunyoning eng qadim masali shunday.
Imkonning-ku kelmas o'chirishga gar,
Alanga ham berma puflab shamolday.*

– Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Asqad Muxtor kabi ustoz shoirlarda kuzatilgan holatning sizda ham borligi meni quvontiradi doim. Ya'ni so'zlashdan ko'ra tasvirlashga harakat qilasiz.

– Faylasuf Plutarx nima deganini bilasanmi? "Poeziya – gapiruvchi rassomlik, tasviriy san'at esa gapirmaydigan poeziya".



– Tasvirlash yo'liga butunlay o'tganingizdan keyin imkoniyatingiz kengaydi. Sho'rolar davrida siz aytganlarni men aytolmasdim: "Notanish manzillar – ko'ngilda hayrat: qadamlar undovdir, qadamlar so'roq" yoki "Tarixga kirish man etilgan"...

– Qozoq xalqining fidoyi shoiri O'ljas Sulaymon xalqimiz boshidan kechirgan alamli kunlarni "Bizdan katta, haqiqatdan esa kichik bo'lgan madaniy bid'atlar"ga bog'lab tasvirlagan. Xalqning siyratidan uning ahvolini anglash ilmini o'rganish uchun ham shoir she'rlari bilan qadrdonlik rishtasini bog'ladim. Tarjima bahonasida siyratiga nazar soldim.

– Meni sizdan uzoqlashtirgan allomalardan biri O'ljas Sulaymon desam bo'ladimi? – hazillashdi o'smir She'r.

– Uzoqlashtirgan, deysanmi? – kuldi kekxa Ash'or. – Sendagi samimiyat yillar o'tishi bilan shakllandiki, men to'lg'in tuyg'ular sohibi bo'ldim. Bu manzilga birgalikda keldik. Sen faqat jisman emas aqlan va ruhan ham ulg'ayding.

– Sevintirdingiz meni. Ularni o'qib o'zim ham zavqlanaman: "Hatto sukut bosib yotgan toshgacha", "Ruhda tomir otgan ulug' haqiqat". "Bir-birin etagin tutgan Bois ko'p, Boislar tortishgan, talashgan", "Men sog'inch sharhini bituvchi kotib, Sog'inchga aylangan qullarning shohi, Ruhimning qatqaloq qa'riga botib, O'rlaydi sukutning sargashta ohi", "Kengliklar hikmati – go'zal tasavvur, Asrori o'zida, siri o'zida", "Xotirlar kanglumga to'kadi bir tot", "Yuzin yuvar hajrga ko'nglim", "Armonim sahosin sayr etgan ohu"... To'g'risini aytсам, sizga havasim kelyapti. Shu qadar ham sizdan uzoqlashib qoldimmi?

– Men bunday hisoblamayman, – ajablandi nuroniy Ash'or. – O'zimizga xos so'zladik, xolos. Masalan, sen yoshlik havosi bilan "quyosh yurti" degan sahroni men "ufqlarga yugurgan kenglik" dedim. Lekin sening gapingda ham jon bor. Biz endi bir-birimizga o'xshamaymiz. Sababini mendan emas, bosib o'tgan yo'limdan angla...

Ilhom AHROR



Vaqt o'ldirayotgan “asar”lar



**Dilnoza
RUSTAMOVA**

1989-yili tug'ilgan.
O'zbekiston Milliy
universitetining o'zbek
filologiyasi fakultetida
tahsil olgan.
O'zbekiston
Respublikasi Fanlar
Akademiyasi Alisher
Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi
stajyor-tadqiqotchisi.

Ikki kunning birida eshik qoqib, yo o'zi, yo o'g'li kitob so'rab keladigan qo'shni ayol kitobxonlikda ko'plarni ortda qoldirsa-da, adabiy saviyasi kaminani hayron qoldirdi. Oxiri bir kuni aytib qoldi: “Masnaviy”-u Chexovdan boshqa odamni zeriktirmaydigan kitoblaringdan yo'qmi? – U qanday kitob?! Shunday dedim-u, unga tag'in biror nima deyish fikridan shu zahoti qaytdim. U men bilan kitob oldi-berdisini endigina talaba bo'lgan kunimdan boshlab yuborgandi. Demak, kamida o'n yillik kitobxon. Ammo shu davr ichida u kitoblarni saralay oladigan bo'lishi kerak edi, chog'i. Harqalay, “vaqtini o'ldirish” uchun kitob o'qish mumkinligi haqida o'ylab ko'rmagan ekanman. Ba'zan kitob ham yetkazib berolmay qolaman. Shunday paytda, uyga bilmadim qanday yo'l bilan kelib qolgan, “ko'cha kitoblar”idan berib yuboraman. Ertasi azonda yana eshik oldida. “Juda qiziq ekan, shunaqalaridan yana yo'qmi?” Endi pushaymon bo'laman. Tezkorligiga esa qoyil qolmay ilojim yo'q. Tabiatan odam yengillikka moyil. Ammo kishida hatto ovqatni tanlab yeyish istagi bor-ku. Eng yaxshisini.

O'tgan yili ijtimoiy tarmoqlarning birida o'zbekistonliklar eng ko'p mutolaa qilgan kitoblar o'nligi aniqlangandi. Ularning deyarli barchasi menga tanish, ya'ni o'qiganman. Faqat bittasidan tashqari. 7-o'rinda turgan Isoqjon Nishonovning “Afg'on shamoli” roman epopeyasi haqida ilgari eshitmagan ekanman. Albatta, bu


mening adabiy jarayondan to'la bahramand emasligimni bildirib qo'ydi. Shu bois uni o'qishga ahd qildim. Ikki-uchta kitob do'koniga borsam, javonlarga bir tekis havas qilsa arzirli qilib terib qo'yilgan. Ayni muallifning naq 20 ga yaqin kitobi, yana detektiv asarlar. Rosti, bularning qancha muddatda yozilganligi qiziq tuyuldi menga. Ijodkorning biror kitobini sotib olish istagi tug'ildi. "Afg'on shamoli"ning 12 kitobi, uning yonida esa kamalakni ham xijolat qiladigan rang-baranglik bilan bezatilgan kitoblarning suratlari esa kishini vahimaga soladi. Muqovasida tungi ko'ylakda randpar qiz tasvirlangan "Telba kelinning kundaligi", go'zal turk ayoli ishva bilan nigohini tikkan "Sariq iblis", "Chimildiqli uy nolasi"dagi bir-biriga baxtiyor tikilib turgan ajnabiy juftlik, mashhur hind aktrisasining xayolga berilgan chehrasidagi "Tog'lik qiz", haddan ortiq zamonaviy "Yovvoyi kelin", "Baxtiqaro ma'shuqa"dagi yuzida ehtirosi balqib turgan qiz, yana shu kabi bir necha mualliflarning "yuksak did va mahorat" bilan sahifalangan kitoblarini do'konning asosiy qismini egallaganligini ko'rib, ularning savdosi yugurikligini sezdim. Bir qarashda hirsni qo'zg'ovchi muqovalar nahot mualliflarni qoniqtirgan bo'lsaki, uning ichidagi yozilmish ham bundan a'lo bo'lmas. Ularning ko'piga "XXI asr bestsellerlari", "XXI asr detektivi" deb yozilgan. Bular safida "Afg'on shamoli" ham bor. Har nechuk muqova dizayni tuzuk. O'n ikki kitobdan birini olsam

*Bir qarashda
hirsni qo'zg'ovchi
muqovalar nahot
mualliflarni
qoniqtirgan
bo'lsaki, uning
ichidagi yozilmish
ham bundan a'lo
bo'lmas.*

yetarli, o'yladim ichimda. Shu payt negadir qo'shni ayolning "qiziq kitoblar"i yodimga tushdi.

Romanning 1-kitobi – "So'nggi topshiriq"ni o'qishga tutindim. Boshladim-u, uloq ichidagi taloto'pga tushib qolganday

bo'ldim. Voqealar shunchalik tez sodir bo'lyaptiki, uloq u chavandozdan bunisiga, yana boshqasiga o'tib (voqealar hali Dushanbe, hali Dubay, Toshkent, Namangan, Moskva, Pokiston, Istanbul, Botkent, Olmaotada sodir bo'ladi) miyamda og'ir yuk turib qolgandek bo'ldi. Ifoda oddiy, voqealar ham kundalikdan olingandek, ammo nega bunchalik og'ir?! Uni eng ko'p o'qilgan kitob bo'lganiga sabab nima? Angliya, Germaniya nashriyotlariga uning qaysi tomoni ma'qul kelgan ekan? Adabiyotshunos ustozlarimizdan Q.Yo'ldoshev: Kun botish estetikasida asarda nima tasvirlanganligi, Kun chiqish badiiyatida esa nimaning qanday tasvirlanganligi badiiy



tahlilning diqqat markazida turadi, degan edi. Shundan so'ng chet el nashrlariga nega yoqqani biroz oydinlashgandek bo'ldi. Balki, bunga bestseller asar nuqtayi nazaridan qarashim kerakdir. Unda shu turdagi kitoblarga qo'yiladigan talablarni ko'rib chiqmoqchi, bestsellerlar nega o'qilish sabablarini aniqlamoqchi bo'ldim.

Demak, kitob (jumladan, bugungi kun bestsellerlari ham) bilimni oshirish, xilma-xil xarakterlarni kuzatish asnosida xotirani mustahkamlash, murakkab munosabatlarni tahlil qilish orqali tanqidiy va tahliliy qobiliyatni o'stirish, tasavvurni boyitish, stress va chalg'ituvchi negativ xayollarni kamaytirish, ma'lum narsaga butun diqqatni qaratish, ruhiy xotirjamlik olish va yashashga undash, erkinlikni his qilish, so'z boyligini oshirish, hayajonga tushish, tungi orom oldidan ruhiy xotirjamlik hosil qilish, hayotni samarali yo'lga qo'yish kabi ehtiyojli sabablar tufayli o'qiladi. Sanaganlarimiz bestsellerlarning talablari ham. Albatta, yozuvchi bir asarning o'zida sanalganlarning barchasini berolmasligi mumkin. "Afg'on shamoli"da bu qanchalik natija bergan? Xo'sh, talab avvali – bilimni oshiradimi? Afg'on o'lkasi, tog'lari haqidagi qisqa ma'lumotlarni hisoblamaganda bunday deyish mushkul. Qolaversa, adabiyot insonshunoslik ilmi deb tushunilar ekan, boshdan-oxir vahshiy, jirkanch sahnalarga qurilgan asar qanday qilib insonni o'rganish vositasi bo'lishi mumkin. Romanda qahramonlar bor, ammo ular xarakter darajasiga ko'tarilmagan, yoritilmagan. Ularni eslab qolsa bo'lar, ammo xotirani mustahkamlash uchun buning o'zi kamlik qiladi. Asar butunligicha ziddiyatli vaziyatlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular sun'iy ravishda hosil qilingan, jinoyatlar shunchaki axborot berayotgandek taassurot uyg'otadi. Muallif go'yo tashqaridan barini kuzatib turgan odamdek yozadi. Qahramonlarning yuz ifodasigina hislarini ko'rsatadi. Aslida, yozuvchi har bir qahramonining ichi va tashini o'rganib yozmaydimi? Bunda tanqidiy va tahliliy qarash uchun quruq axborotning o'zi kamlik qiladi.

Romanni o'qiyotib qahramonlarni ko'z oldingizga gavdalanitirmoqchi bo'lsangiz, ular haqida aytarli xarakterga doir ma'lumotga ega emasligingiz pand beradi. Joylar va sodir bo'layotgan voqealar tasviri tasavvurni kengroq olishga yordam bermaydi. Ya'ni badiiy asar o'qilayotganda voqea-hodisalar hissiyotga ta'sir etishi, ko'z oldimizda gavdalanishi, ovoz va shovqinlar eshitilishi, hatto hidni sezish tasavvuri ongimizda shakllanadi. Biroq asarda siz biror tasavvuringizni jonlantirish o'rniga, voqealar ortidan quvish bilan vaqt o'tkazasiz. Romandagi voqealarning bir-biri bilan bog'lanishini yozish malakasini shakllantirmoqchi bo'lgan odamga biroz foydasi tegadi, deyish mumkin. Chunki asar tasviri badiiy jihatdan yetuk bo'lmasa-da, voqelikni qizg'in tarzda berish va mantiqiy bog'liqlik o'quvchini keyingi sahifalarga o'tishga undaydi.

Kitob o'qish stressdan chiqishda yordam berishi, har o'qilgan 30 betdan keyin miyaning faollashishi natijasida yomon o'y-xayollar o'rniga yangicha qarashlar uyg'onishi mutaxassislar tomonidan isbotlangan. "Afg'on shamoli" ham stressdan chiqaradi, bunga aminman. Ammo u ikkinchi bir betartib ruhni ongingizga kiritib yuboradi. "...Ko'z qirim bilan yonimga boqdim. Bilagim ustida olachipor ilon o'tib borardi. Ortidan sherigi kelardi. O'rnimdan turdim. Mushtdek toshni qo'limga olib ilonlarning birining boshiga urdim. Ikkinchisini ham shu yo'sinda tinchitdim. Ko'zimni yumib ikkisining qonini ichdim. Terisini shilib maydaladim." (26-bet.) "...Oyog'iga mix qoqdim. Ko'kragini kesib tashladim, baribir indamadi!" (53-bet) "...Olmosdek o'tkir tig'li pichoq bo'ynining yarmini uzib tashladi"(130-bet) "... biri yonidan xanjarni olib Ruslarning boshini uzib tashladi. Tanasini mashina ichiga solib, ustiga moy sepib yoqib yuborishdi. Boshini selofan qopga o'rab yukxonaga tiqishdi". (220-bet) Uzib tashlangan bosh, tanasi titilib ketgan jasad, tomiriga nina sanchish jazosi haqida o'qiyotib, mutolaadan zavqlanib bo'lmaydi, agar Gannibal sizning sevimli qahramoningiz bo'lmagan bo'lsa. Qolaversa, asarda "bulutlar galasi", "do'rsoq

*Odam tabiatan
yengillikni xush ko'radi.
Ortiqcha mulohaza
qilmasdan, kitobning
annotatsiyasida
yozilgidek "bir nafasda"
o'qib chiqilishi asarning
ko'p mutolaa qilinishiga
sabab bo'lgan.*

lablar", "shirin qitiqladi", "qushlarning vahimali ovozi", "nurdek pok", "loyqalangan yosh tomchilari" kabi mantiqan noto'g'ri qo'llangan so'z va birikmalarni uchratish mumkin: qushlarning ovozi tashqi ta'sirlar bilan qo'shib vahima uyg'otishi ehtimol, biroq ularning sayrashida vahima yo'q; ko'z yosh esa hech qachon loyqalanmaydi, u hamisha tiniq.

Yana bir mantiqsiz syujetga qaraymiz: "Belidagi xanjarni olib, otliq ortidan uloqtiribdi. Xanjar uning ko'kragiga sanchilibdi va otdan yiqilibdi". (2-kitob 52-bet) Otliqning ortidan otilgan xanjar chavandozni aylanib o'tib ko'krakka tekkan bo'lsa kerak, deb o'ylash lozim bo'ladi bu yerda.

Romanning ikkinchi kitobida ham xuddi shu agressiyaga boy uzundan uzoq terrorchilik, vatanfurushlik harakatlari davom etadi. Birinchisidan farqli ravishda nafs va xirsga o'rin berilgan sahnalar talaygina. Ularni o'qish asar mutolaasi davomida

shundoq ham tartibsizlik kezib yurgan ruhingizda hali mavjud bo'lgan toza hislarni-da bulg'aydi. Shu yerida yuqorida tilga olganim ijtimoiy so'rovnomada necha yoshli kitobxonlar qatnashganiga qiziqdim. Ushbu asarni kengroq yoyilishiga uning barcha qismlari elektron nusxada tarqatilganligi sabab bo'lganini hisobga olsak, ularning aksariyati yoshlar bo'ladi.

Adabiyotning ijtimoiy-estetik qiymati bu kitoblarni chetlab o'tgan ko'rinadi. Zero, kitobxon muammoli syujet labirintida adashib, asardan estetik zavq ololmaydi. Qisqasi, kitob jangari filmni eslatadi. Ammo kuchli dramatismning yo'qligi uning bir kinochalik ta'sirini ham yo'qqa chiqaradi.

Xullas, kitobni o'qishga sarflangan 4 soat vaqtim mana shularni bilishga, biz bestseller deb atayotgan asarlar aslida qanday ekanligini o'zimcha baholashga, chamalashga imkoniyat berdi. "Romanda kishi ruhining dialektikasi"ni ochish markaziy o'rin oladi, deb yozadi Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi" kitobida. Roman deb atalmish bu yozilmishda esa biror butun ruh yo'q. Balki, adabiy-estetik ruhning o'zi yo'q. Asarda vatanpavarlik g'oyasi ilgari surilar ekan, uning badiiy saviyasi haqida ham jiddiy mulohaza qilib ko'rish o'rinli bo'lardi. Uni istagancha roman, roman-epopeya deyish bilan janr talablarini chetlab o'tib bo'lmaydi. "Roman har bir davrning estetik didi va

ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga moslashib, adabiyotdagi yangiliklarni zudlik bilan o'ziga singdirgan holda mudom shakllanishda yashovchi janrdir", deydi adabiyotshunos olim D.Quronov. "Afg'on shamoli"ni davrning estetik didi va ma'naviy ehtiyojlariga moslashgan asar deyish mumkinmi? Bunga uning kitobxonlar tomonidan ko'p o'qilgani dalil bo'lmaydimi? Yana o'sha boshda aytilgan gapga qaytamiz. Odam tabiatan yengillikni xush ko'radi. Ortiqcha mulohaza qilmasdan, kitobning annotatsiyasida yozilgidek "bir nafasda" o'qib chiqilishi asarning ko'p mutolaa qilinishiga sabab bo'lgan. Ammo uni yengil-yelpi asar deyishdan yiroqman. Tanlangan g'oyaga muvofiq badiiyat bilan boyitilishi, faqat yozish uchun emas, kimga va nimaga yozilayotganligi jiddiy o'ylab ko'rilishi lozim edi, nazarimda.

Kitob do'konlarining katta qismini egallayotgan, men yuqorida faqat muqovalari haqidagina fikr yuritgan bozor adabiyotlarining o'quvchisini "kitobxon" sifatida ko'rish birmuncha erish tuyuladi menga. Ular qiziq voqeaga oshiq va vaqtni o'ldirishni yaxshi ko'ruvchilardir. Bizning o'qish uchun sarflayotgan energiyamiz o'zimizga ikki-uch marta ko'proq quvvat bermas ekan, tafakkurimizni ochmas ekan, bu faqat vaqt o'ldirishdir. Vaqt esa hammani jazolay oladi, deyiladi maqolda.



**Rahimboy
JUMANIYOZOV,**
Toshkent irrigatsiya va
qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash
muhandislari instituti matbuot
kotibi,
filologiya fanlari nomzodi

Kasb nuqtayi nazaridan irrigatsiya yo'nalishi bo'lsa-da, san'atga muhabbat, nazm-u nasrga mehri bois, o'z tuyg'ulari, taassurot va kechinmalarini badiiyat tili bilan ifodalashga bo'lgan layoqat iste'dod uchqunlarining talant alangasiga aylanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ne ajab! Gap institutimizda tahsil olayotgan, she'riy va nasriy mashqlari bilan e'tiborga tushayotgan iste'dodli talabalarimiz haqida.

Kasblar, hunarlar ko'pki, o'rgatiladi, egallanadi. Intilish, talpinish, mashaqqatli mehnat, ustozlarining yo'l-yo'rig'i va maslahatlari orqali muayyan bir sohada obro'-e'tiborga ega bo'linadi. Lekin shunday bir olam borki, u kasb tanlamay, iste'dodni, tug'ma qobiliyatni talab etadi. U tuyg'ular dunyosiga, hissiyotlar ummoniga sizni

Badiiyatga tashna qalblar

oшно qiladi, qalbingizga bir olam sehr va nur baxsh etadi. Bu olamning makoni chuqur, tubsiz ummonda yoxud keng, bepoyon osmonda emas, balki qalbdagi orzu-armonda. Uning so'zi til uchidan chiqmaydi, dil tubidan yaraladi. Bu she'r-u shuur vujudini zabt etuvchi tuyg'ular tug'yonining tojdori shoirlikdir. Kasb nuqtayi nazaridan boshqa sohada bo'lsa ham, shunday tug'ma iste'dod sohiblari borki, ular so'z san'ati bobida katta muvaffaqiyatlarga erishishgan. Tarix bunga shohid.

Suv xo'jaligi ixtisosligi yo'nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrantlarning adabiyotga oshnoligi va tashnaligi olqishga sazovor. Ularning hayotiy tajribasi va bilim-saviyasi ortgan sari qalami ham charxlanib boradi. Ustozlari kabi ular ham el ardog'idagi shoir va yozuvchilar bo'lib yetishishlariga ishonamiz. Eng muhimi, buloq ko'z ochdi. Bu buloqlar qanchadan-qancha badiiyatga tashna qalblarning chanqog'ini qondiradi. O'zi ilm olgan ta'lim muassasasi, tug'ilib o'sgan ona yurti, ta'limiy va tarbiyaviy mehr ozig'ini bergan ustozlari va ota-onasiga muhabbati ustun bo'lgan barkamol avlodning shakllanishida muhim omil bo'ladi.



O'Imas NAZAROV

1992-yil tug'ilgan.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi

Ota o'rne

Onadan so'z ketar – juda mehribon,
Farzandga jon tutar, shunday qadrdon,
Azizlar bilinglar, hech qachon, hech on,
Otaning o'rnini bosolmas hech kim.

Mehri tilidamas, dilida yashar,
Sen uchun sahro-yu davondan oshar,
Bilinglar dunyoda, ey ahli bashar,
Otaning o'rnini bosolmas hech kim.

Qoqilsang suyagan, tayanching, tog'ing,
Yoningda men borman, degan har chog'ing,
Buyuklar buyugi, bo'lsin ardog'ing,
Otaning o'rnini bosolmas hech kim.

Yonimda bo'lsalar, kuchga to'laman,
Xalqda bir hikmat bor, amal qilaman,
Albatta, otamdek, inson bo'laman,
Otamning o'rnini bosolmas hech kim.



Sarvinoz XOLOVA,

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi

Xabar

Xabarlarda go'zal qiz muxbir
Olamshumul yangilik derdi:
Chet elliklar qilganmish ta'bir
Tadqiqotlar natija berdi.

Muz qoplagan qoya bor emish,
Asr osha qimir etmagan.
Ochishibdi shundan bir tirqish,
O'ylamagan, hech kim kutmagan.

Endi suvlar oqarmish toshib,
Muzlik ko'ksin yorishdi oxir.
So'ylar hatto qizning ko'z-qoshi,
Qoyil, dedim, olimlar mohir.

Xayolimda urilib o'ylar,
Shu olim-la qursaydim suhbat.
Qoyalarni, mayli, qo'yinglar
Muz ko'ngillar erisin, albat.





Dilmurod AKBAROV

1992-yili tug'ilgan.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi

* * *

Vatan bolaligim o'tgan bog'larda.
Vatan sha'nim kabi baland tog'larda.
Vatan eng munavvar nurli tonglarda.
Vatan deb yonmasa, urmasin yurak,
Vatan deb urmasa, kerakmas bu jon.

Vatan halol nonim, mehnatimdadir.
Quvonchim baxtim, zahmatimdadir.
Vatan Alloh bergan ne'matimdadir.
Vatan deb yonmasa urmasin yurak,
Vatan deb urmasa, kerakmas bu jon.

Vatan kelajagim, o'tmishimdadir.
Vatan ko'rguligim, kechmishimdadir.
Vatan qaytar joyim, ketmishimdadir.
Vatan deb yonmasa, urmasin yurak,
Vatan deb urmasa, kerakmas bu jon.

Vatan dilimdadir, ich-ichimdadir.
Vatan orimdadur, ham kuchimdadir.
Vatan osoyishim, ham tinchimdadir.
Vatan deb yonmasa, urmasin yurak,
Vatan deb urmasa, kerakmas bu jon.

Vatan uyqumdadir, sergakligimda.
Vatan yaxshilikka tirgakligimda.
Vatan kamolotim, go'dakligimda.
Vatan deb yonmasa, urmasin yurak,
Vatan deb urmasa, kerakmas bu jon.

Vatan onam kabi yolg'iz mehribon.
Vatandur otamdek sergak nigohbon.
Vatan dilim yashnatgan ilohiy bog'bon.
Vatan deb yonmasa, urmasin yurak,
Vatan deb urmasa, kerakmas bu jon.



Xursandbek RO'ZMETOV

1991-yili tug'ilgan.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi

Baxtingdan aylanay O'zbekistonim!

Daholar o'stirgan, ey navqiron yurt,
Ajdodlar o'giti ustozdir shaksiz.
Jaholat zulmiga ko'ksi qalqon yurt
Kim yashagay yurtga vafosiz, ahdsiz.
Tamaddun beshigi, nurli karvonim,
Baxtingdan aylanay, O'zbekistonim!

Senda tug'ilganim eng buyuk baxtim,
O'stiring avaylab issiq taftingda.
Bugunchi, jo'sh urib shijoat, shahdim,
Dunyoni keltirgum kichik kaftingga.
Olamni kashf etgan go'zal bo'stonim,
Baxtingdan aylanay, O'zbekistonim!

Xorazmiy lol etib ilm dunyosin,
Al-Jabr nomini qo'ydi muhrlab.
Ibn Sino topib ming dard davosin,
Butun tib ahlini oldi sehrlab.
Ajdodlarim yotgan fayzli ayvonim,
Baxtingdan aylanay, O'zbekistonim!

Ezgulik, ozodlik, tinchlik yo'lida,
Qancha o'g'lonlarning yutdi qaro yer.
Adolat mash'ali Temur qo'lida,
So'z ila dunyoni tutdi Alisher.
Navoiylar yurti, shuhratim, shonim,
Baxtingdan aylanay, O'zbekistonim!

Vatan, sajda kabi tuprog'ing aziz,
Havosi jannatning iforlaridan.
Kaftimga sanchilgan tikoning aziz,
O'zga yurtning gul-u, gulzorlaridan.
Bulbullar sayragan go'zal oshyonim,
Baxtingdan aylanay, O'zbekistonim!



Asad Dilmurodning "Pahlavon Muhammad" romani tarix va tarixdagi shaxslarga yangicha yondashish mahsuli ekanligi, unda odam tarixga qilingan ilova emas, balki o'z qismatini o'z shaniga yarasha o'tashi mumkin bo'lgan yaratq sifatida ko'rsatilgani bilan e'tibor tortadi. Ya'ni bu asarda tarix vositasida odam emas, balki odam orqali tarix aks ettiriladi. Yana ham aniqroq aytiladigan bo'lsa, yozuvchi uchun hayotning realligi emas, balki ma'naviy mohiyatning realligi muhimroq sanaladi. Boisiki, adib o'z romanida tasvirga olingan har bir timsolning ma'naviy dunyosi mohiyatini aks ettirishga, ichki olami shundayligining sababini anglatishga e'tibor qaratadi.

Qozoqboy YO'LDOSHEV,
professor

Asad

> DILMUROD <

1947-yil 20-iyulda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Qoratepa qishlog'ida tug'ilgan. Ijodkor ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida sirdan tahsil olgan.

1969-yili mehnat faoliyatini "Urgut sadosi" gazetasida adabiy xodim sifatida boshladi, so'ngra "Zarafshon", "O'zbekiston ovozi" gazetalari, "Kamalak" (hozirgi "Yangi asr avlodi") nashriyoti, "Sog'lom avlod uchun", "Sharq yulduzi" jurnallari hamda "O'zbekkino" milliy agentligida turli vazifalarda ishlagan.

Uning 1970-yili "Osmonning bir parchasi" nomli hikoyalar to'plami chop etildi. Keyinroq

"Non", "Og'ir kun", "Koshin", "Afrosiyob sukunati", "Hukm", "Xufton", "Alanquva", "Xayol cho'g'lanishi", "Sherdor", "Xilvat" singari hikoyalar, "Tosh burgut", "Sirli zina", "Mulk", "Girih", "Intiho" "Mezon burji" "Oq ajdar sayyorasi" kabi qissalar, "Mahmud Torobiy", "Pahlavon Muhammad", "Fano dashtidagi qush", "Rang va mehvar" nomli romanlar yaratgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Asad Dilmurod asarlari rus, ukrain, qozoq, tojik, turk, uyg'ur tillariga tarjima qilingan. 2003-yili "Devona" adabiy ssenariysi asosida badiiy film tasvirga olingan.

Yozuvchi 2019-yil 29-yanvarda vafot etdi.



Tursunboy aka tug‘ma shoir, xarakterida bolalar shoiriga monand samimiyat, kuzatuvchanlik, bor gapni borligicha aytish xususiyatlari bor edi.

Tursunboy Adashboyevdan yosh kitobxonlarga, o‘zbek va qirg‘iz bolalar adabiyotiga o‘qilganda juda tez yodda qoladigan misralar, zanjirga terib qo‘yilganday, biri ikkinchisiga suyanib kelaveradigan, kattalarga ham beg‘ubor bolalagini eslatadigan noyob meros qoldi.

Ahmadjon MELIBOYEV

Tursunboy

ADASHBOYEV

1939-yil 1-yanvarda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati, Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni bitirgach, 1961–1966-yillari Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) ning jurnalistika fakulteti hamda 1978–1982-yillari Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida tahsil olgan.

Shoirning 1962-yili “Buni toping, bolalar, aytib bermang, onalar” nomli birinchi she‘riy to‘plami kitobxonlarga tortiq qilindi. Shundan so‘ng uning 1964-yili “Kamolning olmasi”, 1966-yili “Biz sayohatchilar”, 1969-yili “Arslonbobo sharsharasi”, 1975-yili “Nur daryo”, 1978-yili “Olatog‘– lolatog‘”, 1979-yili “Guldesta” (qirg‘iz tilida), 1983-yili “Oslık na shesti nogax” (“Olti oyoqli xo‘tikcha” latish tilida), 1984-yili “Quyushqon”, 1988-yili “Arslonbob afsonasi”, 1990-yili “Pesnya javoronka” (rus tilida), 1991-yili “Uch bo‘taloq va sirli qovoq” va “Top

jildiz” (qirg‘iz tilida), 1997-yili “Topishmoqli alifbe”, 2002-yili “Hushtak chalib turasiz” (A.Obidjon bilan hamkorlikda), 2003-yili “Oltin yolli tulpor qissasi”, 2012-yili “Parodiyalar” “Osmondagi darvoza” (saylanma), 2015-yili “Qirg‘iz yolg‘ondan bir yolg‘on”, “G‘oz karnaychi bo‘lmasin”, 2016-yili “Maxfiy jang”, 2016-yili “Orzularim qo‘sh qanotim”, “Sichqonning orzusi”, “Maqtanchoq chumoli” kabi she‘riy kitoblari dunyoga kelgan.

Tursunboy Adashboyev o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun 2001-yilda “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. U, shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun “Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi” unvoni va “Manas” ordeni bilan ham mukofotlangan.

U 2017-yil 12-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

Anqov

Bir bola bor, gaplarini
Uqqan odam kuladi.
– Besh tiyinlik sharingizni
Narxi qancha turadi?..

Bilmas ekan

– Vuy, namuncha dahshatli
Siz aytgan Timsoh degan.
Esnaganda og‘zin qo‘lda
Yopishni bilmas ekan...

Atay qildim

Qaqildoq qiz Matlubani
Tanimaysiz hoynahoy.
Tufisini gohida
Kiyib olar poyma-poy.

Qizlar kulsa, Matluba,
Yoqlaydi o‘z gapini:
– Atay qildim, o‘ng oyog‘im,
Bosmasin deb chapini...

Ikki qo‘chqor suzishar

Ikki qo‘chqor suzishar
Shoxlarin qarsillatib.
Hayron qolib so‘raydi
Shaharlik Abdullatif:

– Stadionsiz, sudyasiz
Bu qanday musobaqa? –
Qishloqdagi bolalar
Kulishar: – Va-ha, va-ha...

Bahor tushib kelar tog‘dan

Qorlar erib,
Tuni bilan
Yerga yozib yashil gilam,
Bahor tushib kelar tog‘dan.

Toblanib
Qish ayozida,
Sinchalakning
Bayozida,
Bahor tushib kelar tog‘dan.

Boychechakdan
Chambar boshda.
Ta‘zim qilib,
Yurt, quyoshga,
Bahor tushib kelar tog‘dan.

Qo‘lga olib
Yangroq torin,
Ko‘z-ko‘z qilib
Iqtidorin,
Bahor tushib kelar tog‘dan.

Quyosh va asalari

Oqshom cho‘kib, Gulibeor
Boshga durra o‘radi.
Tuni bilan hordiq olib,
Shirin tushlar ko‘radi.

Tongda kimdir qo‘shiq aytar,
– Daydi shamol, goch endi.
Arilarning qo‘shig‘idan
Gulibeor ochildi.

Quyosh tog‘dan mo‘ralab,
Xijolatdan bosh qashir.
Asalari viz-viz qatnab,
Quvachada bol tashir.



Eshqobil

ShUKUR

1962-yil 20-iyulda Surxondaryo viloyatining Qumqoʻrgʻon tumanidagi Boymoqli qishlogʻida tugʻilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetida tahsil olgan. Ijodkor 1985–1992-yillari Oʻzbekiston televideniyesi muharriri, 1992–1994-yillari “Saodat” jurnali bosh muharrir oʻrinbosari, 1994–1995-yillari Davlat matbuot qoʻmitasi bosh muharriri vazifalarida ishladi. 1995-yildan “Oʻzbekiston” telekanali hamda “Maʼnaviy hayot” jurnali bosh muharriri lavozimida xizmat qiladi.

Shoirning ijodi oʻtgan asrning 80-yillaridan boshlanib, “Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar”, “Mengim momoning yoʻqlovi” singari dastlabki sheʼrlari bilanoq tilga tushdi. Shundan soʻng uning 1986-yili “Yurakni oʻrganish”, 1988-yili “Sochlari sumbul-sumbul”, 1989-yili “Tungi gullar”, 1995-

Eshqobil Shukur oʻzbek sheʼriyatida oʻz oʻrniga, boshqa hech bir shoir bilan adashtirib yubormaydigan ovozga ega shoir. U fikr va hayajon shoiri. U tajribalar qilishni yaxshi koʻradi. U qogʻoz toʻldirish uchun emas, yuraklarni toʻldirish uchun yozadi.

Xurshid DAVRON,
Oʻzbekiston xalq shoiri

yili “Yashil qushlar” singari sheʼriy majmualari dunyoga keldi. “Tungi gullar” kitobi respublika yoshlar tashkilotining Usmon Nosir nomidagi mukofotiga sazovor boʻldi. Eshqobil Shukur “Koʻhna bogʻ rivoyatlari”, “Oqibat oqshomi”, “Padarkush” kabi nasriy asarlar hamda “Ibtido xatosi”, “Naqshband” nomli dramatik dostonlar, “Lahza siniqlari”, “Nasoyim-ul muhabbat”ga sayr turkumlari, “Dunyoning koʻchishi”, “Qoʻriqxonada”, “Pul sanayotgan odam” kabi qissa va hikoyalar muallifi hamdir. Shoirning asarlari ingliz, rus, turk, ozorbayjon va boshqa xorijiy tillarda tarjima qilingan.

Eshqobil Shukur 2012-yilda “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi”, 2013-yili “Eʼtirof” mukofoti, 2016-yilda esa “Oltin qalam” xalqaro milliy mukofoti sohibi boʻlgan.

Portret

*Sening ko'zlarida sun'iy yo'ldoshday
Begona xilqat bor qorachiqlarga.
Shul sabab: ulardan kesilgan boshday
Toshlar qulab ketar tor bo'shliqlarga.*

*Lablaringning sirli yolqinlarida
Bir so'z bor ucholmay yig'lab turibdi.
Qaro sochlaringning to'lqinlarida
Adashgan kemalar suzib yuribdi.*

* * *

*Maysaga qo'shilib titramoq uchun
Navoiy bo'lmog'ing shart emas.
G'aribga qo'shilib ingramoq uchun
Yassaviy bo'lmog'ing shart emas.*

*Insonday... Insonday yashamoq uchun
Baqo bo'lmoqliging shart emas.
Bir bora vatan deb yig'lamoq uchun
Daho bo'lmoqliging shart emas.*

* * *

*Qahraton chillasi, yaldo sururi...
Ko'zim dashtlarini ko'mdi kumush qor –
Ruhim chehrasida muzlar qaridi,
Kel endi, ko'ksimni yorgil, zulfiqor.*

*Men og'ir uyquda... Ko'rpam kumush qor...
Sen meni o'ldirib uyg'ot, zulfiqor.*

* * *

*Voajab! meni ko'p hayratga solar...
Tilda ming da'vo-yu, dilda hech ma'no,
O'zini har kun bir yangilab olar,
O'n bor erdan chiqqan xotinday dunyo!*

* * *

*Otang seni yo'qlab Toshkentga keldi,
Endi uyg'on, ko'zingni och, tosh.
Yetmaydimi senga besh yillik o'lim,
Otang keltiribdi bir xalta ko'zyosh.*

*Unga yuzingni yuv, yuragingni yuv,
Qara, bosh-odog'ing qop-qora qurum.
Otang yetmish yilni sudrab kelibdi,
Seni qo'yvormaydi besh yillik o'lim.*

Go'ro'g'li

*Goho botirlarni tug'ar qabrlar,
Goho tug'adilar yetim qasosni.
Yer ostiga kirsar barcha shoirlar,
Osmondan kutinglar ulug' ovozni.*

*Goho botirlarni tug'ar qabrlar
Marhumlar dunyosin ijodi kabi.
Yer ustiga chiqar avval shoirlar
Dard tutgan qabrlar faryodi kabi.*

Anjuman

*So'zlar qiyg'os gullar bu kecha...
Bir jom obizamzamga aylanaq sabr,
Yashillanib ketar qarri daricha,
Peshonangni silar laylatul-qadr.*

*Bu bog'da anjuman zamoni yetgan,
Bu muslim daraxtlar jannatdan qiyos...
Tangri qachonlardir tilingga ekkan,
So'zlar gullayotir qiyg'os va qiyg'os.*



Sa'dulla Siyoevning “Yassaviyning so'nggi safari” romanini yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan adib, biz yuqorida sanagan din va dunyo ilmini, hazrat yashagan tarixiy sharoitni mukammal o'rganib, mutasavvif shoir hayotini yoritish uchun o'zini haqli sanagandan keyin bu asarni yozishga jazm qilgan.

Gulnoz SATTOROVA,
filologiya fanlari nomzodi.

Sa'dulla

SIYOYEV

1939-yilning 25-martida Qozog'iston Respublikasining Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. 1957–1962-yillarda Toshkent davlat universitetida (hozirgi O'zMU) o'qigan. U dastlab “Yoshlik” radiosida, keyinchalik “Mushtum” jurnalida ishladi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg'armasiga rahbarlik qildi.

Sa'dulla Siyoyev she'r va hikoyalari bilan o'tgan asrning elliginchi yillari ikkinchi yarmidan matbuotda ko'rina boshlagan.


1970-yili uning birinchi hikoyalar to'plami – “Qasam ichmagan yigit” chop etilgan. Shundan so'ng “Sadag'ang ketay” (1972), “To'ylar muborak” (1975), “Oy borib, omon keling” (1976), “Og'ir vaznli janjalkash”, “Erkaklar uchun ertaklar”, “Yorug'lik” (1986), “Avaz” (1987), “Beparvo bo'lmoqchiman” (1990) kabi roman, qissa, hikoyalardan iborat kitoblari nashr etildi.

Yozuvchi istiqlol yillarida “Yassaviyning so'nggi safari” (1993), “Haqiqat yo'li” (1997) nomli ikki kitobdan iborat tarixiy roman, yana “Mening xo'roz quvganim” (hikoyalar, hajviyalar, badialar, 2007), “Yolg'onchining rost so'zi” (hikoyalar, xotiralar, 2010) kabi kitoblar yaratdi.

U L.Tolstoy, M. Zoshchenko, L.Lenx, A.Arkanov, G.Gorin kabi rus yozuvchilarining hikoyalarini ona tilimizga mahorat bilan o'girdi. Sa'dulla Siyoyevning ham bir qator asarlari rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turk va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilindi. Ayniqsa, yozuvning “Ahmad Yassaviy” romani istanbullik professor, doktor Shuayb Qoraqoshga (Prof. Dr. Suayip Karakas) tomonidan Cumle Yayinlari nashriyatida chop etilgan kitobi qardosh xalqlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Yosh kitobxon, quyida Sa'dulla Siyoyevning hajviyalari bilan tanishasiz.

“Neksiya”ning ildizi



*Sog'lom bo'lay desang,
soliqdan qochma.
(Yangi chiqqan shior).*

To'ychiyevni bir idoraga chaqirdilar. U sahar turib yo'lga tushdi. Bu idoraga kirish ham qiyin ekan. Eshikda bir qorovul, charxpalakdek aylanma to'siqdan o'tsang, yana bir qorovul. To'ychiyev qo'lidagi chaqiriq qog'ozini pesh qilib arang ichkariga o'tib oldi.

Vahimali xonada jikkakkina, olako'z yigit o'tirgan ekan. To'ychiyev uni tanidi, lekin o'zini tanimaganga oldi.

– Yaxshimisiz, uka. Chaqirtirgan ekansiz, keldik.

Olako'z stoldan boshini ko'tarmay to'ng'illadi:

– Hm, chaqirmasak kelmaysizmi? Boylik orttirish deganda do'ppingizni tishlab yugurasiz, soliq to'lashga kelganda dumingizni tutqazmaysiz! Shunaqami?

– Unchalik emas, – dedi To'ychiyev, – biz hamma soliqlarni o'z vaqtida to'lab turibmiz.

– Familiyangiz?

– To'ychiyev. Sattor To'ychiyev.

– Hozir ko'ramiz-da, – dedi jikkak yigit va yonboshidan qalin daftar olib titkilay boshladi, – Toymasov, Turdiyev... Ha, mana, To'ychiyev Sattor. Iye, mashinangiz bor ekan-ku? “Neksiya”! Supersalon! Qulluq bo'lsin...

To'ychiyev aybdor kishidek xijolat bo'ldi:

– Rahmat. Ha endi bir ko'ngil ketgan edi-da...

– Men sizga mashina qulluq bo'lsin,

deyayotganim yo'q, soliqdan qochib yurganingiz qulluq bo'lsin, deyapman!

– Qochib yurganim yo'q, – dedi To'ychiyev, – uni endigina oldim.

Yigit iyagini ko'tarib chimirildi:

– Aytmoqchi, o'sha “Neksiya”ni qaysi pulga olgansiz, bilsak bo'ladimi? Deklaratsiyangiz bormi?

– Eskiroq bir “Moskvich”im bor edi, uni sotdim, keyin qaynimdan, ukamdan qarz oldim.

– Xo'sh, “Moskvich”ni-chi, uni ham qarzga oluvdingizmi?

– Yo'q. Avval “Zaporoj”im bor edi. Sotdim. Oylikdan bir siqim-bir siqim orttirib...

Olako'z yigit tovushini ko'tardi:

– Hov, amakil! “Zaporoj” osmondan tushmaydi. Uni ham pulga beradilar. O'zingiz anchayin bir o'qituvchi ekansiz. Oylikdan orttirib mashina oldim deganingizga qaysi ahmoq ishonadi? To'g'risini aytavering!

– Undan oldin velosipedim bor edi...

Olako'z endi oshkora kalaka qilishga o'tdi:
– Velosipedni ham, hoynahoy, qarzga olganman, dersiz?

– Yo'q, – dedi To'ychiyev, – uni menga sizning otangiz sovg'a qilgan edi. Olako'z yigit og'zini qiyshaytirib ajabladi:

– Nega endi mening otam sizga velosiped sovg'a qilar ekan? Nima, siz yetti tug'ib bir qolganimisiz?

– Otangiz mendan qarz edi. Esingizda bo'lsa, siz institutga kirolmay o'mbaloq oshdingiz. Keyin dadangiz oldimga yig'lab keldi. “Jon To'ychiyev, institutda tanishlaring bor ekan, bizning o'g'ilchaga yordam berivor, yaxshiligingni unutmayman”, dedi. Bir amallab sizni institutga joyladik. Evaziga velosipedlik bo'lib qoldim.

Jikkak amaldor sevinib ketdi.

– Ana-a... Masala ravshan. Demak, siz bir halol, mehnatkash odamdan pora olgansiz! Mana “Neksiya”ning ildizi qayoqda ekan! Men bu ishni shundayligicha qoldirolmayman. Hali guvohlarni chaqirib gaplashamiz. To'ychiyev eshikka qarab yurdi. – Otangizni ham chaqirish esingizdan chiqmasin, – dedi asta.

Olako'z jazavasi tutib baqirdi: – Kerak bo'lsa chaqirtiramiz ham!

To'ychiyev indamay chiqib ketdi. U biladi, Olako'z ikki dunyoda ham otasini chaqirolmaydi. Chunki uning otasi o'lgan edi.



O'jar

– Mening she'rimni yomon deyishga qanday jur'at etdingiz, axir siz bitta ham she'r yozmagansiz-ku?! – dedi bir muallif Afandiga.
– Men umrimda tuxum tuqqan emasman. Ammo qovurilgan tuxumning mazasini tovuqning o'zidan ko'ra yaxshiroq bilaman, – javob berdi Afandi.

Kula-kula o'lasiz

Kitob sotuvchi xaridorlardan biriga "Kulgili hikoyalar" kitobini uzatib:
– Shu kitobni oling, juda qiziq, kula-kula o'lasiz, – dedi.
– O'zingiz bu kitobni o'qiganmisiz? – so'radi xaridor.
Ularning suhbatiga quloq solib turgan Afandi kitob sotuvchiga ishora qilib:
– O'qigan bo'lsa, tirik qolarmidi, – dedi.

Aziz o'quvchiga!

1. Siz "Yoshlik"ni doim o'qib borasizmi?
2. Ta'lim olayotgan maktabingiz kutubxonasida "Yoshlik" jurnali bormi?
3. Adabiyot darslarida ustozingiz qaysi adabiy nashr (gazeta yoki jurnal) lardan foydalanadi?
4. Jurnalda qanday asarlarni o'qishni xohlaysiz?
5. Ota-onangiz, bobo-buvingizdan so'rab ko'ring-chi, ular yoshligida "Yoshlik"ni mutolaa qilishganmi?

Eslatma!

Aziz kitobxon! 2020-yildan "Yosh kitobxon" tanlovida o'qilishi zarur kitoblar qatoriga "Yoshlik" jurnalida 2019–2020-yillarda e'lon qilingan asarlarni o'qish tavsiya etildi. Agar jurnalga 2020-yil uchun obuna bo'lsangiz, 2019-yilgi sonlarining elektron nusxasini (pdf shaklda) bepul qo'lga kiritasiz. Jurnalimizga **Payme** orqali oson va tez obuna bo'lishingiz mumkin.

Quyidagi to'lov qog'ozini to'ldiring va obunaga shoshiling! Murojaat uchun telefon: +998945449833

Xazinachi	"Yoshlik" jurnali tahririyati	
	(to'lovni oluvchi muassasaning nomi)	
	Bank muassasasi: "IPAK YO'LI" banki Sag'bon filiali	
	To'lov oluvchining	
	Hisob raqam 20212000300118214001 BMM raqami: 01036	

	(familiyasi, ismi va otasining ismi)	

	yashash manzili	
	To'lov maqsadi Obuna	Pul miqdori so'm
	(3-12-sonlar)	204 500
	To'lovchi imzosi Jami:	204 500



Muqovada:
Hasan Paydo
olgan surat.

Bosishga 16.03.2020-yilda ruxsat berildi.
Qog'oz formati: 84x108 1/16
Nashriyot hisob tobog'i: 8
Obuna indeks – 822.
ISSN 0207-9137.
Jurnal 2007-yil 4-mayda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan N° 0253 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.
Jurnalidan ko'chirib bosilganda "Yoshlik"dan olindi" deb izohlanishi shart.

"SILVER STAR PRINT" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma N° 53. Adadi: 1000. Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-uy.